ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Issiqlikka chidamli qatlamli variatrop temirbeton buyumlarning afzalliklari *Yunusaliev Elmurad Maxammadyakubovich* *Otaqulov Baxromjon Adxamovich*	9
2	Issiqlikka chidamli variatrop beton tuzilishini shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari *Yunusaliev Elmurad Maxammadyakubovich* *Otaqulov Baxromjon Adxamovich*	14
3	Shungit dispersligining betonning fizik-mexanik xususiyatlariga va issiqlikka chidamliligiga ta'siri *Yunusaliev Elmurad Maxammadyakubovich* *Otaqulov Baxromjon Adxamovich*	20
4	Mikrokontroller yordamida nasos qurilmasining suv sarfini aniqlash *Xodjimatov Muxammad-Bobur Zaynabidin o'g'li*	27
5	Past kuchlanishli havo elektr tarmoqlari. *Xakimov Temurbek Boxodirjon o'g'li* *Xoshimjonov Muxammadjon Xayrullo o'g'li*	34
6	Ingliz-o'zbek raqs san'ati terminlarining raqamli lug'atini tuzishda semantik teglash va korpus texnologiyalari *Yarashova Vazira Shuxratovna*	42
7	Yantoq (alhagi maurorum) o'simligi tarkibidagi gigroskopik namlikni aniqlash *Z.X.Abduraimov* *M.D.Kodiraliyeva*	52
8	Zamonaviy axborot tizimlarining asosiy tamoyillari *Yunusova Dilrabo Akmaljon qizi*	60
9	Современный ассортимент и перспективы развития рынка пищевых продуктов для больных целиакией *Атабаева Гулшанбану Иноят кизи* *Атамуратова Тамара Ивановна*	68
10	Беременность во время пандемии коронавирусной инфекции covid-19. Рискы и влияния на будущего ребенка. *Маматкулова Махбуба Тожиалиевна*	75
11	Водорастворимые многофункциональные структурообразователи и их класификация. *Адизова Наргиза Замировна*	82
12	Informatika o'qitishda motivatsiyani oshirish uchun o'yinlashtirish *Otepbergenov Jetkerbay Sakbergenovich*	90
13	Karyer ekskavtorlarida po'lat arqoniga ta'sir etuvchi kuchlarni uzgarishining nazariy tahlili *Elbekov Jasurbek Ulug'bek o'g'li* *Boltayev Muxammad Azamovich* *Umirzaqov O'tamurod Toshtemir o'g'li*	101
14	Talabalarning maxsus fanlardan ijodiy qobiliyatlarini faollashtirishning ahamiyati va fikrlash mahoratlarini rivojlantirish imkoniyatlari. *Djalolova Dilafruz Fattoxovna*	109
15	Paxta xom ashyosi tarkibidan mayda chiqindilarni ajratishda qoziqlar oraliq masofasini optimallashtirish *Djamolov Rustam Kamolidinovich* *Karabaev Ibragim Turdievich* *Raximov Rashid Xaydarovich* *Abidova Anora Rustam qizi*	122
16	Paxta xom ashyosi tarkibidan mayda iflosliklarni ajratish jarayonida ritmli qoziqli barabanda zich va siyrak guruhlardagi qoziqlar sonini optimallashtirish *Djamolov Rustam Kamolidinovich* *Karabaev Ibragim Turdievich* *Abidova Anora Rustam qizi*	127

ISSN 3030-3907

	Raximov Rashid Xaydarovich	
17	Gtl sintetik suyuq yoqilg‘ilarni tashish va saqlash jarayonlarida yo‘qotilishlarni aniqlash uchun ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiqi *Qobilov Azamat Beshim o‘g‘li* *Tilloyev Lochin Ismatilloyevich*	134
18	Gtl texnologiyasida hosil bo‘ladigan unconverted oil fraksiyasining tarkibi va uni qayta ishlash texnologiyalarining zamonaviy holati *Savriyev Muhriddin Sadriddinovich* *Do‘stov Hamro Bozorovich* *Tilloyev Lochin Ismatilloyevich*	142
19	Gtl texnologiyasi asosida olingan sintetik dizel yoqilg‘isi tarkibidagi ikki halqali aromatik birikmalarning yoqilg‘i sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri va ularni boshqarish usullari *Muxiddinov Jasur Jo‘ra o‘g‘li* *Tilloyev Lochin Ismatilloyevich*	155
20	Zanjirli uzatish mexanizmlarida uzatish qutilaridan foydalanishning afzalliklari *Raximov Rahmatullo Shokirjon o‘g‘li*	163
21	Intensiv sharoitda vishinka va shampinyon qo‘ziqorini yetishtirishda shamollatish tizimini sun’iy intellekt asosida boshqarish *Abdullayev Sherzod Sherali o‘g‘li*	177
22	Kiberxavfsizlikda tahdidlarni erta aniqlash usullarining evolutsiyasi: imzo *(signature-based)*, anomaliya va gibrid yondashuvlarning qiyosiy tahlili *Samarov Xusnuddin Qamardinovich* *Odilov Akmal Odilovich*	185
23	Improved design of a liquid mixing device with inclined disc blades having wavy surfaces *Djuraev Anvar* *Dustova Mekhriniso* *Oripov Dostonjon*	191
24	Ipak chiqindilaridan olingan funksional noto‘qima matolarning in vitro va in vivo tadqiqoti: fizik-kimyoviy va biologik mexanizmlar *Muratova Zulfizar Axmadjonovna*	201
25	Sabzavotlarni quritish korxonalari oqova suvlarini tozalashda koagulyantlarning xossalarini tadqiq etish *Baqoyeva Marjona Adiz qizi* *Nazarov Sayfulla Ibodulloyevich* *Razzaqov Hasan Qalandarovich*	208
26	Chiziqli dinamik ob’yektlarni parametrik identifikatsiyalashning o‘rtacha kvadrat mezonli yondashuvi *Safarov Elyorbek Xasanovich*	215
27	Yoshlarni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlash tizimida maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarining roli *Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o‘g‘li* *Rahmonqulova Oksana Aliqulovna*	222
28	Talabalarning kasbiy tayyorgarligini ta’limni raqamlashtirish sharoitida takomillashtirish *S.K.Shaminova*	230
29	Akademik maqolalardan metama’lumotlarni ekstraksiya qilish: muammo tahlili va mavjud yechimlar *Rashid Muxtorovich Turgunbayev*	236
30	Mahalliy xomashyolar asosida olingan moyli emulsiya rentgenogrammasi. *Q.A.Rejabboyev* *G‘.A.Doliyev* *A.B.Abdulhayev* *A.A.Nodirov*	245
31	O‘zbek tilidagi matnlarni intellektual tahlil qilish: model va algoritmlar *Gulmurodova Dinora* *Xayrullayev Mo‘minbek* *Jumanazarov Javlon*	254

ISSN 3030-3907

32	Yuqori samaradorlikka ega yarim o‘tkazgichli quyosh elementlarining ishlash tamoyili va rivojlanish tendensiyalari *Uraimov Axror* *Aliyev Suxrob Rayimjonovich* *Alijonov Abbosbek Azizjon o‘g‘li*	262
33	Qayta tiklanuvchi energiya integratsiyasi sharoitida elektromobillarni zaryadlash infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari va aqlli joylashtirish modellari *Qodirov Dilshod Botirovich* *Qobilov Raximjon Komiljon o‘g‘li* *Davirov Alisher Quvondiq o‘g‘li* *Zokirov Islomjon Baxtiyor o‘g‘li*	269
34	Mahalliy basalt xom asyosi asosida portlandsement klikeri olish *Umarov Faxriddin Sharobiddinovish* *Xamidjonov Samandar Akmaljon o‘g‘li*	280
35	Kon-metallurgiya kombinati flotochiqindilarini qurilish materiallari ishlab chiqarishda utilizasiya qilish yo‘llari *Umarov Faxriddin Sharobiddinovish* *Mamadaliev Ilxomboy Muhsinboy o‘g‘li*	285
36	Konchilikda shovqin va tebranishlar ta’siridan kelib chiqadigan kasb kasalliklarining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar *Norqulov Abbos Chori o‘g‘li* *Axmedov Alisher Parda o‘g‘li*	291
37	Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni kamaytirish *Norqulov Abbos Chori o‘g‘li* *Hamidov Sodiqjon Abduholiq o‘g‘li*	298
38	Qoraqalpog‘iston fosforitlaridan va shrot chiqindilaridan guminli oddiy superfosfat ishlab chiqarishning samaradorligi *Tojiboyeva Munisa Akmal qizi*	306
39	Effectiveness of modern prophylactic approaches in rh alloimmunization risk *Narkulova Sokhiba Uktamovna* *Abdumuminova Madina Akmal qizi*	313
40	Mashinaviy o‘qitish algoritmlarining matematik asosida chiziqli algebra fanining o‘rni *Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich*	322
41	“As-infusum” damlamasida erkin aminokislotalari va farmakologik ahamiyati *Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov* *Shavkat Vohidovich Abdullaev* *Dekhkanov Rahmatullo Sultanovich* *Eldorbek Rakhimjon o‘g‘li Khaydarov*	334
42	Amir temur saltanatiga oid manbalarda qoziliklar haqidagi ma’lumotlar *Uljayeva Shoxistaxon Mamajonovna* *Tosheva Go‘zal Sherboboyevna*	339
43	Aqlli shahar sharoitida maishiy chiqindilarni yig‘ish marshrutlarini tarmoqlar va chegaralar usuli asosida optimallashtirish *Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna* *Raximova Gulsanam Nabijon qizi*	345
44	How does the us press present the problem related to the usage of ai in education? *Nuriddinova Dilobar Shukurovna* *Ismatulloyev Asilbek Ulfat o‘g‘li*	353
45	Kinematic structure of the 1m63mf101 lathe: a review and educational analysis *Mukhiddinov Z.N.* *Turonov M.Z.* *Rakhmatillaev J.Kh.*	364
46	Besh koordinatali rdb dastgohni boshqarishda kontur xatoligini kamaytirishning ilmiy asosi	373

ISSN 3030-3907

	A.O. Ataullayev *N.N. Jo'rayev* *I.P. Egamberdiyev* *Sh.N. Yaxshiyev*	
47	Development of scientific foundations for predictive control of the forming accuracy of multi-axis cnc machine tools under technological loads *A.O. Ataullayev* *N.N. Jo'rayev* *I.P. Egamberdiyev* *Sh.N. Yaxshiyev*	381
48	Halqali yigiruv mashinalarida qo'llaniladigan riflyali silindrlarning tahlili *Dadaxanov Nurilla Karimovich* *Azayimov Mirjamol Mirzakalon o'g'li*	393
49	Jizzax viloyati tojik xalqining etnik shakllanish tarixi *Babayev Shoxrux Esanbayevich*	400
50	Serpentinit jinsini kislotali parchalab magniyli tuzlar olishning tadqiqot usullari *Bekchanov Bekzod Baxtiyarovich* *Juginisov Berdax Bayrambay uli* *Djandullayeva Munavvar Saparbayevna* *Erkayev Aktam Ulashevich* *Atxamova Zebo Muzaffarovna*	406
51	Raqamli texnologiyalari asosida xodimlarni identifikatsiyalash va monitoring qilishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish *Abdullayev Shaxboz* *Rahmatjonova Marjona*	414
52	Vertikal frezalash stanoklarida servo yuritmalarni takomillashtirish orqali energiya samaradorligi va aniqlikni oshirish *Mirzayev Najmiddin Normatovich* *Muxiddinov Bunyod Baxtiyorjon o'g'li*	421
53	Formation of disease names in latin *Normurodova Sohiba* *Shernazarov Nurbek Shuxrat o'g'li* *Rahmatullayeva Shaxnoza Sirojitdin qizi*	432
54	Current state and development trends of integrated utilization of technogenic wastes in the mining and metallurgical industry *Samadov A. U* *Khujakulov N. B*	437
55	Lotin tili terminologiyasining zamonaviy fanlar tizimidagi o'rni va ahamiyati *Davurova Soxiba Usanboyeva*	446

ISSN 3030-3907

ISSIQLIKKA CHIDAMLI QATLAMLI VARIATROP TEMIRBETON BUYUMLARNING AFZALLIKLARI

Yunusaliev Elmurad Maxammadyakubovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti t.f.d., DSc, dotsent.
Otaqulov Baxromjon Adxamovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada issiqlikka chidamli qatlamli variatrop temirbeton buyumlarning konstruktiv, termik va ekspluatatsion afzalliklari tahlil qilingan. Beton va temirbeton konstruksiyalarining past issiqlik o‘tkazuvchanligi ularning yong‘inga yuqori darajada bardoshli bo‘lishini ta’minlaydi. Maqolada betonning mineral tarkibi, mikrostrukturasi hamda yuqori harorat ta’siridagi xolati o‘rganilgan. Shuningdek, variatrop (qatlamli) temirbeton tushunchasi va uning afzalliklari, yong‘inga chidamlilikni baholash usullari va qatlamlar bo‘yicha xossalarni optimallashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari konstruksiyalarning xavfsizligini oshirish va ularning xizmat muddatini uzaytirish imkonini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: temirbeton, variatrop struktura, issiqlik o‘tkazuvchanlik, termik bardoshlik, mikrostruktura, yong‘inga chidamlilik.

Аннотация. В данной статье проанализированы конструктивные, термические и эксплуатационные преимущества жаростойких слоистых вариатропных железобетонных изделий. Низкая теплопроводность бетонных и железобетонных конструкций обеспечивает их высокую огнестойкость. В статье исследованы минеральный состав бетона, его микроструктура, а также поведение при воздействии высоких температур. Кроме того, рассмотрены понятие вариатропного (слоистого) железобетона и его преимущества, методы оценки огнестойкости и вопросы оптимизации свойств по слоям. Результаты исследований показывают возможность повышения безопасности конструкций и увеличения срока их службы.

Ключевые слова: железобетон, вариатропная структура, теплопроводность, термическая стойкость, микроструктура, огнестойкость.

Abstract. This article analyzes the structural, thermal, and operational advantages of heat-resistant layered variatropic reinforced concrete products. The low thermal conductivity of concrete and reinforced concrete structures ensures their high fire resistance. The study examines the mineral composition of concrete, its microstructure, and its behavior under high-temperature exposure. In addition, the concept of variatropic (layered) reinforced concrete and its advantages, methods for evaluating fire resistance, and issues of optimizing properties across layers are

ISSN 3030-3907

discussed. The research results demonstrate the potential to improve structural safety and extend service life.

Keywords: reinforced concrete, variatropic structure, thermal conductivity, thermal resistance, microstructure, fire resistance.

KIRISH.

Zamonaviy qurilishda binolarning xavfsizligi, uzoq muddat xizmat qilish qobiliyati hamda energiya samaradorligini ta’minlash eng muhim talablardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, seysmik va iqlimiy yuklamalar bilan bir qatorda yuqori harorat va yong‘in sharoitida konstruksiyalarning barqarorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, temirbeton konstruksiyalari o‘zining kompleks fizik-mexanik va issiqlik-fizik xossalari tufayli keng qo‘llaniladi. Ularning asosiy afzalliklaridan biri — past issiqlik o‘tkazuvchanlikka ega ekanligi bo‘lib, bu xususiyat ularni yong‘inga nisbatan nisbatan xavfsiz konstruksion material sifatida ajratib turadi. Temirbeton elementlar tashqi yuqori harorat ta’sirida issiqlikni sekin o‘tkazadi, natijada ichki armatura va konstruktiv qatlam ma’lum vaqt davomida himoyalangan holatda qoladi.

Betonning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti (λ) uning ichki tuzilishi, g‘ovakligi, namligi hamda mineral tarkibiga bevosita bog‘liq bo‘lib, odatda 0.6–1.8 Vt/m·K oralig‘ida o‘zgaradi. Ushbu ko‘rsatkich betonning issiqlikni uzatish qobiliyatini ifodalaydi va uning qanchalik tez yoki sekin issiqlikni o‘tkazishini belgilaydi. Fure qonuniga muvofiq issiqlik oqimi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$q=-\lambda\nabla Tq$$

bu yerda q — issiqlik oqimi zichligi, λ — issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti, ∇T — harorat gradientidir. Ushbu formulaga ko‘ra, λ qiymatining kichik bo‘lishi issiqlik oqimining sekinlashishiga olib keladi, bu esa konstruksiyaning tashqi yuqori harorat ta’siridan ichki qismlarini himoya qilish imkonini beradi. Natijada, temirbeton elementlar ichki muhitini nisbatan barqaror saqlab qoladi.

Betonning past issiqlik o‘tkazuvchanligi uning mineral tarkibi va mikrostrukturasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Beton tarkibidagi kalsiy silikatlar (C-S-H gel), kalsiy gidroksid va boshqa mineral fazalar materialning issiqlik va mexanik xossalarini belgilovchi asosiy komponentlar hisoblanadi. Ushbu komponentlar betonning termik barqarorligini oshirib, yuqori harorat ta’sirida strukturaviy yaxlitlikni ma’lum darajada saqlab qolishga yordam beradi. Bundan tashqari, betonning g‘ovakli tuzilishi ichida mavjud bo‘lgan havo bo‘shliqlari issiqlikni yomon o‘tkazuvchi muhit sifatida xizmat qiladi va umumiy issiqlik o‘tkazuvchanlikni kamaytiradi.

ISSN 3030-3907

G‘ovak strukturaning mavjudligi betonning issiqlik izolyatsion xususiyatlarini yaxshilash bilan birga, uning zichligi va issiqlik sig‘imini ham o‘zgartiradi. Namlikning mavjudligi ham issiqlik o‘tkazuvchanlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, chunki suv issiqlikni havoga nisbatan yaxshiroq o‘tkazadi. Shu sababli betonning qurilishdagi real ekspluatatsiya sharoitlarida uning issiqlik-fizik xossalari turlicha bo‘lishi mumkin.

Temirbeton konstruksiyalarida beton qatlami armatura uchun himoya qatlami vazifasini bajaradi va yuqori harorat sharoitida “termik ekran” sifatida ishlaydi. Ya’ni, beton tashqi yong‘in yoki issiqlik ta’sirini sekinlashtirib, ichki po‘lat armaturaning kritik haroratga yetib borishini kechiktiradi. Bu esa armaturaning mustahkamlik xususiyatlarini saqlab qolishga va konstruktsiyaning umumiy yuk ko‘tarish qobiliyatini muayyan vaqt davomida barqaror ushlab turishga imkon beradi. Shu sababli beton qatlami qalinligi va uning sifati temirbeton elementlarning yong‘inga chidamliligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, beton va temirbeton konstruksiyalarining issiqlik o‘tkazuvchanlik va termik barqarorlik xossalari ularning mikrostrukturasi, tarkibi hamda fizik holati bilan belgilanadi. Ushbu xossalarni chuqur o‘rganish va optimallashtirish orqali qurilish inshootlarining yong‘inga chidamliligini oshirish, xizmat muddatini uzaytirish hamda xavfsizlik darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish mumkin.

Betonning mikrostrukturasi sement gidratatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan C-S-H gel, portlandit va boshqa turli kristall hamda amorf fazalardan tashkil topgan bo‘lib, bu murakkab struktura bir tomondan issiqlikni sekin o‘tkazish, ya’ni betonning nisbatan past issiqlik o‘tkazuvchanlik qobiliyatini ta’minlaydi, ikkinchi tomondan mexanik barqarorlikni, xususan bosim va egilish kuchlanishlariga qarshilikni yuzaga keltiradi hamda yuqori haroratda ma’lum darajada o‘z xossalarini saqlab qolish imkonini beradi. Biroq harorat ortishi bilan beton mikrostrukturasida bir qator noxush jarayonlar yuz beradi: mikrojarayonlarning buzilishi kuzatiladi, gidratatsiya mahsulotlaridagi kimyoviy bog‘langan va erkin suvning bug‘lanishi natijasida material hajmi qisqaradi va ichki yorilishlar paydo bo‘ladi. Yuqori harorat ta’sirida betonda namlikning bug‘lanishi, mikrojarayonlar orasida va ularning chegaralarida yorilishlarning rivojlanishi, sement bog‘lovchi moddalarining, ayniqsa portlanditning parchalanishi va armaturaning mustahkamligini yo‘qotishi kabi o‘zgarishlar ketma-ket sodir bo‘ladi, natijada butun temirbeton konstruksiyaning yuk ko‘tarish qobiliyati sezilarli darajada pasayib ketadi. Ushbu mikrostrukturaviy o‘zgarishlar variatrop temirbetonda qatlamli strukturaning yong‘inga chidamlilikni oshirishdagi roli bilan bevosita

ISSN 3030-3907

bog‘liqdir – tashqi himoya qatlami aynan shunday yuqori haroratli mikrobuzilishlarni sekinlashtirish va ichki yuk ko‘taruvchi qatlamga tarqalishining oldini olish uchun mo‘ljallangan.

Variatrop temirbeton qatlamlari turli fizik-mexanik va issiqlik-fizik xossalarga ega bo‘lgan kompozitsion konstruktiv materialdir. Ushbu materialda har bir qatlamning funksional vazifasi alohida optimallashtirilgan bo‘lib, tashqi qatlam asosan issiqlikdan himoya qilish va yong‘inga chidamlilikni ta’minlash vazifasini bajaradi hamda yuqori haroratlar va ochiq olov ta’siriga bardosh berish uchun maxsus tarkibli beton yoki issiqlik izolyatsion qo‘shimchalar bilan boyitilgan bo‘lishi mumkin, ichki qatlam esa konstruksiyaning mexanik mustahkamligi, yuk ko‘tarish qobiliyati va deformatsiyaga qarshiligini ta’minlaydi hamda an’anaviy yuqori mustahkamlikdagi temirbetonga asoslangan holda asosiy yuklarni qabul qiladi. Ushbu qatlamli yondashuv konstruksiyaning umumiy ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi, chunki materialning har bir funksional talabi, masalan issiqlik izolyatsiyasi, yong‘inga chidamlilik va mustahkamlik, alohida qatlamda eng samarali tarzda qondiriladi.

Temirbeton plitalarning yong‘inga chidamliligi maxsus standart sinovlar asosida baholanadi. Ushbu sinovlar davomida harorat rejimi, ya’ni sinov pechida standart “harorat–vaqt” egri chizig‘i bo‘yicha temperatura o‘zgarishining simulyatsiyasi, yuk ta’siri, ya’ni konstruksiyaga ekspluatatsion va chegaraviy yuklar ta’sirida sinov o‘tkazilishi, deformatsiya, ya’ni yuqori harorat ta’sirida plitaning vertikal va gorizontal siljishlari hamda eguvchanlik o‘zgarishlarining kuzatilishi, shuningdek mustahkamlikning pasayishi, ya’ni yuqori harorat ta’sirida beton va armatura mustahkamligining vaqtga bog‘liq holda kamayishi kabi ko‘rsatkichlar majmuasi o‘rganiladi hamda shu asosda konstruksiyaning yong‘inga chidamlilik chegarasi aniqlanadi.

Qatlamli struktura variatrop temirbetonda bir qator muhim muhandislik afzalliklarini yaratadi. Jumladan, issiqlik oqimini boshqarish orqali qatlamlar orasidagi issiqlik qarshiliklarning taqsimlanishi natijasida tashqi issiqlik oqimi ichki qatlamga yetib borguncha pasaytiriladi, harorat gradientini kamaytirish hisobiga qatlamlar chegarasida issiqlik o‘tkazuvchanlikning bosqichli o‘zgarishi keskin harorat farqlarini yumshatadi va bu termik kuchlanishlarni kamaytiradi, shuningdek konstruksiyaning umumiy barqarorligini oshirish orqali yong‘in vaqtida tashqi qatlam himoya funksiyasini bajargan holda ichki yuk ko‘taruvchi qatlamning ishchi haroratini me’yor doirasida ushlab turadi, bu esa butun konstruksiyaning yemirilish vaqtini uzaytiradi.

ISSN 3030-3907

1-Jadval

Temirbeton va qo‘shimchali materiallarning termik xossalari

Material turi	Issiqlik o‘tkazuvchanlik λ (Vt/m·K)	Haroratga chidamlilik (°C)	Xususiyatlari
Oddiy beton	0.8 – 1.8	300–600	Past o‘tkazuvchanlik, barqaror
Temirbeton	1.0 – 2.0	400–700	Armatura bilan mustahkamlangan
Variatrop beton	0.6 – 1.5	500–800	Qatlamli, optimallashgan
Geopolimer beton	0.5 – 1.2	800–1000	Yuqori termik bardoshlik
Vermikulitli beton	0.2 – 0.5	300–400	Yaxshi izolyatsiya va yong‘inga chidamli

Issiqlikka chidamli qatlamli variatrop temirbeton buyumlar zamonaviy qurilishda yuqori samaradorlikka ega konstruksion yechim hisoblanadi. Betonning past issiqlik o‘tkazuvchanligi va mineral tarkibi uni yong‘inga chidamli qiladi. Variatrop struktura orqali esa material xossalarini qatlamlar bo‘yicha optimallashtirish mumkin.

Yuqori harorat ta’sirida konstruksiyaning barqarorligini saqlash uchun material tarkibini to‘g‘ri tanlash, mineral va qo‘shimchalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida innovatsion kompozitsiyalar va nanotexnologiyalar asosida yangi avlod temirbeton buyumlarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Neville A.M. *Properties of Concrete*. Pearson, 2011.
2. Mehta P.K., Monteiro P.J.M. *Concrete: Microstructure, Properties, and Materials*. McGraw-Hill, 2014.
3. Bazhenov Y.M. *Construction Materials Science*. Moscow, 2006.
4. Kodur V. Fire resistance of concrete structures. *Engineering Structures*, 2014.
5. Sikora P. et al. Thermal properties of cement composites. *Construction and Building Materials*, 2019.
6. Davidovits J. *Geopolymer Chemistry and Applications*. 2015.

ISSN 3030-3907

ISSIQLIKKA CHIDAMLI VARIATROP BETON TUZILISHINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Yunusaliev Elmurad Maxammadyakubovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, t.f.d., DSc, dotsent.
Otaqulov Baxromjon Adxamovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada issiqlikka chidamli beton tuzilishini shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari ko‘rib chiqilgan. Ko‘p komponentli beton tizimida tarkibiy qismlarni maqsadli tanlash, ularning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish va yangi funksional materiallarni joriy etish orqali variatrop yong‘inga chidamli temir-beton buyumlarni olish imkoniyatlari asoslangan. Beton tuzilishini nanodan makrodarjagacha «pastdan yuqoriga» tamoyili asosida konstruksiyalash yondashuvi taklif etilgan. Tadqiqot natijalari betonning termik barqarorligi, mustahkamligi va ekspluatatsion samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. issiqlikka chidamli beton, variatrop tizim, nanotuzilish, mezostruktura, kompozitsion material, termik barqarorlik, temir-beton.

Аннотация В статье рассмотрены научно-методологические основы формирования структуры жаростойкого бетона. Обоснованы возможности получения вариатропных огнестойких железобетонных изделий на основе целенаправленного подбора компонентов многокомпонентной бетонной системы, анализа их взаимодействия и внедрения новых функциональных материалов. Предложен подход к конструированию структуры бетона по принципу «снизу вверх» — от нано- до макроуровня. Результаты исследования направлены на повышение термической устойчивости, прочности и эксплуатационной эффективности бетона.

Ключевые слова жаростойкий бетон, вариатропная система, наноструктура, мезоструктура, композиционный материал, термическая устойчивость, железобетон.

Abstract. The article examines the scientific and methodological foundations for forming the structure of heat-resistant concrete. The possibilities of producing variatropic fire-resistant reinforced concrete elements are substantiated through the targeted selection of components in a multi-component concrete system, analysis of their interactions, and the introduction of new functional materials. An approach to designing the concrete structure based on the “bottom-up” principle, from nano- to macro-scale, is proposed. The research results are aimed at improving the thermal stability, strength, and operational efficiency of concrete.

Keywords heat-resistant concrete, variatropic system, nanostructure, mesostructure, composite material, thermal stability, reinforced concrete.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy qurilish amaliyotida yuqori harorat ta’sirida ishlaydigan konstruksiyalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Energetika, metallurgiya va sanoat ob’ektlarida qo‘llaniladigan materiallar yuqori haroratda o‘z xossalarini saqlab qolishi lozim. An’anaviy betonlar esa yuqori harorat ta’sirida mustahkamligini yo‘qotadi va strukturasida degradatsiya jarayonlari kuzatiladi. Shu munosabat bilan, issiqlikka chidamli betonlarni yaratishda uning tuzilishini boshqarishning yangi ilmiy yondashuvlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, betonni ko‘p darajali (nano–mikro–mezo–makro) tizim sifatida qarash va uni variatrop yondashuv asosida konstruksiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi.

ASOSIY QISM.

Issiqlikka chidamli beton ko‘p komponentli va chiziqli bo‘lmagan murakkab fizik-kimyoviy tizim hisoblanib, unda har bir komponentning (sement, to‘ldiruvchilar, mineral va kimyoviy qo‘shimchalar) o‘zaro ta’siri natijasida materialning yakuniy fizik-mexanik va termik xossalari shakllanadi. Bunday tizimlarda komponentlar ta’siri additiv xarakterga ega bo‘lmay, balki sinergetik ta’sir orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni ayrim komponentlar birgalikda qo‘llanilganda yangi sifat ko‘rsatkichlari yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan, beton tarkibini shakllantirishda an’anaviy empirik yondashuvlar o‘rniga funksional va tizimli yondashuvdan foydalanish talab etiladi. Funksional yondashuvda har bir komponentning beton strukturasidagi vazifasi (mustahkamlikni ta’minlash, zichlikni oshirish, termik barqarorlikni yaxshilash va h.k.) aniq belgilanadi. Tizimli yondashuv esa ushbu komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini va ko‘p darajali strukturadagi o‘rnini hisobga olishni nazarda tutadi. Beton tuzilishini shakllantirish quyidagi asosiy ilmiy tamoyillarga tayanadi:

Tarkibiy qismlarning optimal nisbatini tanlash. Bu tamoyil betondagi fazalar nisbatini boshqarish orqali uning zichligi, mustahkamligi va issiqlikka chidamliligini ta’minlashga qaratilgan. Suv-sement nisbati, to‘ldiruvchilar ulushi va qo‘shimchalar miqdori o‘rtasidagi muvozanat hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Komponentlar o‘zaro ta’sirini hisobga olish. Sement gidratatsiyasi, mineral qo‘shimchalarning pussolan reaksiyalari va kimyoviy qo‘shimchalar ta’siri bir vaqtning o‘zida kechadi. Ularning o‘zaro ta’siri sement toshining strukturasi, kovaklik darajasi va fazaviy tarkibini belgilaydi.

Texnologik jarayonlarni optimallashtirish. Aralashtirish intensivligi, qoliplash usuli va parvarishlash rejimi beton strukturasining bir xilligi va barqarorligini ta’minlaydi. Masalan, nomuvofiq aralashtirish disperslikni pasaytiradi va lokal nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

ISSN 3030-3907

Ko‘p darajali strukturani boshqarish. Betonni nanodan makrodarjagacha bo‘lgan ierarxik tizim sifatida qarash, har bir darajadagi jarayonlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa material xossalarini kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Ko‘p komponentli beton tizimlarida kechadigan jarayonlar ehtimollik-deterministik xususiyatga ega bo‘lib, ular turli tashqi va ichki omillar (harorat, namlik, komponentlar sifatining o‘zgarishi, texnologik rejimlar) ta’sirida shakllanadi. Shu sababli, beton strukturasini samarali boshqarish uchun statistik modellashtirish, eksperimental rejalashtirish (DOE), regression tahlil va ko‘p omilli optimallashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda beton tuzilishini shakllantirishda sinergetika va nonlineyr dinamika tamoyillarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bu usullar orqali sistema holatlarining barqarorligi, strukturaning o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlari va fazaviy o‘tishlarini chuqur tahlil qilish mumkin.

Shunday qilib, beton tarkibini shakllantirish va uning tuzilishini boshqarishda kompleks, ko‘p darajali va ilmiy asoslangan yondashuvdan foydalanish issiqlikka chidamli, mustahkam va ishonchli beton materiallarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi.

1-jadval

Beton tuzilish darajalari

Daraja	Kirish parametrlari	Chiqish parametrlari
Makro (≥10^{-1} m)	Aralashtirish, qoliplash, parvarishlash	Tayyor mahsulot xossalari, energiya sarfi
Mezo (10^{-4}–10^{-1} m)	To‘ldiruvchi shakli, donadorligi, zichligi	Zichlik, mustahkamlik, issiqlik o‘tkazuvchanlik
Mikro (10^{-7}–10^{-4} m)	Sement mayinligi, fazalar nisbati	Sement toshi strukturasi
Nano (10^{-9}–10^{-7} m)	Nanoqo‘shimchalar tuzilishi	Gidratatsiya mahsulotlari barqarorligi

ASOSIY HISOBLASh FORMULALARI

Zichlik:

$$\rho = \frac{m}{V}$$

Siqilishga mustahkamlik:

$$R = \frac{P}{A}$$

ISSN 3030-3907

Issiqlik o‘tkazuvchanlik:

$$\lambda = \frac{q \cdot \delta}{\Delta T}$$

Termik barqarorlik koeffitsienti:

$$K_t = \frac{R_t}{R_0}$$

Kompozitsion ta’sir koeffitsienti:

$$K_c = \sum w_i k_i$$

Issiqlikka chidamli beton strukturasi ierarxik tizim sifatida quyidagicha tasvirlanadi:

MAKRO → ekspluatatsion xossalar

↑

MEZO → to‘ldiruvchilar strukturasi

↑

MIKRO → sement toshi

↑

NANO → kristall va nanotuzilish

1-Rasm – Beton tuzilishini konstruksiyalash tizimi

Ushbu tizimda har bir quyi daraja yuqori daraja xossalarini belgilaydi va strukturani «pastdan yuqoriga» boshqarish imkonini beradi.

MUHOKAMA.

Variatrop yondashuv betonni geterogen, ko‘p funksiyali tizim sifatida qarab, uning tarkibiy qismlari orasida funksiyalarni maqsadli va differensial taqsimlashga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, betonning har bir komponenti (bog‘lovchi, to‘ldiruvchi, mineral va kimyoviy qo‘shimchalar) ma’lum bir funksional vazifani bajaradi va umumiy struktura samaradorligini ta’minlashda o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Bu esa ichki kuchlanishlarning lokal konsentratsiyasini kamaytirish, mikrodarzlar paydo bo‘lishining oldini olish va materialning yorilishga chidamliligini oshirish imkonini beradi.

Yuqori harorat ta’sirida beton strukturasida termik kengayishning nomuvofiqligi, fazalar orasidagi adgeziyaning susayishi va degidratatsiya jarayonlari yuz beradi. Variatrop yondashuv ushbu salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun strukturani oldindan optimallashtirishni nazarda tutadi. Xususan,

ISSN 3030-3907

komponentlarning termik fizik xossalarini moslashtirish orqali ichki kuchlanishlar gradienti pasaytiriladi va termik barqarorlik oshiriladi.

Nanodarajada qo‘shimchalar (masalan, shungit, kremniy dioksidi nanozarralari va boshqalar) qo‘llanilishi sement gidratatsiyasining kinetikasi va mahsulotlarining morfologiyasini boshqarish imkonini beradi. Bu esa C-S-H gelining zichligi va bir xilligini oshirib, kapillyar kovaklar hajmini kamaytiradi va materialning umumiy mustahkamligini yaxshilaydi. Shu bilan birga, nanozarrachalar nukleatsiya markazlari sifatida xizmat qilib, strukturaning erta bosqichda shakllanishini tezlashtiradi.

Mikrodarajada sement toshining fazaviy tarkibi va uning zichligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qattiq va suyuq fazalar nisbatini optimallashtirish, shuningdek, sirt faol qo‘shimchalardan foydalanish orqali mustahkam va barqaror mikrostruktura shakllantiriladi. Bu esa betonning mexanik mustahkamligi va uzoq muddatli chidamliligini ta’minlaydi.

Mezodarajada to‘ldiruvchilarning granulometrik tarkibi, shakli va taqsimlanishi betonning zichligi, deformatsiyalanish xususiyatlari va yorilishga chidamliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Optimal donadorlik tarkibi hosil qilinishi orqali bo‘shliqlar kamaytiriladi va struktura bir xilligi ta’minlanadi. Bu esa tashqi yuklamalar va harorat ta’sirida materialning barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Makrodarajada esa texnologik omillar — aralashtirish rejimi, qoliplash usuli va parvarishlash sharoitlari — betonning yakuniy xossalarini belgilaydi. Ushbu bosqichda barcha quyi darajalarda shakllangan struktura elementlari integratsiyalashib, materialning umumiy ekspluatatsion xususiyatlarini namoyon qiladi.

Shunday qilib, betonni nanodan makrodarjagacha bo‘lgan ko‘p darajali tizim sifatida kompleks boshqarish uning fizik-mexanik va termik xususiyatlarini maqsadli ravishda shakllantirish imkonini beradi. Variatrop yondashuv esa ushbu jarayonda asosiy metodologik vosita bo‘lib, yuqori samarador, ishonchli va issiqlikka chidamli beton materiallarini yaratishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

XULOSA.

Issiqlikka chidamli betonni yaratishda uning tuzilishini ko‘p darajali (nano–mikro–mezo–makro) tizim sifatida maqsadli boshqarish materialning yakuniy xossalarini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi. Nanodarajada gidratatsiya jarayonlari va kristall tuzilishni tartibga solish, mikrodarajada sement toshining zich va barqaror strukturasini hosil qilish, mezodarajada to‘ldiruvchilarning optimal taqsimlanishi hamda makrodarajada texnologik

ISSN 3030-3907

parametrlarni muvofiqlashtirish orqali betonning fizik-mexanik va termik ko‘rsatkichlarini kompleks ravishda yaxshilash imkoni yaratildi.

Variatrop yondashuv asosida komponentlarning funksional rolini differensial taqsimlash beton strukturasida ichki kuchlanishlarni kamaytirish, yorilishga chidamlilikni oshirish va yuqori harorat ta’sirida barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, taklif etilgan metodologik yondashuv ko‘p komponentli tizimlarda parametrlarni optimallashtirish imkonini berib, resurs tejamkor va yuqori samarador beton kompozitsiyalarini yaratishga zamin yaratadi.

Olingan natijalar sanoat va energetika inshootlarida qo‘llaniladigan yong‘inga va yuqori haroratga chidamli temir-beton konstruksiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda qurilish materiallari sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Neville A.M. *Properties of Concrete*. – Pearson, 2011.
2. Mehta P.K., Monteiro P.J.M. *Concrete: Microstructure, Properties*. – McGraw-Hill, 2014.
3. Mindess S. *Concrete*. – Prentice Hall, 2003.
4. Taylor H.F.W. *Cement Chemistry*. – Thomas Telford, 1997.
5. Scrivener K. *Microstructural Analysis of Cementitious Materials*. – CRC Press, 2016.
6. Li Z. *Advanced Concrete Technology*. – Wiley, 2011.
7. QMQ 2.03.01-96. Beton va temir-beton konstruksiyalar.
8. Bentz D.P. Cement hydration research // Cement and Concrete Research, 2010.
9. Rahmonov Q.Q. Qurilish materiallari. – Toshkent, 2020.
10. Sanjarov U.R. Qurilish materiallari texnologiyasi. – Toshkent, 2019.

ISSN 3030-3907

SHUNGIT DISPERSLIGINING BETONNING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARIGA VA ISSIQLIKKA CHIDAMLILIGIGA TA'SIRI

Yunusaliev Elmurad Maxammadyakubovich
Farg'ona davlat texnika universiteti, t.f.d., DSc, dotsent,
Otaqulov Baxromjon Adxamovich
Farg'ona davlat texnika universiteti Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada shungitning dispersligi betonning fizik-mexanik xususiyatlari va issiqlikka chidamliligiga ta'siri kompleks ravishda tahlil qilingan. Yuqori harorat ta'sirida shungit zarralarida yuz beradigan fizik-kimyoviy jarayonlar, jumladan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va ko'pchish mexanizmi o'rganildi. Tadqiqot natijalari shungit zarralari o'lchami betondagi ichki kuchlanishlarni kamaytirish va mustahkamlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar. shungit, beton, disperslik, issiqlikka chidamlilik, ko'pchish, zichlik, mustahkamlik, yuqori harorat, termobarqarorlik.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализировано влияние дисперсности шунгита на физико-механические свойства бетона и его термостойкость. Исследованы физико-химические процессы, происходящие в частицах шунгита при воздействии высоких температур, в том числе окислительно-восстановительные реакции и механизм вспучивания. Результаты исследований показали, что размер частиц шунгита играет решающую роль в снижении внутренних напряжений в бетоне и повышении его прочности.

Ключевые слова: шунгит, бетон, дисперсность, термостойкость, вспучивание, плотность, прочность, высокая температура, термостабильность.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the effect of shungite dispersity on the physical and mechanical properties of concrete and its heat resistance. The physicochemical processes occurring in shungite particles under high-temperature exposure, including oxidation-reduction reactions and the swelling mechanism, are investigated. The research results show that the particle size of shungite plays a crucial role in reducing internal stresses in concrete and increasing its strength.

Keywords: shungite, concrete, dispersity, heat resistance, swelling, density, strength, high temperature, thermal stability.

KIRISH.

Hozirgi zamonda qurilish industriyasida yuqori harorat sharoitida ishlaydigan materiallarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ayniqsa, energetika (IESlar), metallurgiya, sement sanoati va kimyo sanoatida qo'llaniladigan

ISSN 3030-3907

konstruksiyalar doimiy ravishda 600–1200°C va undan yuqori harorat ta’sirida ishlaydi. Bunday sharoitlarda oddiy betonlar o‘z mustahkamligini yo‘qotadi, yoriqlar hosil bo‘ladi va ekspluatatsion xususiyatlari keskin pasayadi.

Issiqlik ta’sirida betonda bir qator murakkab fizik-kimyoviy va mexanik jarayonlar sodir bo‘ladi. Avvalo, yuqori harorat ta’sirida sement toshining degidratatsiyasi kuzatiladi, ya’ni gidratatsiya mahsulotlari tarkibidagi kimyoviy bog‘langan suv ajralib chiqadi. Bu jarayon sement toshining strukturasini bo‘shashtirib, uning mustahkamligini pasaytiradi. Shu bilan birga, harorat gradienti ta’sirida beton ichida ichki kuchlanishlar hosil bo‘ladi. Ushbu kuchlanishlar turli fazalarning (sement toshi, to‘ldiruvchilar) termik kengayish koeffitsientlari turlicha bo‘lishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, yuqori harorat ta’sirida betonning mikrostrukturasida o‘zgarishlar yuz beradi: kapillyar-kovak tizimi kengayadi, bog‘lanishlar zaiflashadi va materialning yaxlitligi buziladi. Natijada, termik kengayish farqlari hisobiga betonda mikro va makroyoriqlar paydo bo‘ladi, bu esa uning ekspluatatsion ishonchliligini keskin pasaytiradi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida beton tarkibiga turli xil mineral va texnogen qo‘shimchalar kiritish keng qo‘llaniladi. Ana shunday samarali qo‘shimchalardan biri shungit hisoblanadi. Shungit tabiiy uglerodli mineral bo‘lib, uning o‘ziga xos nanostrukturasi va yuqori harorat ta’sirida strukturasini o‘zgartirish qobiliyati uni beton texnologiyasida qimmatli komponentga aylantiradi.

Shungitdan foydalanish betonning termofizik va mexanik xususiyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Jumladan, u yuqori termobarqarorlikka ega bo‘lib, betonning yuqori haroratlarda strukturasini saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, shungitning past issiqlik o‘tkazuvchanligi material ichida haroratning bir tekis taqsimlanishiga xizmat qiladi va lokal qizishlarni kamaytiradi. Yuqori harorat ta’sirida shungit zarralaridan gaz ajralib chiqishi relaksatsiya effektini yuzaga keltirib, betondagi ichki kuchlanishlarni pasaytiradi. Bundan tashqari, uning mayda dispersli zarralari beton strukturasini zichlashtirib, kovaklikni kamaytiradi va umumiy mustahkamlikni oshiradi.

Shu tariqa, shungit dispersligini ilmiy asosda optimallashtirish betonning issiqlikka chidamliligini, mustahkamligini va uzoq muddatli ishonchliligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Shungitning asosiy tarkibi uglerod (30–98%) bo‘lib, u amorf va qisman kristall strukturaga ega. Yuqori harorat ta’sirida shungit quyidagi reaksiyalarga kirishadi:

$$C+O2 \rightarrow CO2+Q$$

ISSN 3030-3907

$$C+H_2O \rightarrow CO+H_2$$

Bu reaksiyalar natijasida gazlar ajralib chiqadi va beton strukturasida mikro bo‘shliqlar hosil qiladi. Bu esa ichki kuchlanishlarni kamaytiradi.

Betondagi umumiy termik kuchlanish quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\sigma=E\cdot\alpha\cdot\Delta T$$

bu yerda:

- σ — termik kuchlanish
- E— elastiklik moduli
- α — termik kengayish koeffitsienti
- ΔT — harorat farqi

Shungit qo‘shilishi natijasida α va E kamayadi, bu esa kuchlanishlarni pasaytiradi. Shungitning yuqori harorat ta’siridagi xulq-atvori uning ko‘pchish jarayoni bilan tavsiflanadi va bu jarayon ikki bosqichda kechishi bilan izohlanadi. Birinchi bosqich 400–500°C harorat oralig‘ida sodir bo‘lib, bu davrda shungit zarralarida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari faollashadi. Ushbu reaksiyalar natijasida gaz va bug‘ ajralib chiqadi, bu esa material ichidagi ichki bosimning ma’lum darajada pasayishiga olib keladi. Natijada beton strukturasidagi termik kuchlanishlar qisman relaksatsiyalanadi va materialning yorilishga moyilligi kamayadi.


Ikkinchi bosqich 500°C dan 1200°C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida kuzatiladi. Bu bosqichda shungit zarralarining intensiv ko‘pchishi sodir bo‘ladi hamda ularning ichki strukturasida chuqur o‘zgarishlar yuz beradi. Mazkur o‘zgarishlar shungitning termik barqarorligini oshirib, uning yuqori harorat sharoitida beton tarkibida samarali ishlashini ta’minlaydi. Shu tariqa, shungitning ko‘pchish xususiyati betondagi ichki kuchlanishlarni kamaytirish va uning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shungitning ko‘pchish darajasini baholash uchun ko‘pchish koeffitsienti qo‘llaniladi. U qizdirilgandan keyingi hajmning boshlang‘ich hajmga nisbati orqali aniqlanadi, ya’ni $K=V_t/V_0$, bu yerda V_t — yuqori harorat ta’siridan keyingi hajm, V_0 esa boshlang‘ich hajmni ifodalaydi. Ushbu koeffitsient shungitning termik ta’sirga reaksiyasini va uning beton strukturasiga ko‘rsatadigan ta’sir darajasini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shungit zarralarining dispersligi, ya’ni o‘lchami betonning fizik-mexanik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zarralar o‘lchamining kamayishi ularning beton matritsasida bir tekis taqsimlanishini ta’minlaydi, bu esa strukturaning zichlashishiga va ichki nuqsonlarning kamayishiga olib keladi. Natijada betonning mustahkamligi va issiqlikka chidamliligi oshadi. Aksincha, yirik zarrali shungit betonda noyobir

ISSN 3030-3907


taqsimlanib, lokal kuchlanishlar hosil qilishi va mikroyoriqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan, shungit dispersligini optimallashtirish issiqlikka chidamli betonlar texnologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi



1-Rasm.1200°C haroratda qizdirilgan shungitning to‘kma zichligi zarralar o‘lchamiga bog‘liqligi grafigi.

Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, shungit zarralari o‘lchamining kamayishi bilan uning to‘kma zichligi ortib boradi. Bu holat mayda dispersli zarralarning bir-biriga nisbatan zich joylashishi va bo‘shliqlar hajmining qisqarishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, zarralar o‘lchami kichraygan sari shungitning ko‘pchish koeffitsienti kamayishi kuzatiladi. Bu esa mayda zarralarda termik ta’sir natijasida hajmiy kengayish nisbatan kamroq namoyon bo‘lishini anglatadi. Natijada, mayda dispersli shungit beton tarkibida barqarorroq struktura shakllantirib, ichki kuchlanishlarni kamaytirishga va materialning umumiy ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907



2-Rasm.1000°C da sinovdan o‘tgan beton mustahkamligining shungit dispersligiga bog‘liqligi.

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari shungit zarralari o‘lchamining betonning mexanik mustahkamligiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Xususan, o‘lchami 5 mm dan katta bo‘lgan yirik shungit zarralaridan foydalanilganda betonning mustahkamlik ko‘rsatkichlari pasayishi kuzatiladi. Bu holat, asosan, yuqori harorat ta’sirida yirik zarralarning intensiv ko‘pchishi natijasida beton ichida qo‘shimcha ichki kuchlanishlar yuzaga kelishi va mikroyoriqlar shakllanishi bilan izohlanadi. Natijada materialning yaxlitligi buzilib, uning yuk ko‘tarish qobiliyati kamayadi.

Aksincha, o‘lchami 0,63 mm dan kichik bo‘lgan mayda dispersli shungit zarralari qo‘llanilganda betonning mustahkamligi sezilarli darajada oshadi. Bu, birinchi navbatda, zarralarning sement matritsasida bir tekis taqsimlanishi, kapillyar-kovak tuzilmani qisman to‘ldirishi va strukturani zichlashtirishi bilan bog‘liq. Shuningdek, mayda zarralar yuqori harorat ta’sirida yuzaga keladigan ichki kuchlanishlarni samarali ravishda kamaytiradi. Natijada betonning fizik-mexanik xususiyatlari yaxshilanib, uning issiqlikka chidamliligi va ekspluatatsion ishonchliligi ortadi.

Eksperimental tadqiqotlar natijasida shungit zarralari o‘lchamining beton xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Xususan, yirik shungit zarralari ($d > 5$ mm) qo‘llanilganda, yuqori harorat ta’sirida ularda kuchli ko‘pchish jarayoni kuzatiladi. Bu holat beton ichida qo‘shimcha ichki kuchlanishlarni yuzaga keltirib,

ISSN 3030-3907

mikroyoriqlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi va natijada materialning mustahkamligi pasayadi.

Aksincha, mayda dispersli shungit zarralari (d < 0,63 mm) beton tarkibida bir tekis taqsimlanadi. Bu esa strukturaning zichlashishiga olib keladi va ichki nuqsonlarni kamaytiradi. Natijada betonning mexanik mustahkamligi ortadi hamda uning umumiy ekspluatatsion xususiyatlari yaxshilanadi.

1-jadval

Shungit dispersligining beton xossalariga ta’siri

Zarra o‘lchami	Zichlik	Mustahkamlik	Issiqlikka chidamlilik	Izoh
> 5 mm	Past	Kamayadi	Past	Yoriqlar paydo bo‘ladi
0.63–5 mm	O‘rtacha	Barqaror	O‘rtacha	Qisman samarali
< 0.63 mm	Yuqori	Oshadi	Yuqori	Eng optimali

Xulosa qilib aytganda, shungit beton tarkibiga kiritilganda uning issiqlikka chidamliligi va fizik-mexanik xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Yuqori harorat ta’sirida shungit zarralarida kechadigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlari natijasida gaz va bug‘ ajralib chiqishi betondagi ichki kuchlanishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa beton strukturasining barqarorligini saqlashga va uning yorilishga moyilligini pasaytirishga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, shungit zarralarining o‘lchami hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, o‘lchami 5 mm dan katta bo‘lgan zarralar yuqori harorat ta’sirida ko‘pchib, betonda qo‘shimcha ichki kuchlanishlar va mikroyoriqlar hosil qilishi mumkin. Aksincha, mayda dispersli (0,63 mm dan kichik) shungit zarralari beton tarkibida bir tekis taqsimlanib, uning zichligini oshiradi va mustahkamligini yaxshilaydi.

Shuningdek, shungit betonning termofizik xususiyatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, issiqlik o‘tkazuvchanligini pasaytiradi va termobarqarorligini oshiradi. Bu esa uni yuqori harorat sharoitida ishlaydigan sanoat va energetika inshootlari uchun samarali material sifatida qo‘llash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mehta P.K., Monteiro P.J.M. Concrete: Microstructure, Properties, and Materials. – New York: McGraw-Hill Education, 2014. – 704 p.
2. Neville A.M. Properties of Concrete. – 5th ed. – London: Pearson Education Limited, 2011. – 846 p.
3. Mindess S., Young J.F., Darwin D. Concrete. – 2nd ed. – Prentice Hall, 2003. – 644 p.

ISSN 3030-3907

4. Khanna S.K., Justo C.E.G., Veeraragavan A. Highway Engineering. – New Delhi: Nem Chand & Bros, 2011. (бетон материаллари хусусиятлари бўйича)
5. Taylor H.F.W. Cement Chemistry. – 2nd ed. – London: Thomas Telford, 1997. – 459 p.
6. Scrivener K.L., Nonat A. Hydration of cementitious materials // Cement and Concrete Research. – 2011. – Vol. 41. – pp. 651–665.
7. Bentur A., Mindess S. Fibre Reinforced Cementitious Composites. – London: CRC Press, 2006.
8. Li Z. Advanced Concrete Technology. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2011. – 528 p.
9. Siddique R., Klaus J. Influence of metakaolin on the properties of mortar and concrete // Applied Clay Science. – 2009. – Vol. 43. – pp. 392–400. *(минерал қўшимчалар таъсирига ўхшаш назарий асос сифатида)*
10. ACI Committee 216. Guide for Determining the Fire Endurance of Concrete Elements. – American Concrete Institute, 2014.
11. ГОСТ 20910-2019. Бетоны жаростойкие. Технические условия.
12. ГОСТ 30244-94. Материалы строительные. Методы испытаний на горючесть.
13. Калашников В.И. Высокопрочные бетоны. – Москва: АСВ, 2008. – 512 с.
14. Баженов Ю.М. Технология бетона. – Москва: Издательство АСВ, 2011. – 528 с.

ISSN 3030-3907

MIKROKONTROLLER YORDAMIDA NASOS QURILMASINING SUV SARFINI ANIQLASH

Xodjimatov Muxammad-Bobur Zaynabidin o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti assistenti
E-mail: xodjimatovmuhammad@gmail.com

Annotatsiya. Sensorlar zamonaviy avtomatik tizimlarda juda muhim rol o‘ynaydi. Kichik, arzon va ishonchli qurilmalar bo‘lgan sensorlar yirik elektron tizimlar bilan oson integratsiyalanadi. Bugungi kunda turli xil sensor turlarini uchratish mumkin. Texnologiya rivojlanishi bilan sensorlar ham o‘zining ishlash samaradorligi va o‘lchamlari jihatidan takomillashib bormoqda. Suv oqimi sensori suyuqliklar sarfini o‘lchash uchun samarali yechim hisoblanadi. Ushbu maqolada nasos qurilmasining elektr parametrlariga mos holda suv sarfini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Kalit so‘zlar: nasos, sensor, Hall effekti, LCD displey, paddle wheel, Arduino, mikrokontroller.

Abstract: Sensors play a very important role in modern automatic systems. A small, inexpensive and reliable device, the sensors are easy to install with larger electronics. Today we can find different types of sensors. As technology advances, sensors also evolve in terms of their performance and size. The water flow sensor is an excellent solution for measuring the flow of liquids. In this article, research was carried out to determine the water flow corresponding to the electrical parameters of the pumping device.

Keywords: pump, sensor, Hall effect, LCD display, paddle wheel, Arduino, microcontroller.

Аннотация. Датчики играют очень важную роль в современных автоматических системах. Датчики, являющиеся небольшими, недорогими и надежными устройствами, легко интегрируются в крупные электронные системы. В настоящее время можно встретить различные типы датчиков. С развитием технологий датчики также совершенствуются с точки зрения их производительности и размеров. Датчик расхода воды является эффективным решением для измерения расхода жидкостей. В данной статье проведены исследования по определению расхода воды в соответствии с электрическими параметрами насосного устройства.

Ключевые слова: насос, датчик, эффект Холла, LCD-дисплей, paddle wheel, Arduino, микроконтроллер.

KIRISH.

Bugungi kunda sanoat va turli sohalarda energiya samaradorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda energiya tejash va optimal ishlashni

ISSN 3030-3907

ta’minlovchi tizimlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Nasos qurilmalari energiya iste’moli va samaradorligida markaziy o‘rin egallaydi, chunki ularning ish rejimi ko‘pincha elektr energiyasining asosiy qismini iste’mol qiladi. Shu sababli, nasos qurilmalarining ishlashida suv sarfi va elektr parametrlarini o‘zaro muvofiqlashtirish ularning samaradorligini oshirish, energiyani tejash va texnik xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish uchun muhimdir[3].

Nasos samaradorligi nafaqat suv sarfi va nasos parametrlariga, balki elektr energiyasi iste’moliga ham bog‘liq. Nasosning elektr energiyasi iste’moli uning mexanik xususiyatlari, suv sarfi, quvvat sarfi va boshqa bir qator omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun nasos qurilmasining elektr parametrlariga mos keluvchi suv sarfini aniqlash jarayoni juda muhim hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali qurilmaning maksimal samaradorligi va energiya tejamkorligi ta’minlanadi[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TAHLIL:

Suv oqimi sensori — yirik sanoat korxonalari, tijorat va turar-joy binolari katta miqdorda suvga ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyojni qondirish uchun markazlashtirilgan suv ta’minoti tizimidan foydalaniladi. Yetkazib berilayotgan va iste’mol qilinayotgan suv miqdorini nazorat qilish uchun suv sarfini o‘lchash zarur. Shu maqsadda suv oqimi sensorlaridan foydalaniladi.



1-rasm. Suv oqimi sensori

Suv oqimi sensorlari suv manbalariga yoki quvurlarga o‘rnatilib, suv oqimi tezligini o‘lchash hamda quvurdan o‘tayotgan suv miqdorini hisoblash uchun xizmat qiladi. Suv sarfi odatda litr yoki kub metr/soat birliklarida o‘lchanadi.

Ishlash prinsipi: Suv oqimi sensori suv o‘tishi mumkin bo‘lgan plastik klapandan iborat. Suv rotori va Hall sensori yordamida suv oqimi aniqlanadi va o‘lchanadi[2].

Suv klapandan o‘tganda rotorni aylantiradi. Bu esa rotor aylanish tezligidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Ushbu o‘zgarish Hall sensori chiqishida

ISSN 3030-3907

impuls signali ko‘rinishida qayd etiladi. Shu tarzda suv oqimi tezligini aniqlash mumkin[2].

Ushbu sensorning asosiy ishlash prinsipi **Hall effekti** ga asoslangan. Bu prinsipga ko‘ra, sensor ichida rotor aylanishi natijasida o‘tkazgichda kuchlanish farqi hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan ushbu induksiyalangan kuchlanish elektr tokiga qarama-qarshi yo‘nalishda yuzaga keladi[2].

Suv oqimi ta’sirida harakatlanuvchi parrak aylanganda, rotorni harakatga keltiradi va natijada kuchlanish hosil bo‘ladi. Ushbu kuchlanish Hall effekti sensori orqali o‘lchanadi va LCD displeyda aks ettiriladi[2].

Suv oqimi sensorlari issiq, sovuq, iliq, toza va hatto iflos suvlar bilan ishlash imkoniyatiga ega. Ular turli diametr va turli oqim diapazonlarida ishlab chiqariladi.

Bunday sensorlarni Arduino kabi mikrokontrollerlar bilan oson ulash mumkin. Tizimni tashkil qilish uchun Arduino mikrokontroller platasi, Hall effekti asosidagi suv oqimi sensori, 16×2 LCD displey hamda breadboard (ulash platasidan) foydalaniladi. Sensor odatda suv manbai kirish qismiga yoki quvur boshlanishiga o‘rnatiladi[1].

Suv oqimi sensorining qo‘llanilishi. Suv oqimi sensorlari suv oqimi tezligini tezlik yoki siljishni o‘lchash orqali aniqlaydi. Ushbu sensorlar nafaqat suv, balki boshqa suyuqliklar oqimini ham o‘lchash imkonini beradi. Suv oqimi sensorlari diametri va o‘lchash usuliga qarab turli turlarga bo‘linadi[4].

Eng arzon va keng tarqalgan sensorlardan biri — **paddle wheel (parrakli) sensor** hisoblanadi. U suvga o‘xshash suyuqliklar bilan ishlashda qo‘llaniladi. Ushbu turdagi sensorlar qovushqoqligi yuqori bo‘lgan suyuqliklarda ham ishlatilishi mumkin.

Magnit oqim o‘lchagichlar elektr o‘tkazuvchan bo‘lgan iflos suv va oqova suvlarni o‘lchashda qo‘llaniladi. **Ultratovushli oqim o‘lchagichlar** esa oqova suvlar va boshqa iflos suyuqliklar uchun ishlatiladi[4].

Oqim sensorlari texnologik jarayonga qarab turli xil bo‘lib, ular diametri, o‘lchash usuli va narxi bilan farqlanadi[4].

Qo‘llanish sohalari:

- Suyuqliklar oqimini o‘lchash (suv, sut, benzin, dizel va boshqa sanoat suyuqliklari)
- Oqova suv, loyqa va ifloslangan suyuqliklar bilan ishlash
- Qovushqoq (viskoz) suyuqliklar oqimini o‘lchash


MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Suv oqimi sensorining tuzilishi va ishlash prinsipi.

ISSN 3030-3907

Suv oqimi sensori suv o‘tishi mumkin bo‘lgan plastik klapandan tashkil topgan. Suv rotori va Hall sensori yordamida suv oqimi aniqlanadi va o‘lchanadi[2].

Suv klapandan o‘tganda rotorni aylantiradi. Natijada rotor aylanish tezligidagi o‘zgarishlar kuzatiladi. Ushbu o‘zgarish Hall sensori tomonidan impuls signal ko‘rinishida chiqariladi. Shu tarzda suv oqimi tezligini aniqlash mumkin[2].



2-rasm. Suv oqimi sensorining tuzilishi va ishlash prinsipi

LCD displey o‘lchov natijalarini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Magnitli Hall effekti asosidagi suv oqimi sensori rotor har bir aylanganda impuls signalini chiqaradi. Ichki Hall sensori suv o‘tkazmaydigan (gidroizolyatsiyalangan) bo‘lib, uni namlik va suvdan himoya qiladi. **YFS201 Hall sensori** bunday sensorlarning keng tarqalgan namunasi hisoblanadi[7].

Bu sensorlar o‘lchov natijalarini ko‘rsatish uchun albatta displey qurilmasiga ehtiyoj sezadi. Sensor har bir litr suyuqlik o‘tganda taxminan 4–5 ta impuls signalini hosil qiladi. Uning ishchi oqim diapazoni 1–30 litr/minutni tashkil etadi. Foydalanish qulayligi va arzonligi ushbu sensorning muhim afzalliklaridan biridir.

Suv oqimi sensorining tavsifi.

Suv oqimi sensori plastik klapan korpusi, suv rotori va Hall sensoridan iborat. Suv rotor orqali oqib o‘tganda, rotor aylana boshlaydi. Uning aylanish tezligi oqim tezligiga qarab o‘zgaradi. Hall sensori esa shu o‘zgarishga mos ravishda impuls signali hosil qiladi[2].

Bu sensor suv dispenserlari yoki qahva mashinalarida suv oqimini aniqlash uchun juda mos keladi. Turli diametrdagi suv oqimi sensorlarining keng assortimenti mavjud.

ISSN 3030-3907

1-jadval.

Suv oqimi sensorining texnik tavsiflari

Ko‘rsatkich	**Qiymat**
Minimal ish kuchlanishi	DC 4.5 V
Maksimal ish toki	15 mA (DC 5 V)
Ishlash kuchlanishi	DC 5 V ~ 24 V
Oqim sarfi diapazoni	1 ~ 30 L/min
Yuklama toki	10 mA (DC 5 V)
Ishlash harorati	80°C
Suyuqlik harorati	120°C
Ishlash namligi	35% ~ 90% RH
Suv bosimi	1.75 MPa
Saqlash harorati	-25°C ~ +80°C
Saqlash namligi	25% ~ 95% RH

YFS201 water flow sensor uchta simga ega: qizil, sariq va qora, quyidagi rasmda ko‘rsatilganidek. Qizil sim 5 V dan 18 V gacha bo‘lgan kuchlanish manbaiga ulanadi, qora sim esa GND (yer)ga ulanadi. Sariq sim esa chiqish signali (impulslar) uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u mikrokontroller (MCU) tomonidan o‘qilishi mumkin[7].

Suv oqimi sensori ichida qanotli (pinwheel) rotor mavjud bo‘lib, u qurilmadan o‘tayotgan suyuqlik miqdorini o‘lchaydi. Suyuqlik oqimi ta’sirida rotor aylana boshlaydi va shu orqali o‘tayotgan suv hajmi aniqlanadi[7].



3-rasm. YFS201 suv oqimi sensori.


YFS201 water flow sensor ning ishlash prinsipini tushunish qiyin emas. Ushbu suv oqimi sensori **Hall effekti prinsipi** asosida ishlaydi[7].

Hall effekti — bu elektr o‘tkazgichdan tok o‘tayotganda, unga perpendikulyar yo‘nalishda magnit maydon ta’sir etganda, o‘tkazgichda potensial farq (kuchlanish) hosil bo‘lish hodisasidir.

ISSN 3030-3907

Suv oqimi sensori magnitli Hall sensori bilan birlashtirilgan bo‘lib, rotor har bir aylanganda elektr impuls signalini hosil qiladi. Uning konstruktsiyasi Hall sensorini suvdan izolyatsiya qiladi, bu esa sensorning quruq va xavfsiz ishlashini ta’minlaydi[1].

Quyida YFS201 sensor modulining faqat tuzilma (strukturasi) ko‘rsatilgan.




4-rasm. Suv oqimi sensorini LCD displey bilan Arduino mikrokontrolleriga ulash.

2-jadval.

Suv sarfining vaqtga bog‘liqligi jadvali.

t (min)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Q (l/m^3)	35	33	33	33	34	33	33	33	34	33



5-rasm. Suv sarfining vaqtga bog‘liqligi grafigi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Ushbu tadqiqotning maqsadi nasosning elektr parametrlariga mos keladigan suv sarfini aniqlash bo‘lib, bu jarayon nasosning energiya samaradorligini oshirish va uning ishlashini optimallashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida nasosning elektr energiya iste’moli va suv sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi, eng samarali ish rejimlarini aniqlash uchun matematik modellar va hisob-kitoblar ishlab chiqildi.

ISSN 3030-3907

Olingan natijalar nasos tizimlarining energiya samaradorligini oshirish, texnik xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va umumiy ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Bu esa sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda nasos qurilmalarining samarali va tejamkor ishlashini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. H. Patel et al., “IoT Based Water Flow Monitoring System Using Arduino,” International Journal of Engineering Research, 2022.
2. Hall Effect Sensor Principles and Applications, IEEE Sensors Journal, 2021.
3. «Nasos va kompressor stansiyalarini loyihalashtirish, qurish va ishlatish»: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. U.K.Urinov, M.Q.Nazarbekov, N.S.Amirqulov, A. Sodiqov, K.Yu. Rashidov; – T.: «Nashriyot», 2023
4. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti R.R.Ergashev “Nasos stansiyalaridan foydalanish” Toshkent – 2020
5. R.T. Gaziyeva “Suv xo‘jaligidagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish” T.Talqin, 2007
6. Turatbekova, A., Parmanova, N., Abdukadirova, M., Khadzhiev, A., Arzikulov, X., & Xodjimatov, M. B. (2024). Study on the effect of organic fertilizers for enhancing the yield and quality of the white cabbage (Brassica oleracea var. Capitata f. alba). In E3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 03075). EDP Sciences.
7. YFS201 Water Flow Sensor Datasheet, Technical Documentation, 2023.

ISSN 3030-3907

PAST KUCHLANISHLI HAVO ELEKTR TARMOQLARI.

Xakimov Temurbek Boxodirjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti assistenti
E-mail: devidpetrov6998@gmail.com
Tel: +998945675667
Xoshimjonov Muxammadjon Xayrullo o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti talabasi.
Tel: +998932635979

Annotatsiya. Odatdagi taqsimlash tizimida energiya yo‘qotishlari 6% dan 10% gacha bo‘lishi mumkin va tizim xususiyatlariga, o‘rnatilgan uskunalarga va taqsimlash tarmog‘ining ishlash strategiyalariga bog‘liq. Eng yuqori yuklanish davrlarida yo‘qotishlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratish kerak, chunki yo‘qotishlar va tizim yo‘qotishlarining qiymati bu davrlarda eng yuqori bo‘ladi. Ushbu maqola texnik yo‘qotishlarni, quvvat omillarini va kuchlanish profillarini miqdoriy jihatdan aniqlaydi va tahlil qiladi. Ushbu maqolada shuningdek, 0,4 va 6–10 kV liniyalar uchun o‘tkazgichlar va kabellarni optimal tanlash va tizim yo‘qotishlarini va natijada tizimning ishlash xarajatlarini kamaytirish uchun transformator yo‘qotishlarini kapitallashtirish qiymatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Elektr taqsimlash tarmog‘i, elektr toki, taqsimlash transformatorlari, optimal o‘tkazgich, quvvat koeffitsienti, yuqori kuchlanish, kommutatsiya, kondensator banki.

Аннотация. В типичной распределительной системе потери энергии могут составлять от 6 до 10% и зависят от характеристик системы, установленного оборудования и стратегий эксплуатации распределительной сети. Особое внимание следует уделять снижению потерь в периоды пиковой нагрузки, поскольку стоимость потерь и потерь в системе в эти периоды достигает максимальной величины. В работе количественно оцениваются и анализируются технические потери, коэффициенты мощности и профили напряжения. В данной работе также рассматривается оптимальный выбор проводников и кабелей для линий 0,4 и 6–10 кВ, значения капитализации потерь в трансформаторах для снижения потерь в системе и, следовательно, эксплуатационных расходов системы.

Ключевые слова: Электрическая распределительная сеть, электрический ток, распределительные трансформаторы, оптимальный проводник, коэффициент мощности, высокое напряжение, коммутация, конденсаторная батарея.

Annotation. In a typical distribution system, energy losses can range from 6 to 10% and depend on the system characteristics, installed equipment and distribution network operating strategies. Special attention should be paid to reducing losses

ISSN 3030-3907

during peak periods, since the cost of losses and losses in the system is highest during these peak periods. Technical losses, power factors and voltage profiles are quantified and analyzed. This paper also studies the optimal conductor and cable selection for 0.4 and 6-10 kV lines, the capitalization values of transformer losses to reduce system losses and, therefore, the operating costs of the system.

Keywords: Electrical distribution network, current flow, distribution transformers, optimal conductor, power factor, high voltage, switching, capacitor bank.

KIRISH.

Xitoyning elektr energiyasini rivojlantirish bo‘yicha so‘nggi tahlil hisobotidan olingan ma'lumotlarga ko‘ra, energiya tizimining liniya yo‘qotishlari asta-sekin kamayib bormoqda - 2020-yildagi 5,62% dan 2021-yilda 5,26% gacha, bu texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq. Biroq, rivojlangan mamlakatlardan o‘rtacha liniya yo‘qotish darajasi 4% bo‘lgan holda nisbatan katta farq mavjud. Past kuchlanishli tarmoqlardan liniya yo‘qotishlari umumiy energiya tizimining taxminan 40% ni tashkil etishini hisobga olsak, energiya tizimlarini ilmiy jihatdan boshqarish va energiya yo‘qotishlarini aniq va samarali ravishda aniqlash va shu bilan past kuchlanishli tarmoqlar salohiyatini kamaytirish orqali energiyani tejashni o‘rganish katta amaliy ahamiyatga ega.

Past kuchlanishli tarmoqlardagi nazariy liniya yo‘qotishlari elektr tarmog‘i uskunalarining texnik shartlari, jumladan, havo va kabel liniyalarining yo‘qotilishi, kondensatorlar, reaktorlar, kameralar va boshqa yordamchi uskunalarning yo‘qotilishi, shuningdek, kuchlanish, tok o‘tkazgichlari, energiya hisoblagichlari va boshqalarning yo‘qotilishi bilan belgilanadi va aniqlanadi. Ba'zi inson boshqaruv omillari bilan taqqoslaganda, nazariy liniya yo‘qotishlari nisbatan barqaror va energiya yo‘qotishlarini kamaytirish potensiali nazariy va haqiqiy liniya yo‘qotishlari o‘rtasidagi farq orqali aniqlanishi mumkin. Murakkab simlar va past kuchlanishli tarmoqlardagi liniya uzunligi va iste'mol yukining katta farqi tufayli ekvivalent qarshilik usuli va quvvat oqimi algoritmini o‘z ichiga olgan an'anaviy usullarni qoniqarli tarzda qo‘llash mumkin emas va ba'zi yaxshilanishlar taklifi talab etiladi. Masalan, yuk egri chizig‘i shakli koeffitsienti, mis yo‘qotishi, kichik (ko‘p) quvvat manbai va tarmoq quvvatini hisoblashni yaxshiladi, aniqlikni oshirish uchun tok yo‘qotishining o‘rtacha vaqtini va gipoteza shartlarining zaiflashishini kiritdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Past kuchlanishli tarmoqlarda nazariy chiziq yo‘qotishining ta'sir mexanizmiga muvofiq xarakterli omillarni yaratish kerak. Ushbu maqolada past kuchlanishli tarmoqlarda nazariy chiziq yo‘qotishining ta'sir mexanizmini o‘rganish va tahlil qilish uchun nisbatan yuqori hisoblash aniqligiga ega ekvivalent qarshilik usuli tanlangan. Past

ISSN 3030-3907

kuchlanishli tarmoqlardagi nazariy liniya yo‘qotishlari liniya yo‘qotishlari, elektr hisoblagichning yo‘qolishi va reaktiv quvvat kompensatsiya uskunasining yo‘qolishidan iborat. Elektr hisoblagichning yo‘qolishi va reaktiv quvvat kompensatsiya uskunasining yo‘qolishi nisbatan barqaror bo‘lib, stansiya hududidagi liniya yo‘qotishlari tarmoqlarning nazariy liniya yo‘qotishlarida muhim rol o‘ynaydi. Stansiyaning liniya yo‘qotishlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ikki toifaga bo‘lish mumkin: statik liniya omillari va dinamik ish omillari.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Kabel ko‘ndalang kesim yuzasini hisoblash va tanlash.

1. Tok zichligiga ko‘ra kabel ko‘ndalang kesim yuzasini tanlash

$$F_E = I_N / j_E$$

$$j_E = 1.2 \text{ A/mm}^2$$

Yiliga maksimal 5000 soatdan ko‘p bo‘lgan foydalanish soatlari uchun koyeffisiyent.

$$F_E = 306.22/1.2 = 255.18 \text{ mm}^2$$

Men 1.2 koyeffisiyentni PUYe kitobi 1.3.36 jadvalga asoslangan holda qabul qildim va quyida jadvalni taqdim qildim.

1.1-jadval.

Tokning samaradorlik zichligi

O‘tkazgichlar	Tokning samaradorlik zichligi A/kV mm yillik maksimal yuklamada ishlatilganda		
	1000 dan 3000 gacha	3000 dan 5000 gacha	5000 dan yuqori
misli	2.5	2.1	1.8
alyuminli	1.3	1.1	1.0
Qog‘ozli kabellar va rezina va polivinilxlorid izolyasiyalangan simlar:			
misli	3.0	2..5	2.0
alyuminli	1.6	1.4	1.2
Kauchuk va plastmassa izolyasiyalangan kabellar:			
misli	3.6	3.1	2.7
alyuminli	1.9	1.7	1.6

Texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarda qo‘shimcha liniyaga barcha investisiyalar, shu jumladan liniyalarning ikkala uchidagi elektr uzatish moslamalari uskunalari va kameralari hisobga olinishi kerak. Shuningdek, chiziq kuchlanishini oshirishning maqsadga muvofiqligini tekshirish kerak. Ushbu ko‘rsatmalar,

ISSN 3030-3907


shuningdek, mavjud simlarni kattaroq simlar bilan almashtirishda yoki qo‘shimcha simlarni yotqizishda ham qo‘llanilishi kerak.

Ushbu ko‘rsatmalar, shuningdek, mavjud simlarni kattaroq simlar bilan almashtirishda yoki yuk ko‘tarilganda oqimning iqtisodiy zichligini ta’minlash uchun qo‘shimcha chiziqlar yotqizishda ham qo‘llanilishi kerak. Bunday hollarda, shuningdek, liniya uskunalarini demontaj qilish va o‘rnatish bo‘yicha barcha ishlarning, shu jumladan qurilmalar va materiallarning narxini hisobga olish kerak [1-2].

Iqtisodiy oqim zichligi tekshirilmaydi: 1 kV gacha kuchlanishli sanoat korxonalari va inshootlari tarmoqlari, 4000 - 5000 gacha bo‘lgan korxonalarning maksimal yukidan foydalanish soatlari soni;

1 kVgacha kuchlanishli alohida yelektr qabul qiluvchilarga filiallar, shuningdek sanoat korxonalari, turar-joy va jamoat binolarining yoritish tarmoqlari; barcha kuchlanishlarning ochiq va yopiq kommutatorlarida yelektr inshootlarining prefabrik shinalari va oshinovka; rezistorlar, boshlang‘ich reostatlarga va boshqalarga boradigan o‘tkazgichlar.; vaqtinchalik tuzilmalar tarmoqlari, shuningdek xizmat muddati 3-5 yil bo‘lgan qurilmalar. Jadvaldan foydalanganda. Quyidagilarga amal qilish kerak

1. Kechasi maksimal yuk bilan oqimning iqtisodiy zichligi 40% ga oshadi.
2. 16 kv.mm va undan kam kesimli izolyasiyalangan o‘tkazgichlar uchun oqimning iqtisodiy zichligi 40% ga oshadi.
3. N tarmoq yuklari bilan bir xil kesimdagi chiziqlar uchun chiziq boshidagi oqimning iqtisodiy zichligini bir necha marta oshirish mumkin, k_y esa ifodadan aniqlanadi



1-rasm. Past kuchlanishda ishlatiladigan kabel turlarining tuzilishi.

4. Bir xil turdagi n quvvat uchun o‘tkazgichlarning bo‘limlarini tanlashda, o‘zaro saqlanadigan elektr qabul qiluvchilar (masalan, nasoslar suv ta’minoti, transformator birliklari va boshqalar), ulardan m shu bilan birga, ular ishda,

ISSN 3030-3907

oqimning iqtisodiy zichligi jadvalda keltirilgan qiymatlarga nisbatan ko‘paytirilishi mumkin.

10 kv tushirish podstansiyalarini yuk ostida kuchlanishni tartibga soluvchi transformatorlar bilan ta’minlaydigan qishloq joylarda 35 kv kuchlanishli yelektr uzatish liniyalarining kesishishi oqimning iqtisodiy zichligi bo‘yicha tanlanishi kerak. Simlar kesimlarini tanlashda dizayn yukini kelajakda 5 yil davomida qabul qilish tavsiya etiladi, bu elektr uzatish liniyalari ishga tushirilgan yildan boshlab hisoblanadi. Qishloq joylarda 35 kv tarmoqlarda bron qilish uchun mo‘ljallangan 35 kv kuchlanishli elektr uzatish liniyalari uchun elektr yenergiyasi iste’molchilarini avariyadan keyingi va ta’mirlash rejimlarida quvvat bilan ta’minlash asosida simlarning minimal ruxsat etilgan oqimidan foydalanish kerak.

Oraliq quvvat tanloviga ega bo‘lgan havo va kabel liniyalari simlarining iqtisodiy kesimlarini tanlash uchastkalarning har biri uchun uchastkalarning tegishli hisoblangan oqimlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Bunday holda, qo‘shni bo‘limlar uchun mos keladigan simning bir xil qismini olishga ruxsat beriladi [3-5].

TAHLIL VA NATIJALAR. 90 honadonli ko‘p qavatli turar joy binosining elektr energiya istemoli 234.5 kw*soat ekanligini hisobga olgan polda quyidagilarni xosoblaymiz

$$I_N = \frac{S}{Un\sqrt{3}}$$

$$S = P/\cos\varphi = 190.72/0.9 = 211.9 \text{ kVA}$$

$$I_N = \frac{211.9}{0.4\sqrt{3}} = 306.22 \text{ A}$$

Tarmoqdan oqib o‘tuvchi to‘kning qiymati 306.22 A ni tashkil qilmoqda quyidagi jadvalga asosan bizga kerakli kabelni tanlaymiz.

1.2-jadval.

Kabelni tanlash

Ko‘ndalang kesim yuzasi	Poliyetilen, polivinilxlorid plastmassa birikmasi (PVX), alyuminiy, A dan izolyasiyalangan 0,66 va 1 kV kuchlanishli kabellarning ruhsat etilgan tok o‘tkazish qobiliyati			
	3 tolali		4 tolali	
	Havoda	yerda	Havoda	yerda
2.5	21	28	19	26
4	29	37	27	34
6	37	44	34	41
10	50	59	46	55
16	67	77	62	72
25	88	100	82	93

ISSN 3030-3907

35	109	121	101	112
50	136	147	126	137
70	167	178	155	165
95	204	212	190	197
120	236	241	219	224
150	273	274	254	255
185	313	308	291	286
240	369	355	343	330

Bizning tarmoq uchun 240 mm^2 li kabel tanlangan chunki 240 mm^2 li kabelni tok o‘tkazish qobiliyati havoda 369 A ni tashkil yetmoqda, biz kabelni havoda tanlashimizning sababi shuki kabel ulanish nuqtalari yerni ustki qismida ochiq havo tegib turuvchi joyda bo‘lganligi sababli bundan tashqari avtomobil o‘tish joylaridan yer ostiga kabellar yotqizilganligida kabellar truba ichidan o‘tkazilgan bo‘lishi shart [6].

2. Qizish holatiga ko‘ra kabel ko‘ndalang kesim yuzasini tanlash

Simni ko‘ndalang kesimini tanlashda quyidagiga rioya qilish shart

$$I_{dop'} \geq I_{dlit}$$

$$I_{dlit} = \frac{s}{Un\sqrt{3}}$$

$$I_{dlit} = \frac{211.9}{0.4\sqrt{3}} = 306.22 \text{ A}$$

I_{dop} –PUYe 1.3.16 jadvaldan mos ravishda olinadi

$$I_{dop} = 369 \text{ A}$$

$$I_{dop'} \geq I_{dlit}$$

demak shart bajarildi.

Kabel ko‘ndalang kesim yuzasini tanlashda ruxsat yetilgan tok oqimini tanlash uchun tuproqni qizishini°C (k_p)va bitta transheyada yotgan kabellar soni (k_{kk}) uchun koyeffisiyentlarni kiritish kerak.

k_p =0.94 (PUYe-85 jadval 1.3.3) dan olinadi

$$k_{kk} = 0.9$$

$$I_{dop'} = I_{dop} * k_p * k_{kk}$$

1.3-jadval.

Kabel ko‘ndalang kesim yuzasini tanlashda ruxsat etilgan tok oqimini tanlash.

Kabellar orasidagi aniq masofa, mm	Kabellar soni uchun koyeffisiyent						
	1	2	3	4	5	6	

ISSN 3030-3907

100	1,00	0,90	0,85	0,80	0,78	0,75	
200	1,00	0,92	0,87	0,84	0,82	0,81	
300	1,00	0,93	0,90	0,87	0,86	0,85	

3.4 jadval Yerga yaqin joylashgan ishlaydigan kabellar sonini tuzatish koyeffisiyenti berilgan.

Biz kabellar orasidagi aniq masofani 100 mm deb belgilaymiz buni yuqoridagi chizmalarda xam ko‘rishimiz mumkin

$$I_{dop'} = 369*0.94*0.9=312.172 \text{ A}$$

$$I_{dop'} \geq I_{dlit} \quad 312.172 \text{ A} \geq 306.22 \text{ A}$$

Shart bajarildi biz tanlagan kabeldan foydalanishimiz mumkin [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ushbu maqolada past kuchlanishli tarmoqlarda nazariy liniya yo‘qotishlarini hisoblash uchun takomillashtirilgan tasodifiy o‘rmon usuli taklif qilindi. Ushbu maqolaning asosiy ishi quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

1.Past kuchlanishli tarmoqlarning oqilona elektr xarakteristikalari nazariy liniya yo‘qotishining fizik va operatsion ta'sir mexanizmiga muvofiq qurilgan. Fizik omillar va operatsion omillarni birlashtirish orqali ta'sir mexanizmini aniqroq tahlil qilish uchun birinchi marta quvvat manbai momenti kontseptsiyasi taklif qilingan.

2. Biroq, qaror elektrning tasniflash jarayoni o‘zgartirilganda takomillashtirilgan tasodifiy o‘zgarishning aniqlik xatosi atigi 1,2161 ni tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Zuhritdinov Alisher Faraxidin o‘g‘li, Yo‘lchiyev Mash'albek Erkinovich, Xakimov Temurbek Bahodirjon o‘g‘li. (2023). Qattiq jismlarning chiziqli kenash koeffisientining haroratga bog‘liligini o‘rganish. amaliy fan va texnologiyalarning xalqaro bulleteni, 3(5), 888–893. https://doi.org/10.5281/zenodo.7969053

2. Donyorbek Dilshodovich Alijanov, & O‘tkirbek Akramjonovich Axmadaliyev. (2020). Avtomatik faralarning o‘ziga xos xususiyatlari. Amerika amaliy fanlar jurnali, 13–16. https://doi.org/10.37547/tajet/Volume02Issue10-03

3. Sharobiddinov,S., & Mamarasulov,Q. (2023). QUYOSH HAVO ISITISH KOLLEKTORINI ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH. Sharh va tadqiqotlar.

4. Zuhritdinov Alisher Faraxidin o‘g‘li, Yo‘lchiyev Mash'albek Erkinovich, Xakimov Temurbek Bahodirjon o‘g‘li (2023). QATTIQ JISMLARNING

ISSN 3030-3907

CHIZIQLI KENASH KOEFFİSİENTINING HARORATGA BOG‘LILIGINI O‘rganish. AMALIY FAN VA TEXNOLOGIYA XALQARO BULLETENI SJIF = 5.955 , https://doi.org/10.5281/zenodo.7969053 .
5. Xakimov Temurbek Boxodirjon o`g`li , Rahmonov Asliddin Abdulhamid o‘g‘li. (2024). QUYOSH xujayrasi uchun INVERTORLAR VA NAZORATCHILARNI TANLASH. LUChShIE INTELLEKTUALNYE ISLEDOVANIYA. 149-152.
6. Muhiddin Atajonov , Qudratbek Mamarasulov , Odilbek Dexqonboyev , Temur Xakimov .(2024). Fotovoltaik modul asosida quyosh panellari modelini tadqiq qilish. https://doi.org/10.1063/5.0241785 . Amaliy fan va texnikaning zamonaviy muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferentsiya AIP Conf. Proc.
7. Xakimov Temur , Abdumutalipov - Orzumurod o‘g‘li Shahobiddin .(2024). ISHLAB CHIQARISH KOMPARALARIDA ENERGIYA SAMARALILIGINI OSHIRISH UCHUN ENERGIYALARNI BOSHQARUV TIZIMINI TAMOQLASH. LUCHShIE INTELLEKTUALNYE ISLEDOVANIYA. ISSN : 3030-3680 . 81-86.
8. Fthenakis, V. (2020). Sustainability evaluation of CdTe PV: An update. Renewable & Sustainable Energy Reviews, 124, 109785.
9. Curtin, A. M., et al. (2020). CdTe in thin-film photovoltaic cells: Interventions to protect the environment. Heliyon, 6(4), e03706.
10. Snyder, G. J., & Toberer, E. S. (2008). Complex thermoelectric materials. Nature Materials, 7(2), 105–114.
11. Sun, Y., et al. (2023). Performance boost for bismuth telluride thermoelectric devices via diffusion-barrier design. Advanced Science.

ISSN 3030-3907

INGLIZ-O‘ZBEK RAQS SAN’ATI TERMINLARINING RAQAMLI LUG‘ATINI TUZISHDA SEMANTIK TEGLASH VA KORPUS TEXNOLOGIYALARI

Yarashova Vazira Shuxratovna
Buxoro Davlat Pedagogika Instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishi ingliz va o‘zbek tillaridagi musiqa hamda raqs terminologiyasini tizimli o‘rganish va ularning elektron lug‘at platformasini yaratishning nazariy-metodologik asoslariga bag‘ishlangan. Bugungi kunda san’atshunoslik terminologiyasi globallashuv jarayonida jadal o‘zgarib borayotganini hisobga olib, ushbu soha leksikasini tartibga solish va unifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda terminlarning etimologik qatlamlari, semantik derivatsiyasi va ikki xil tizimli tillardagi ekvivalentlik darajasi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, lug‘at maqolalarining tarkibiy tuzilishi, terminlarning konnotativ ma’nolari va soha doirasidagi xalqaro terminlarning o‘zbek tiliga moslashishi masalalari ilmiy dalillar asosida ko‘rib chiqilgan. Elektron lug‘at yaratishda zamonaviy korpus lingvistikasi usullaridan foydalanish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va foydalanuvchi interfeysini optimallashtirishning lingvistik mezonlari ishlab chiqilgan. Mazkur ish nafaqat filologlar va tarjimonlar, balki san’atshunos mutaxassislar uchun ham amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: elektron leksikografiya, terminologiya, musiqa terminlari, raqs san’ati, kompyuter lingvistikasi, qiyosiy tahlil, semantika, ma’lumotlar bazasi, lingvistik asoslar, terminografiya.

Annotation. This research focuses on the theoretical and methodological principles of developing an electronic English-Uzbek dictionary of music and dance terminology. In the era of rapid globalization, the terminology of art forms is undergoing significant transformations, necessitating the systematic classification and unification of its lexical units. The study provides a comparative analysis of etymological layers, semantic derivation, and the degree of equivalence across two typologically different languages. Furthermore, it examines the structural organization of dictionary entries, the connotative aspects of terms, and the integration of international artistic terminology into the Uzbek linguistic framework. The work outlines the linguistic criteria for building a database using modern corpus linguistics methods and optimizing user interfaces for electronic lexicography. This research serves as a valuable resource for linguists, translators, and art historians, offering a scientific approach to digitizing specialized terminological systems.

ISSN 3030-3907

Keywords: electronic lexicography, terminology, music terms, dance art, computational linguistics, comparative analysis, semantics, database, linguistic foundations, terminography.

Аннотация. Разработаны лингвистические критерии использования современных методов корпусной лингвистики при создании электронного словаря, формирования базы данных и оптимизации пользовательского интерфейса.словарной платформы. Учитывая, что сегодня терминология искусствоведения стремительно меняется в процессе глобализации, регулирование и унификация лексики данной области приобретают важное значение. В исследовании проводится сравнительный анализ этимологических слоев терминов, семантической деривации и уровня эквивалентности в двух разных структурных языках. Также на основе научных данных рассмотрены вопросы структурной организации словарных статей, коннотативных значений терминов и адаптации международных терминов в данной области на узбекский язык. Разработаны лингвистические критерии использования современных методов корпусной лингвистики при создании электронного словаря, формирования базы данных и оптимизации пользовательского интерфейса. Данная работа послужит практическим источником не только для филологов и переводчиков, но и для искусствоведов.

Ключевые слова: электронная лексикография, терминология, музыкальные термины, танцевальное искусство, компьютерная лингвистика, сравнительный анализ, семантика, база данных, лингвистические основы, терминография.

KIRISH.

Zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kompyuter leksikografiyasi bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Xususan, madaniyat va san’at sohasidagi terminologik tizimlarni raqamlashtirish, ularning tillararo ekvivalentligini ta’minlash hamda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kechiktirib bo‘lmas vazifalardan sanaladi. Ingliz va o‘zbek tillarida raqs hamda musiqa terminlarining leksik-semantik tabiatini tadqiq etish, nafaqat ikki xil tizimli tillarning lisoniy xususiyatlarini ochib beradi, balki milliy madaniyatlararo muloqotning terminologik poydevorini mustahkamlaydi. Raqs va musiqa san’ati insoniyat ma’naviy merosining ajralmas qismi bo‘lib, ushbu sohalarga oid tushunchalar tizimi o‘ziga xos murakkab iyerarxik tuzilishga ega. Ushbu tizimlarni elektron lug‘at shakliga keltirish jarayonida lingvistik asoslarni belgilash, terminlarning konnotativ va denotativ ma’no qirralarini aniqlash, shuningdek, ularning soha

ISSN 3030-3907

doirasidagi funksionalligini tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.Leksikografiyaning nazariy masalalari bo‘yicha L.V. Shcherba, S.I. Ozhegov kabi olimlarning qarashlari, shuningdek, zamonaviy korpus lingvistikasining B.T. Atkins va M. Rundell tomonidan ilgari surilgan tamoyillari elektron lug‘atshunoslikning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa va raqs terminologiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra ham umumiste’moldagi so‘zlar, ham tor doiradagi maxsus tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Bu esa elektron lug‘at yaratishda terminlarning semantik maydonini to‘g‘ri chegaralashni taqozo etadi. O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari

R. Doniyorov, H. Jamolxonov kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, san’at sohasidagi terminlarning ingliz tili bilan qiyosiy-tipologik tahlili va ularning elektron platformasini yaratishning lisoniy mezonlari hali to‘liq o‘z yechimini topganicha yo‘q. Elektron lug‘at nafaqat axborot-qidiruv tizimi, balki terminlarning o‘zaro sinonimik, antonimik va iyerarxik bog‘lanishlarini ko‘rsatib beruvchi dinamik intellektual vositadir. Musiqa asboblari nomlari, raqs harakatlari metatili, janrlar va ijro uslublari kabi leksik qatlamlarni tahlil qilish jarayonida terminologik birikmalarning turg‘unligi va ularning o‘zbek tili lug‘at fondidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, ingliz tilidagi "international" maqomiga ega bo‘lgan terminlarning o‘zbek tiliga kalkalash yoki translyatsiya usuli bilan kirib kelishi, ularning fonetik va morfologik moslashuvi lingvistik asoslarning ajralmas qismidir. Shuningdek, lug‘at maqolalarining mikrotuzilishi va makrotuzilishini shakllantirishda foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish, terminlarning terminologik maydondagi o‘rnini belgilash elektron leksikografiyaning markaziy masalalaridan biridir.Ushbu tadqiqot yo‘nalishi raqamli gumanitar fanlar (Digital Humanities) doirasida ko‘rib chiqilib, san’atshunoslik terminologiyasini tartibga solish orqali tarjimonlik amaliyoti va soha mutaxassislarining kasbiy muloqotini yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi musiqa va raqs terminlarining o‘ziga xos lisoniy tabiati, ularning tarixiy-etimologik asosi va zamonaviy qo‘llanilish tendensiyalari elektron lug‘at yaratishning ilmiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Bu kabi izlanishlar o‘zbek tili terminologik bazasini boyitish bilan bir qatorda, milliy san’at tushunchalarining xalqaro miqyosda unifikatsiya qilinishiga imkon yaratadi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi musiqa hamda raqs terminologiyasini elektron leksikografiya mezonlari asosida tadqiq etish, avvalo, ushbu sohalarning lisoniy tabiatini va ularning muloqot tizimidagi o‘rnini chuqur anglashni taqozo etadi. Musiqa va raqs terminlari o‘ziga xos semantik maydonni tashkil etib, ular nafaqat san’at ashyolari yoki harakatlarini, balki murakkab estetik tushunchalar, janrlar, ijro uslublari va nazariy qarashlarni ham ifodalaydi. Ingliz tili global miqyosda

ISSN 3030-3907

san’at terminologiyasining asosiy donor tili bo‘lib xizmat qilayotgan bir paytda, ushbu terminlarning o‘zbek tili lug‘at fondiga kirib kelishi va unda o‘z o‘rnini topishi leksik-semantik adaptatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Terminologik tizimning barqarorligi va aniqligi elektron lug‘atning fundamentini tashkil qiladi. Bunda terminlarning monosemik (bir ma’nolilik) xususiyatini saqlash, sinonimiya va omonimiya kabi lisoniy hodisalarni lug‘at maqolasida to‘g‘ri aks ettirish kompyuter lingvistikasining dolzarb vazifasidir.Sohaga oid terminlarni elektron platformaga ko‘chirishda lisoniy asos sifatida terminologik iyerarxiya va tushunchalar tizimi markaziy o‘rin tutadi. Masalan, musiqa terminologiyasida "instrumental", "vokal", "janr", "dinamika" kabi makro-tushunchalar ostida yuzlab mikro-terminlar birlashadi. Raqs san’atida esa "xoreografiya", "plastika", "ekspressiya" kabi terminlar harakatlar metatilini shakllantiradi. Ushbu terminlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi ekvivalentligini ta’minlashda to‘liq ekvivalentlik (absolute equivalence), qisman ekvivalentlik va ekvivalentga ega bo‘lmagan leksika (non-equivalent lexis) muammolari yuzaga keladi. Ayniqsa, o‘zbek milliy raqs va musiqa san’atiga xos bo‘lgan "maqom", "tanovar", "ufor", "suzma" kabi terminlarning ingliz tilidagi tavsifini yaratishda lingvokulturologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron lug‘at yaratishda shunchaki so‘zma-so‘z tarjima emas, balki har bir terminning lisoniy va madaniy kontekstini tushuntirib beruvchi definitsiyalar (ta’riflar) tizimi ishlab chiqilishi shart.Lingvistik asoslarning yana bir muhim qirrasi — bu terminlarning morfologik va derivatsion tuzilishini tahlil qilishdir. Ingliz tilidagi musiqa terminlari ko‘p hollarda lotin, italyan va fransuz tillaridan o‘zlashgan bo‘lib, ularning o‘zbek tiliga ko‘chishi jarayonida fonetik transformatsiya va semantik torayish yoki kengayish hodisalari kuzatiladi. Masalan, "sonata", "symphony", "ballet" kabi xalqaro terminlar o‘zbek tili imlo va talaffuz me’yorlariga moslashgan holda lug‘at tarkibidan joy oladi. Elektron lug‘atning arxitekturasini yaratishda ushbu terminlarning etimologik ildizlari va ularning qo‘llanilish chastotasini (frequency) hisobga olish korpus lingvistikasining asosiy talablaridan biridir. B.T. Atkins va M. Rundell kabi olimlarning ta’kidlashicha, zamonaviy elektron lug‘at nafaqat statik ma’lumotlar bazasi, balki foydalanuvchiga terminning sintagmatik va paradigmatik aloqalarini ko‘rsatib beruvchi intellektual tizim bo‘lishi lozim.Raqs va musiqa terminlari elektron lug‘atini loyihalashtirishda ma’lumotlar bazasining lingvistik modelini yaratish alohida bosqichdir.
Bu jarayonda terminlarning grammatik kategoriyalari, stilistik xususiyatlari va audiovizual ilovalari (masalan, raqs harakati videosi yoki musiqa asbobi tovushi) o‘rtasidagi bog‘liqlik ta’minlanadi. Bunday yondashuv terminologik lug‘atni tushuntirish lug‘ati bilan sintez qilish imkonini beradi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi

ISSN 3030-3907

terminologik bo‘shliqlarni to‘ldirishda ingliz tilidagi neologizmlarni o‘zlashtirishning lingvistik mezonlari ishlab chiqilishi zarur. Bu jarayonda terminologik unifikatsiya, ya’ni bir tushuncha uchun bir necha variantlarning mavjudligini bartaraf etish va eng maqbul terminni tanlash elektron lug‘atning ilmiy qimmatini belgilaydi. Lug‘at maqolasining mikrotuzilishi terminning imlosi, transkripsiyasi, grammatik tavsifi, ta’rifi, sinonimlari va kontekstual misollarini o‘z ichiga olishi kerak.Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida raqs va musiqa terminlari elektron lug‘atini yaratish faqatgina texnik jarayon emas, balki chuqur lisoniy tahlil, qiyosiy-tipologik tadqiqot va leksikografik mahorat mahsulidir. Ikki xil tizimli tillardagi terminologik tizimlarning mutanosibligini ta’minlash, milliy terminologiyani xalqaro andozalarga muvofiq tizimlashtirish va ularni raqamli muhitga adaptatsiya qilish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Ushbu lingvistik asoslar nafaqat lug‘at yaratishga, balki kelajakda san’atshunoslik sohasidagi mashina tarjimasi tizimlarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Elektron leksikografiyaning nazariy poydevorini mustahkamlashda raqs va musiqa terminlarining kognitiv-semantik tuzilishini tahlil qilish muhim bosqich sanaladi. Ingliz tilidagi musiqa terminologiyasi uzoq yillik tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan bo‘lib, u o‘zida turli madaniy qatlamlarni birlashtiradi; bu esa o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida "terminologik ekvivalentlik" tushunchasiga yangicha yondashishni talab qiladi. Xususan, ingliz tilidagi *tempo*, *rhythm*, *melody* kabi fundamental tushunchalar o‘zbek tilida ham o‘zining barqaror muqobillariga ega bo‘lsa-da, tor sohadagi *staccato*, *legato* yoki *pizzicato* kabi ijro uslubini ifodalovchi terminlar o‘zbek tili matnlarida ko‘pincha transliteratsiya qilinadi. Elektron lug‘at yaratishning lingvistik asosi sifatida ushbu o‘zlashma terminlarning o‘zbek tili grammatik tizimiga moslashuvi, ya’ni ularning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanilish imkoniyatlari ham lug‘at maqolasida o‘z aksini topishi zarur. Bu jarayonda R. Doniyorov tomonidan ishlab chiqilgan "terminologik tizimning yaxlitligi" tamoyili asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni lug‘atga kiritilayotgan har bir birlik umumiy san’atshunoslik tizimidagi o‘rniga ko‘ra klassifikatsiya qilinishi lozim.

Raqs terminologiyasida esa lingvistik tahlil obyekti ko‘proq harakat dinamikasi va xoreografik chizmalarni ifodalovchi metatildan iboratdir. Ingliz tilidagi xalqaro xoreografiya terminlari (asosan fransuz tili bazasidagi) va o‘zbek milliy raqsining o‘ziga xos tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni bartaraf etish uchun elektron lug‘atda "tushuntirishli-illyustrativ" metoddan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o‘zbek raqsidagi "qo‘shqarsak", "zamin", "larza" kabi terminlar nafaqat lingvistik ma’noga, balki chuqur madaniy semantikaga ham ega

ISSN 3030-3907

bo‘lib, ularni ingliz tiliga faqat tavsifiy yo‘l bilan (descriptive translation) o‘girish mumkin. Elektron lug‘atning afzalligi shundaki, u an’anaviy qog‘oz lug‘atlardan farqli o‘laroq, terminning semantik maydonini giperhavolalar orqali kengaytirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida foydalanuvchiga terminning sinonimik qatorini, antonimlarini va hatto u bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy davrlarni ham ko‘rish imkoniyatini taqdim etadi.

Elektron lug‘atning makrotuzilishini shakllantirishda terminlarning alfavit bo‘yicha emas, balki "tematik-ideografik" tamoyil asosida joylashtirilishi lingvistik nuqtayi nazardan ancha samaralidir. Musiqa asboblari (torli, zarbli, damli), musiqiy janrlar (opera, simfoniya, maqom), raqs turlari (balet, folklor, zamonaviy raqs) kabi kategoriyalar bo‘yicha guruhlash terminologik tizimning mantiqiy bog‘liqligini ta’minlaydi. H. Jamolxonov ta’kidlaganidek, har qanday terminologik lug‘atning ilmiyligi undagi definitsiyalarning (ta’riflarning) aniqligi bilan belgilanadi. Binobarin, ingliz-o‘zbek elektron lug‘atida har bir terminning ikki tildagi qisqa va lo‘nda ta’rifi berilishi, bu ta’riflar esa nufuzli manbalar (masalan, "The New Grove Dictionary of Music and Musicians") asosida shakllantirilishi shart. Bu yondashuv lug‘atning nafaqat tarjima vositasi, balki o‘quv-uslubiy manba sifatidagi qiymatini ham oshiradi. Zamonaviy kompyuter leksikografiyasining talablaridan biri - bu lug‘atning ochiq tizim (open system) ekanligidir, ya’ni u doimiy ravishda yangi kirib kelayotgan neologizmlar bilan boyitib borilishi kerak. Musiqa va raqs sohalari bugungi kunda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashib borayotganligi sababli, *electronic music*, *digital choreography*, *remixing* kabi yangi terminlar qatlami paydo bo‘lmoqda. Ushbu birliklarning o‘zbek tili terminologik qatlamiga kirib kelishi va ularning elektron lug‘at bazasidan joy olishi lingvistik monitoringni talab qiladi. Terminlarni elektron bazaga joylashtirishda ularning sintagmatik munosabatlarini, ya’ni qaysi so‘zlar bilan birikib kela olishini (collocations) ko‘rsatish ham muhimdir. Masalan, "ijro etmoq", "chalmoq", "sahnalashtirmoq" kabi fe’llarning ma’lum bir terminlar bilan birikishi lug‘at maqolasida misollar orqali tushuntirilishi tarjimonlar uchun beqiyos amaliy yordam bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, ingliz-o‘zbek raqs va musiqa terminlari elektron lug‘atini yaratishning lingvistik asoslari — bu murakkab tizimli-struktur tahlil, qiyosiy-tipologik o‘rganish va zamonaviy texnologik yechimlarning sintezidan iboratdir.

Ingliz va o‘zbek tillarida raqs hamda musiqa terminlarining elektron lug‘at bazasini shakllantirish jarayoni zamonaviy tilshunoslik oldiga bir qator fundamental muammolarni qo‘yadi va ularning yechimi bevosita fanlararo yondashuvni talab etadi. Asosiy muammolardan biri sifatida ikki xil tipologik oilaga mansub tillar o‘rtasidagi terminologik nomutanosiblikni ko‘rsatish mumkin,

ISSN 3030-3907

O‘yin mexanizmlaridan foydalanish, shuningdek, murakkab vazifalarni dekompozitsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi - ularni kichikroq bosqichlarga ajratish. Bu ko‘nikma, ayniqsa, dasturlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda har bir vazifa mantiqiy bog‘liq qadamlar ketma-ketligi yordamida hal qilinishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar berilgan shartlar asosida yechim topishlari kerak bo‘lgan kvestlarni yaratish ularga algoritmlar va ma’lumotlar tuzilmalarining ishlash tamoyillarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarga muammolarni hal qilishning turli yondashuvlarini sinab ko‘rish, xatolarni tahlil qilish va strategiyalarni tuzatish imkonini beradi, bu esa tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilishda moslashuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Jalb etilganlik darajasini oshirish - o‘quv jarayoni o‘yinga o‘xshasa, o‘quvchilar unda faolroq ishtirok etadilar [2]. Geymifikatsiya ta’lim jarayonini yanada interaktiv qiladi, o‘quvchilarga ma’lumotni shunchaki passiv o‘zlashtirishdan ko‘ra, material bilan faol muloqot qilish imkonini beradi. O‘yin elementlarining kiritilishi qiziqarli muhit yaratadi, bunda o‘quvchilar o‘zlarini shunchaki tinglovchi emas, balki voqealar ishtirokchisi sifatida his qiladilar.

Reyting va darajalardan foydalanishda yuzaga keladigan raqobat ruhi o‘quvchilarni materialni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga undaydi. Shaxsiy va jamoaviy topshiriqlar kabi qo‘shimcha vazifalar qiziqishni oshiradi va o‘quv jarayonini qiziqarli sarguzasht sifatida qabul qilinadigan muhitni yaratadi. Kvestlar, topshiriqlar va interaktiv vazifalar kabi turli xil o‘yin mexanizmlari

ISSN 3030-3907

o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilishga va ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘yin mexanizmlari xatolar oldidagi qo‘rquvni yengishga yordam beradi, chunki o‘yin formatida o‘quvchilar tajriba o‘tkazishlari, turli yechimlarni topishlari va darhol fikr-mulohaza olishlari mumkin. Bu o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantiradi va baholar hamda testlar bilan bog‘liq stress darajasini pasaytiradi.

4. Tezkor fikr-mulohaza - yutuqlar tizimi muvaffaqiyatlarni darhol ko‘rish va xatolarni tuzatish imkonini beradi [5]. Geymifikatsiyaning asosiy afzalliklaridan biri tezkor fikr-mulohaza bo‘lib, u o‘quvchilarga o‘z muvaffaqiyatlarini darhol ko‘rishga va qaysi jihatlar takomillashtirishni talab qilishini tushunishga yordam beradi. Fikr-mulohaza kechikib kelishi mumkin bo‘lgan an’anaviy o‘qitish usullaridan farqli o‘laroq, o‘yin mexanizmlari ballar, darajalar, belgilar yoki sharhlar ko‘rinishidagi tezkor natijalarni taqdim etadi.

Bu jihat, ayniqsa, informatikaning murakkab mavzularini o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega, chunki o‘quvchilar darhol xatolarni tahlil qilib, ularni tuzatishlari mumkin, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi. Masalan, CodeCombat yoki Scratch kabi o‘quv platformalari topshiriqlar bo‘yicha tezkor fikr-mulohaza beradi [6], talabalar o‘z yechimlarining to‘g‘riligi haqida darhol xabar oladilar, bu esa ularga tezda moslashish va ko‘nikmalarini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, geymifikatsiya elementlari o‘qituvchining yordamini kutmasdan, o‘quvchilarga xatolarni mustaqil ravishda tuzatishga yordam beradigan ko‘rsatmalar tizimini o‘z ichiga olishi mumkin.

Tezkor fikr-mulohaza, shuningdek, o‘quvchilarda xavotir darajasini pasaytirishga yordam beradi, chunki u ularga rivojlanishni ko‘rish va kichik yutuqlar uchun rag‘batlantirish olish imkonini beradi. Bu o‘qishni davom ettirishga, yangi yondashuvlarni sinab ko‘rishga va xato qilishdan qo‘rqmaslikka, ularni o‘quv jarayonining bir qismi sifatida ko‘rishga undaydigan ijobiy qo‘llab-quvvatlashni yaratadi.

5. Jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish - guruhli o‘yin topshiriqlari o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va kooperatsiyani rag‘batlantiradi [7]. O‘yin topshiriqlarida birgalikda ishlash o‘quvchilarga samarali muloqot qilish, rollarni taqsimlash va vazifalarni jamoaviy hal qilishni o‘rganish imkonini beradi. Jamoaviy kvestlar, guruhlar o‘rtasidagi musobaqalar va topshiriqlarni birgalikda bajarish kabi o‘yin mexanizmlari hamkorlik va o‘zaro yordam muhitini yaratadi.

Jamoaviy o‘yinlarda o‘quvchilar harakatlarni muvofiqlashtirish, bilim almashish va maqbul strategiyalarni izlash zaruratiga duch kelishadi. Bu nafaqat

ISSN 3030-3907

ularning ishtirok etish darajasini oshiradi, balki yetakchilik, boshqalarning fikrlarini tinglash va hisobga olish qobiliyati, shuningdek, murosaga kelish qobiliyati kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, CodeCombat yoki Scratch kabi o‘yin muhitlarida dasturlash ustida juftlikda ishlash jamoada ishlash va bilim almashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, geymifikatsiya qilingan muhitda guruhda ishlash jamoa a’zolari oldidagi mas’uliyatni o‘rgatadi, chunki muvaffaqiyat barcha ishtirokchilarning birgalikdagi sa’y-harakatlariga bog‘liq. Bu o‘quvchilarga hamkorlikning qadrini anglashga va jamoaviy ish asosiy rol o‘ynaydigan haqiqiy ish vaziyatlariga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.

Informatika kursiga o‘yin elementlarini joriy etish usullari

1. Ta’limiy o‘yinlar - dasturlash asoslarini o‘zlashtirishga yordam beradigan Code.org, Scratch, Lightbot kabi o‘quv dasturlari va ilovalaridan foydalanish [8]. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni qiziqarli va tushunarli tarzda o‘rganish imkonini beradi. Ular mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantiradi, o‘zgaruvchilar, sikllar va shartlar bilan ishlashni o‘rgatadi, shuningdek, amaliyot orqali dasturlashning asosiy tushunchalarini o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

Code.org boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun vizual dasturlashdan tortib, tajribali o‘quvchilar uchun Python va JavaScriptda matnli kodlashgacha bo‘lgan turli qiyinlik darajalarini taklif etadi. Dasturlar ta’lim jarayonini qiziqarli qiladigan o‘quv videolari, topshiriqlar va kvestlarni o‘z ichiga oladi.

Scratch kod bloklari yordamida interaktiv hikoyalar, animatsiyalar va o‘yinlar yaratish imkonini beradi. Ushbu dasturlash muhiti o‘quvchilarga kodning asosiy tushunchalarini o‘zlashtirish, ijodkorlikni rivojlantirish va loyihalar ustida jamoa bo‘lib ishlashga yordam beradi.

Lightbot o‘quvchilarga robotni boshqarish uchun to‘g‘ri buyruqlar ketma-ketligini tuzishni talab qiladigan o‘yin mexanikasi orqali dasturlash mantiqining asoslarini o‘rgatadi.

Ushbu platformalardan tashqari, dasturlash asoslarini o‘rganishning interaktiv va qiziqarli usullarini taqdim etuvchi CodeCombat, Tynker va Robocode kabi boshqa ta’lim o‘yinlari ham mavjud.

2. Musobaqalar va chellenjlar - "Kim tezroq kod yozadi" yoki "Vaqtga oid algoritmik masalalarni yechish" kabi tanlovlarni tashkil etish [9]. Bunday tadbirlarni o‘tkazish o‘quvchilarni dasturlash, algoritmik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undaydi.

ISSN 3030-3907

Xakatonlar - bir necha kun davom etadigan musobaqalar bo‘lib, unda o‘quvchilar dasturiy loyihalarni ishlab chiqadilar, real muammolarni hal qiladilar va jamoalarda ishlaydilar.

Dasturlash olimpiadalari - ishtirokchilar murakkab algoritmik masalalarni tezlik va aniqlik bilan yechadigan musobaqalar.

Koding janglari - o‘quvchilar berilgan vazifalarni samarali va tez kod yozish bo‘yicha bellashadigan musobaqalar.

Vaqti cheklangan chellenjlar - "koddagi xatoni 5 daqiqada topish" yoki "cheklangan vaqt ichida algoritmni optimallashtirish" kabi yechimlarni tezda topishni talab qiladigan vazifalar.

Onlayn platformalardan foydalanish - Codeforces, LeetCode, TopCoder va HackerRank kabi xizmatlar masofaviy musobaqalarni tashkil etish va o‘quvchilarni doimiy amaliyotga undash imkonini beradi.

Ta’lim jarayoniga musobaqalarni kiritish nafaqat dasturlashga qiziqishni rag‘batlantiradi, balki o‘quvchilarda bosim ostida ishlash, strategik fikrlash va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Yutuqlar tizimi - o‘quvchilar vazifalarni bajarganliklari uchun ballar, nishonlar va darajalar oladigan shaxsiy kabinetlarni yaratish [10]. Bunday tizimni joriy etish o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish va ularning yutuqlarini yaqqol ko‘rsatish imkonini beradi.

Ballar va darajalar - o‘quvchilar topshiriqlarni bajargani, musobaqalarda qatnashgani va platformadagi faolligi uchun ball oladi. Ballar to‘planishi bilan ular yangi darajalarga ko‘tariladi, bu esa o‘qishni davom ettirish uchun motivatsiya yaratadi.

Nishon va mukofotlar - maxsus virtual mukofotlar murakkab vazifalarni hal qilish, kurslarni muvaffaqiyatli yakunlash yoki jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etish kabi muayyan yutuqlar uchun beriladi.

Liderbordlar - reyting jadvallari o‘quvchilarga sinfdoshlariga nisbatan o‘z yutuqlarini ko‘rish imkonini beradi, bu esa sog‘lom raqobat ruhini rag‘batlantiradi.

Shaxsiylashtirilgan topshiriqlar - yutuqlar darajasiga qarab, tizim o‘quvchilarga individual chellenjlar va qo‘shimcha o‘quv materiallarini taklif qilishi mumkin, bu esa moslashuvchan ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta’lim platformalari bilan integratsiya - yutuq tizimlarini Moodle, Google Classroom kabi onlayn kurslar va o‘quv muhitlariga yoki Codewars va LeetCode kabi ixtisoslashtirilgan dasturlash platformalariga joriy etish mumkin.

Ta’lim jarayoniga yutuqlar tizimini kiritish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, taraqqiyot hissini uyg‘otadi va doimiy rivojlanish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

4. Virtual kvestlar - sarguzasht shaklida tuzilgan topshiriqlar bo‘lib, unda o‘quvchilar oldinga siljish uchun muammolarni hal qilishlari kerak [11]. Bunday kvestlar mantiqiy masalalar ketma-ketligi, ma’lum algoritmlarni dasturlash yoki o‘quv mavzusi doirasida yechimlarni izlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, o‘quvchilarga virtual seyfni ochish uchun kodni buzish vazifasi yoki ma’lum bir ssenariyga ega o‘yinni ishlab chiqish taklif etilishi mumkin.

Syujet chiziqlari - kvestlar mavzuli hikoyalarga asoslanishi mumkin, bunda o‘quvchilar dasturlash yoki IT xavfsizligi bo‘yicha ma’lum vazifalarni hal qiluvchi qahramonlar rolini o‘ynaydilar.

Tarmoqlangan topshiriqlar - o‘quvchilar kvestdan o‘tishning turli yo‘llarini tanlashlari mumkin, bu esa ta’limni yanada shaxsiylashtirilgan va interaktiv qiladi.

Virtual muhitlardan foydalanish - Minecraft: Education Edition kabi platformalar o‘yin maydonida kvestlar yaratish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning dasturlash va mantiqiy fikrlashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Guruh kvestlari - topshiriqlarni jamoalarda bajarish hamkorlik va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Virtual kvestlarni joriy etish ta’lim jarayonini yanada dinamik qiladi, o‘quvchilarga olingan bilimlarni amalda qo‘llashga yordam beradi va informatika fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

5. O‘yin elementlari bilan loyihalash faoliyati - o‘quv kursi doirasida o‘z o‘yinlari va interaktiv ilovalarini yaratish [12]. O‘quvchilar dasturlash, algoritmlar va foydalanuvchi interfeysi dizayni bo‘yicha bilimlarini mustahkamlaydigan o‘yin loyihalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Scratch yoki Unity’da o‘yinlar ishlab chiqish - oddiy o‘yinlar yaratish orqali dasturlash va o‘yin dizayni asoslarini o‘rgatish.

Chatbotlar va interaktiv veb-ilovalarni yaratish - foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqada bo‘ladigan va aniq vazifalarni hal qiladigan loyihalarni ishlab chiqish.

Loyihalar ustida guruhli ishlash - har bir ishtirokchi ishning o‘z qismi, masalan, kod, grafika yoki sinov uchun mas’ul bo‘lgan jamoada o‘yinlar yaratish.

Tanlovlarda loyihalarni taqdim etish - o‘z o‘yinlari yoki ilovalarini auditoriya oldida himoya qilish, bu esa taqdimot va fikr-mulohazalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bunday yondashuv nafaqat texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni, ishni rejalashtirish va jamoada o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Geymifikatsiyadan muvaffaqiyatli foydalanish misollari

Minecraft: Education Edition - dasturlash, mantiq va matematika asoslarini o‘rganishga yordam beradigan mashhur o‘yinning ixtisoslashtirilgan versiyasi

ISSN 3030-3907

[13]. Minecraft’ning ushbu versiyasida o‘quvchilar blokli kod yoki Python yordamida mantiqiy masalalarni yechishlari, algoritmlar tuzishlari va hatto dasturlashlari mumkin. O‘rnatilgan ta’lim modullari o‘qituvchilarga fizika, muhandislik va biologiya kabi turli mavzularni qamrab olgan darslarni yaratish imkonini beradi. Minecraft: Education Edition’dagi guruh loyihalari jamoaviy ishlash va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, bolalarga bilimlarni tahlil qilish va amalda qo‘llashni o‘rgatadi. Interaktiv va qiziqarli format tufayli o‘quvchilar topshiriqlarni ishtiyoq bilan bajaradilar va o‘quv materialini yaxshiroq o‘zlashtiradilar.

CodeCombat - o‘quvchilar darajalarni o‘tish uchun Python yoki JavaScript’da kod yozadigan o‘yin [14]. CodeCombat rolli o‘yin va dasturlash elementlarini birlashtirib, o‘quvchilarga kod yordamida vazifalarni bajarish orqali qahramonlarni boshqarishni taklif etadi. O‘yin davomida o‘quvchilar sikllar, shartli ifodalar, funksiyalar va ma’lumotlar tuzilishi kabi dasturlashning asosiy tushunchalarini o‘rganadilar. Vazifalar tobora murakkablashib boradi, bu esa mantiqiy fikrlash va algoritmik ko‘nikmalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. CodeCombat, shuningdek, ko‘p o‘yinchi rejimini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa o‘quvchilarga musobaqalashish yoki jamoalarda ishlash imkonini beradi, bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Bundan tashqari, o‘yin o‘qituvchilarga o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish va ta’lim jarayonini har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish vositalarini taqdim etadi.

Kahoot - bilimlarni tekshirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan viktorinalar va testlar yaratish platformasi [15]. Kahoot! o‘qituvchilarga o‘quvchilar o‘z qurilmalari yordamida real vaqt rejimida savollarga javob beradigan interaktiv o‘quv o‘yinlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Viktorinalar har qanday mavzuga moslashtirilishi mumkin, bu esa ularni o‘qitishning universal vositasiga aylantiradi. Musobaqa elementi tufayli o‘quvchilar test sinovlarida katta qiziqish bilan qatnashib, maksimal ball to‘plashga intiladilar. Platforma natijalar tahlilini ham qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa o‘qituvchilarga o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va ta’limdagi bo‘shliqlarni aniqlashga yordam beradi. Kahoot! ham individual, ham jamoaviy o‘zaro ta’sir uchun ishlatilishi mumkin, bu esa hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quv jarayoniga jalb qilishni oshirishga yordam beradi.

Scratch - o‘quvchilarga o‘z o‘yinlari va animatsiyalarini yaratish imkonini beradigan vizual dasturlash muhitidir [16]. U boshlang‘ich dasturchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, blokli dasturlash yordamida algoritmik fikrlash asoslarini oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Ushbu muhitda o‘quvchilar kod yozish o‘rniga vizual buyruq bloklarini surish orqali interaktiv hikoyalar, o‘yinlar

ISSN 3030-3907

va multfilmlar yarata oladilar. Scratch ijodiy ko‘nikmalarni, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi hamda sikllar, shartlar va hodisalar kabi dasturlashning asosiy tamoyillarini tushunishga ko‘maklashadi. Bu platforma butun dunyo bo‘ylab ta’lim muassasalarida faol qo‘llanilmoqda va kichik hamda o‘rta yoshdagi bolalarga kodlash tushunchalarini qulay va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, Scratch o‘rnatilgan onlayn hamjamiyatga ega bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘z loyihalarini ulashishlari, fikr-mulohaza olishlari va boshqa ishtirokchilarning ishlaridan ilhomlanishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Informatika o‘qitishda geymifikatsiya fanni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladigan kuchli vositadir [3]. O‘yin mexanikasini joriy etish nafaqat o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, balki ularda dasturlash, mantiqiy fikrlash va jamoaviy ishlash kabi muhim ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi [4]. Geymifikatsiya o‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqmaydigan, aksincha amaliyotda o‘rganadigan interaktiv muhitni yaratishga yordam beradi, bu esa materialni chuqurroq o‘zlashtirishga olib keladi. Ta’limda zamonaviy o‘yin usullaridan foydalanish qiziqarli va samarali o‘quv jarayonini yaratish yo‘lidagi qadamdir [5]. Informatikani o‘qitishga o‘yin elementlarini kiritish nafaqat o‘quvchilarning faolligini oshiradi, balki ularda tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va ijodkorlik kabi yumshoq ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Shunday qilib, geymifikatsiya zamonaviy ta’lim muhitining muhim tarkibiy qismi va ta’lim sifatini oshirishning samarali usuli hisoblanadi [6].

Ta’limda zamonaviy o‘yin usullaridan foydalanish qiziqarli va samarali o‘quv jarayonini yaratish yo‘lidagi qadamdir [5]. Informatikani o‘qitishda o‘yin elementlarini kiritish nafaqat faollikni oshiradi, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va ijodkorlik kabi moslashuvchan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, geymifikatsiya zamonaviy ta’lim muhitining muhim tarkibiy qismi va ta’lim sifatini oshirishning samarali usuli hisoblanadi [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining "gamification". Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.
2. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences.
3. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education. Wiley.

ISSN 3030-3907

4. Zichermann, G., & Cunningham, C. (2011). Gamification by Design. O'Reilly Media.
5. Werbach, K., & Hunter, D. (2012). For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. Wharton Digital Press.
6. Sheldon, L. (2011). The Multiplayer Classroom: Designing Coursework as a Game. Cengage Learning.
7. Code.org: https://code.org
8. Scratch: https://scratch.mit.edu
9. Lightbot: https://lightbot.com
10. Codeforces: https://codeforces.com
11. LeetCode: https://leetcode.com
12. Minecraft: Education Edition: https://education.minecraft.net
13. CodeCombat: https://codecombat.com
14. Kahoot!: https://kahoot.com
15. TopCoder: https://www.topcoder.com
16. HackerRank: https://www.hackerrank.com

ISSN 3030-3907

KARYER EKSKAVTORLARIDA PO‘LAT ARQONIGA TA'SIR ETUVCHI KUCHLARNI UZGARISHINING NAZARIY TAHLILI

Elbekov Jasurbek Ulug‘bek o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Boltayev Muxammad Azamovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Umirzaqov O‘tamurod Toshtemir o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
E-mail: jasurelbekov98@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada respublikamiz konchilik sanoatini rivojlantirish yo‘nalishida texnik bazani yangilash, ilg‘or va yuqori unumli texnologiyalarni keng joriy etish masalalari atroflicha yoritilgan. Ochiq kon usulida qazib olish jarayonida ekskavatorlar tog‘ jinslarini ajratib olishda asosiy mexanizatsiya vositasi sifatida muhim o‘rin egallashi ta’kidlangan. Bundan tashqari, po‘lat arqonli va gidravlik turdagi ekskavatorlarning turli ko‘rinishlari hamda ularning asosiy texnik parametrlari solishtirma tarzda tahlil qilingan. Ilmiy izlanishlarda texnik darajani aniqlash mezonlari sifatida cho‘mich sig‘imiga nisbatan material sarfi va energiya tejamkorligi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqilgan. Olingan natijalar asosida kon ekskavatorlarining konstruktiv yechimlarini takomillashtirish hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: metall sarfi, ochiq usulda qazib olish, konchilik sanoati, gidravlik ekskavator, po‘lat sim arqonli ekskavator, cho‘mich hajmi, energiya samaradorligi.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются вопросы обновления технической базы и широкого внедрения передовых и высокоэффективных технологий в направлении развития горнодобывающей промышленности нашей республики. Подчеркивается, что экскаваторы играют важную роль в качестве основного механизированного инструмента в процессе открытой добычи горных пород. Кроме того, в сравнительном порядке анализируются различные типы стальных канатных и гидравлических экскаваторов и их основные технические параметры. В научных исследованиях в качестве основных факторов, определяющих технический уровень, рассматриваются расход материала и энергоэффективность по отношению к вместимости ковша. На основе полученных результатов сформулированы научные рекомендации по совершенствованию конструктивных решений горных экскаваторов и повышению их эффективности.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: потребление металла, открытая добыча полезных ископаемых, горнодобывающая промышленность, гидравлический экскаватор, экскаватор со стальным канатом, вместимость ковша, энергоэффективность.

Abstract. This article comprehensively covers the issues of updating the technical base and wide introduction of advanced and highly efficient technologies in the direction of developing the mining industry of our republic. It is emphasized that excavators play an important role as the main mechanization tool in the process of open-pit mining as a means of extracting rocks. In addition, various types of steel rope and hydraulic excavators and their main technical parameters are analyzed in a comparative manner. In scientific research, material consumption and energy efficiency in relation to the bucket capacity are considered as the main factors as criteria for determining the technical level. Based on the results obtained, scientific recommendations are formulated to improve the design solutions of mining excavators and increase their efficiency.

Keywords: metal consumption, open pit mining, mining industry, hydraulic excavator, steel wire rope excavator, bucket capacity, energy efficiency.

KIRISH.

Mamlakatimizdagi yirik konchilik korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlar, avvalo, mahsulot sifatini yaxshilash, uning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish hamda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini izchil ravishda kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu boisdan, konchilik tarmog‘i korxonalarida mavjud texnik bazani yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlariga alohida e’tibor berilmoqda. Ayniqsa yuqori unumdorlikka ega zamonaviy uskunalarni xarid qilish va amaliyotga joriy etish orqali texnika parkini bosqichma-bosqich takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Konchilik sanoatida qo‘llanilayotgan ekskavatorlar po‘lat arqoniga tushayotgan taranglik kuchini aniqlashning quyidagi funksiya yordamida aniqlaymiz:

$$F_{T=}f_2(\alpha; m; t; x; y; v_{0x}; v_{0y}; a_x; a_y; G_T; G_y; F_R)$$

Taranglik kuchini barabanga ta’sir etishini nazariy tahlili. Cho‘michga po‘lat arqonning ulanish nuqtasidan barabanga tegish nuqtasigacha bo‘lgan masofada taranglik o‘zgarishi quyidagicha:

$$S_H = \frac{F_T}{L^{fa} - 1}$$

Bu yerda L – po‘lat arqon uzunligi

a –qiyalik burchagi

S_H –barabanga tegish nuqtadagi po‘lat arqonning tarangligi

ISSN 3030-3907


Ekskavatordagi dastakni harakatga keltiruvchi po‘lat sim arqonlarning mavjudligini hisobga olib uning uzilish kuchi bilan birgalikda po‘lat sim arqondagi zo‘riqma quyidagicha aniqlanadi.

$$S_u = \frac{4.0 \cdot S_n}{a_d \cdot n_k \cdot i_n}$$

Bu yerda,

a_d -mexanizmdagi yuritmalar soni; $n_к$-po‘lat arqonlar soni; i_n -polistpastlar soni.

Ushbu 52.0 G-V-O-N-160 tipli po‘lat arqon uchun uzilish kuchi 15 % chegirma hisobiga $S_u = 1625$кN ni tashkil etadi. Bosh blokdan o‘tadigan po‘lat arqon similar uchun zo‘riqma mexanizmini hisoblash, aniq bitta ifoda orqali amalga oshiriladi. Ekskavator barabanlai ba po‘lat sim arqonlariga tuhsayotgan kuchlari to‘g‘ri tanlash va aniqlash orqali ularda yuzaga keladigan kamchilik hamda to‘xtalishlarni kamaytirishga erishilariga. Ekskavator po‘lat arqoni va barabanlariga tushayotgan kuchlar quyidagi 1-rasmda keltirilib o‘tilgan.



1-rasm. Ekskavator po‘lat arqoni va barabanlariga tushayotgan kuchlar.

Po‘lat arqonda vujudga keladigan taranglik kuchi yuqoridagi ifodalarni hisobga olgan holda quyidagi ko‘rinishda hosil bo‘ladi:

ISSN 3030-3907

$$\begin{cases}\sum F_x = F_N = S_H - F_{ISH} - G_T^1 \sin\alpha + R_{ax} \\ \sum F_y = 0 \qquad N + R_{Ay} - G_T^1 \cos\alpha = 0\end{cases}$$

$$\begin{cases}N = G\cos\alpha - R_{Ay} = m_T g\cos\alpha - R_{Ay} \\ F_N = S_H - \mu K N - m_T g\sin\alpha + R_{Ax}\end{cases}$$

$$F_N = \frac{F_T}{L^{f\alpha}} - \mu K N - G_T^1 \sin\alpha + R_{Ax}$$

$$= \frac{F_T}{L^{f\alpha} - 1} - \mu K\left(G_T^1 \cos\alpha - R_{Ay}\right) - G_T^1 \sin\alpha + R_{Ax}$$

$\mu = \frac{f}{K}$ ishqalanish koeffitsienti.

F_N-natijaviy kuchning vektorial yo‘nalishi baraban radiusiga tik ravishda (perpendikulyar) yo‘naladi.

$$M = F_N \frac{D}{2}$$

Barabanning tortuvchi momenti yuqoridagi formula orqaqli ifodalanadi

F_N– natijaviy kuch modeli

D – baraban diametri

Natijaviy kuch modelini tortuvchi moment orqali aniqlasak

$$M = \left(\frac{F_T}{L^{f\alpha} - 1} - \mu K\left(G_T^1 \cos\alpha - R_{Ay}\right) - G_T^1 \sin\alpha + R_{Ax}\right)\frac{D}{2}$$

$$M = \left(\frac{F_T}{L^{f\alpha} - 1} - G_T^1(\mu K\cos\alpha - \sin\alpha) - \mu K R_{Ay} + R_{Ax}\right)\frac{D}{2}$$

Barabanga o‘ralgan po‘lat arqon uzunligi kamayishi va oshishi mavjud bunday holda o‘ramalar soniga nisbatan uzunlik o‘zgarishi quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Delta L = (L \pm \Delta x) = (L \pm \pi D(n + \beta))$$

Bu yerda L - dastlabki uzunlik

"+" - ishora baraban cho‘michni ko‘tarish holati

"-" - ishora baraban cho‘michni tushurish holati

n – o‘ramalar soni

β – o‘ralish burchagi

Osma po‘lat arqonning og‘irligi quyidagicha o‘zgaradi

$$G_T^1 = m_T g = \rho_T V_T g = \rho_T S_T \Delta L g = \rho_T S_T\left(L \pm \pi D(n + \beta)\right)g$$

Po‘lat arqondagi taranglik o‘zgarishi uzunlik bo‘yicha quyidagicha hosil qilamiz:

$$S_H = \frac{F_T}{(L \pm \pi D(n + \beta))^{f\alpha} - 1}$$


ISSN 3030-3907

Barabanga ta’sir etuvchi natijaviy kuch va kuch yelkasining aylantiruvchi momenti o‘zgaruvchan ekanligi bois dinamik jarayonni matematik modellashtiramiz

$$M = F_N \frac{D}{2} = F_N h'$$

$$F_N \neq const$$

$$D \neq const$$



2-rasm. Barabanda yuzaga keladigan dinamik jarayon.

$h' = \left(\frac{D}{2} + \frac{D_P}{2}\right)$ -agar barabanga po‘lat arqon bir qator o‘ralgan holda

$h_1' = \left(\frac{D}{2} + \frac{D_P}{2}(1+m)\right)$ – agar barabanga po‘lat arqon bir necha qator o‘ralgan holda

$$D = h_1' = \left(\frac{D}{2} + \frac{D_P}{2}(1+m)\right)$$

Bu yerda h_1' - baraban va po‘lat arqon uzunligi yig‘indisi , m – po‘lat arqonning qavatlar soni barabanga o‘ralgani

D_P – po‘lat arqon diametri

$$h_1' \neq const; \quad m \in Z; \quad D = const; \quad D_P = const.$$

Barabanda qavatlar soni yon tomonga po‘lat arqonning o‘ralishlar soniga bog‘liq.

$$L = D_P N$$

$$h_1' = D_P m$$

$$N \in Z; \qquad h_1' \neq const; \qquad L \neq const;$$

Barabanga o‘ralgan po‘lat arqonning o‘ramlar soni o‘sishi va kamayishi reduktorga beriladigan aylanish momentini o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘zgarish quvvat o‘zgarishini bir xil qiymatda emasligiga sababchi bo‘ladi.

$$M = F_N h_1' = F_N \left(\frac{D}{2} + \frac{D_P}{2}(1+m)\right)$$

ISSN 3030-3907

$$h_1^1 \neq 0; \qquad F_N \neq 0 => \quad M \neq 0;$$

$$F_N = \frac{F_T}{\left(\left(L \pm \pi D(n+\beta)\right)^{f\alpha} - 1\right)}$$

$$- \rho_T S_T \left(\left(L \pm \pi D(n+\beta)\right) g(\mu K \cos\alpha - \sin\alpha) - \mu K R_{Ay} + R_{Ax}\right)\frac{D}{2}$$

Yuqoridagi natijaviy kuch vaqt o‘tishi bilan po‘lat arqondagi taranglik kuchi natijasida o‘zgarib turadi

$$F_N = \frac{\sin\alpha\, m\left(\frac{1}{t}\left(\frac{2y}{t} + v_{0y}\right)\right) + G_T + G_R + \rho_T V_k g K + G_{ch}}{\left(\left(L \pm \pi D(n+\beta)\right)^{f\alpha} - 1\right)}$$

$$+ \frac{R(a_y t + v_{0y})^2 + \cos\alpha\,(m\left(\frac{1}{t}\left(\frac{2x}{t} + v_{0y}\right)\right) + F_R - R\left(a_x t + v_{0y}^2\right))}{\left(\left(L \pm \pi D(n+\beta)\right)^{f\alpha} - 1\right)}$$

$$- \rho_T S_T\left(\left(L \pm \pi D(n+\beta)\right) g(\mu K \cos\alpha - \sin\alpha) - MKR_{Ay} + R_{Ax}\right)$$

$$F_N \in Z/\ \{0\}$$

$$h_1' \in Z/\ \{0\} \qquad h_1' > 0$$

Yuqoridagi parametrlar aylantiruvchi momentni vaqt oralig‘ida turlicha o‘zgartirish holati mavjud bo‘ladi

$$\mathrm{M} \in Z/\ \{0\}$$

Reduktordagi quvvatning moment orqali o‘zgarishi quyidagi formula orqali topamiz

$$N_R = \frac{M\omega_n}{\eta}$$

Bu yerda ω_n – reduktorning chiquvchi validagi burchak tezligi

η - reduktorning foydali ish koeffitsienti

Reduktorning burchak tezligi kiruvchi va chiquvchi burchak tezligiga bog‘liq bo‘lib, uzatmalar nisbatiga bog‘liq holda o‘zgaradi.

$$i = \frac{Z_n}{Z_1} = \frac{\omega_n}{\omega_1} = \frac{\eta_n}{\eta_1}$$

$$\omega_n = \omega_1 \frac{Z_n}{Z_1};$$

Bu yerda ω_1 – elektrodvigateldan kelayotgan valdagi burchak tezligi

Z_n – chiquvchi tishli uzatmadagi tishlar soni

Z_1 – kiruvchi uzatmadagi tishlar soni

ISSN 3030-3907

$$N_R = \frac{M\omega_n}{\eta_R\eta_D} = \frac{M\omega_1\frac{Z_n}{Z_1}}{\eta_R\eta_D} = \frac{M\omega_1 Z_n}{\eta_R\eta_D Z_1}$$

Reduktorga zarur bo‘lgan quvvat formulasi

$$N_R > 0 \qquad N_R \in Z;$$

$$N_R = f_3(M, \omega_\eta, \omega_1, Z_n, Z_1, \eta_R, \eta_D)$$

$$M = f_4(F_N, h_1')$$

$$F_N = f_5(F_T)$$

$$F_T = f_6(D, D_P, S_T, n, m, \mu, f, \alpha)$$

Reduktorda hosil bo‘lishi shart (eng minimal quvvat) yuqoridagi grafik asosida burovchi momentga bog‘liq ravishda o‘zgarishi tahlili qilinadi.

Quvvatning aylantiruvchi momentga bog‘liqligi aylantiruvchi momentning natjaviy kuchning baraban geometriyasiga bog‘liqligi quyidagicha.

Natijaviy matematik model.

$$N_R = \frac{M\omega_n}{\eta_R\eta_D} = \frac{M\omega_1\frac{Z_n}{Z_1}}{\eta_R\eta_D} = \frac{M\omega_1 Z_n}{\eta_R\eta_D Z_1} = \frac{F_N h_1'\omega_1 Z_n}{\eta_R\eta_D Z_1} = \frac{\omega_1 Z_n}{\eta_R\eta_D Z_1}$$

$$= \left(\frac{\sin\alpha * m\left(\frac{1}{t}\left(\frac{2y}{t} + v_{0y}\right)\right) + G_T + G_R + G_{ch} + \rho_T V_k g K + R\left(a_y t + v_{0y}\right)^2 + \cos\alpha\, m \left(\right.}{(L \pm \pi D(n+\beta)^{f\alpha} - 1)} \right.$$

$$+ \frac{F_R - R(a_x t + v_{0y}^2)}{(L \pm \pi D(n+\beta)^{f\alpha} - 1)}\, \rho_T S_T \left(\left(L \pm \pi D(n+\beta)\right) g(\mu K \cos\alpha - \sin\alpha) \right.$$

$$\left. \left. - \mu K R_{Ay} + R_{Ax} \right) \left(\frac{D}{2} + \frac{D_P}{2}(1+m) \right) \right)$$

Barabanni harakatga keltiruvchi quvvatni aniqlash uchun mexanik jarayondagi cho‘michning tog‘ jinsiga urilish vaqtidan bo‘shatish vaqtigacha bo‘lgan holatda quvvat o‘zgarishi uning minimal va maksimal qiymatlarini barabanda hosil bo‘luvchi po‘lat arqonning tarangligi va geometriyasiga nisbatan o‘zgarishini inobatga oluvchi matematik model tuzildi.

Po‘lat arqon diametriga bog‘liq ravishda reduktorga kerakli quvvatning minimal va maksimal oraliq yechimlari tahlil qilindi.

$$S_T \neq const, \quad S_T \in Z; \quad Z > 0;$$

$$N_R = f(S_T D_T)$$

ULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada po‘lat sim arqonli ekskavatorlar faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi kuchlar taqsimoti nazariy jihatdan ko‘rib chiqilib, cho‘mich, arqon hamda baraban tizimida sodir bo‘ladigan dinamik holatlar matematik

ISSN 3030-3907

modellashtirish orqali tadqiq etilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, qazish jarayonida cho‘michga ta’sir etuvchi qarshilik kuchlari, yuk massasi, arqon tortilishi hamda ekskavator ishchi qismlarining geometrik o‘lchamlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘zgarib boradi.

Nazariy tahlillar asosida aniqlanishicha, arqondagi tortilish kuchi qazish jarayonining kinematik va dinamik ko‘rsatkichlariga, xususan, cho‘michning harakat tezligi, tezlanishi, qazib olinayotgan tog‘ jinsining zichligi va cho‘mich sig‘imiga qarab o‘zgaradi. Shu bilan birga, arqon uzunligi, baraban diametri hamda o‘ramlar sonining o‘zgarishi barabanga ta’sir qiluvchi umumiy kuch va aylantiruvchi moment miqdorlarining o‘zgarishiga olib kelishi ham asoslab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Атакулов Л.Н, Ҳайдаров Ш.Б. Ekskavator cho‘michni ko‘taruvchi mexanizmga ta’sir etuvchi omillar « Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot » nomli № 03-sonli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi 5-10 betlar
2. Буянкин П.В. Обеспечение устойчивости поворотных платформ экскаваторов – мехлопат. Дис. раб. Керерово -2015 год.
3. Насосов М.Ю. Оценка долговечности несущих металлоконструкций одноковшовых экскаваторов при разработке взорванных горных пород: автореф.– Кемерово, 2009 год.
4. Павлов В.П. Методология эффективного проектирования одноковшовых экскаваторов: автореф. дис. докт. техн. наук. – Москва, 2008 год.
5. Подэрни Р.Ю. Сравнительный анализ гидравлических и механических экскаваторов с прямой лопатой // Р.Ю.Подэрни, П.Булес // Горный журнал. 2015. № 1.

ISSN 3030-3907

TALABALARNING MAXSUS FANLARDAN IJODIY QOBILIYATLARINI FAOLLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA FIKRLASH MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.

Djalolova Dilafruz Fattoxovna
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti
Tel. 94.128-24-42
E-mail: djalolova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tadqiqotchilar va o‘zbek olimlarimizning fikrlari, jumladan ijodiy ish, ijodiy fikrlash qobiliyati, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat, ijodkorlik sifatlari, kritik fikrlashlar tahlili, “O‘quv topshirig‘i”, “Ijodiy topshiriq” yoki “Masala” tushunchalari, talabalarning bilim olish va o‘rganish faoliyatining darajalari haqida fikrlar tahlili berilgan. Ijodiy ishlash uchun o‘quv topshiriqlarning qoidalari, talabalarning ijodiy fikrlash mahoratlarining darajalari hamda bo‘lajak dizaynerlar, rassom-modelerlar, loyihachilar, texnologlarning texnik ijodkorligini rivojlantirish bosqichlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy yondashuv, texnologiya, mafkura, individual, ensiklopediya, diktator, ob’ekt, psixologik, sub’ekt, kategoriya, intellekt.

Аннотация. В данной статье представлен анализ взглядов зарубежных исследователей и наших узбекских ученых, включая вопросы творческой работы, способности к творческому мышлению, самостоятельного мышления, творческой деятельности, творческих качеств, анализа критического мышления, понятий «учебное задание», «творческое задание» или «проблема», а также уровней усвоения знаний и учебной деятельности студентов. Описаны правила учебных заданий для творческой работы, уровни развития у студентов навыков творческого мышления и этапы развития технического творчества будущих дизайнеров, модельеров, проектировщиков и технологов.

Ключевые слова: творческий подход, технология, идеология, личность, энциклопедия, диктатор, объект, психологический, субъект, категория, интеллект.

Abstract. This article presents an analysis of the views of international researchers and Uzbek scholars, including issues of creative work, creative thinking ability, independent thinking, creative activity, creative qualities, critical thinking analysis, the concepts of "learning assignment," "creative task," or "problem," as well as the levels of knowledge acquisition and student learning. It describes the rules for creative work assignments, the levels of development of students' creative thinking skills, and the stages of technical creativity development in future designers, fashion designers, planners, and technologists.

ISSN 3030-3907

Keywords: creativity, technology, ideology, personality, encyclopedia, dictator, object, psychological, subject, category, intelligence.

KIRISH.

Hozirgi davrga kelib iqtisodiyotimizning barcha jabhalaridagi kabi ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar ham o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ta'lim tizimida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Malakali va madaniyatli, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash bo'yicha muhim ahamiyatga ega molik ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy ta'lim sharoitida mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirish bilan bir qatorda ularda bilimlarni mustaqil egallash, kelajakda muammoni mustaqil ravishda hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlari ham shakllanishi kerak. Ushbu xususiyatlarni shakllantirishda talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv biluv faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz SH.Mirziyoev o'zining "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli ma'ruzasida, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb alohida ta'kidlab o'tganliklari ham bejiz emas [1].

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, o'qituvchining bosh vazifasi talabalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini hosil qilishdan iborat ekanligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski amalda-tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Shuning uchun ham bugungi kunda talabalarning o'quv-biluv faoliyatlarini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi faol ta'lim usullarini o'quv jarayoniga joriy etish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Talabalarni ijodiy yondashgan holda muammolarni yechimini izlash, topish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faol ta'lim usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Oliy ta'limning ikki bosqichli bo'lishi ta'lim-tarbiya mazmunini o'zgartirdi va dunyoga yangicha qaraydigan, tashabbuskor va bilimli, mustaqil va erkin fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni asosiy vazifa qilib qo'ydi. Bunday yuksak vazifani o'qitishning ta'limning an'anaviy texnologiyasi orqali amalga oshirib bo'lmasligi ko'rinib qoldi. Endi talabaning shaxsiy qobiliyatlar va fazilatlarini shakllantirish, mustaqil ishlash va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy o'qitish texnologiyalari va faol metodlarni

ISSN 3030-3907

ishlab chiqish, tanlash hamda ta’lim jarayoniga qo‘llash zaruriy holga aylandi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, “uning asosini ta’lim sohasini o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, ilm-fan, texnika va texnologiyalar jadal rivojlanishi yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan milliy texnologiyasini yaratish tashkil etadi. Hozirgi paytda ta’lim va tarbiya jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash borasida nazariy va amaliy ahamiyatga molik ishlar olib borilmoqda. Bunday ta’lim sharoitida o‘qituvchi tomonidan berilgan asosiy tayanch bilim va ma’lumotlarga tayanib, talaba kerakli o‘quv materialini mustaqil izlash, topish va uni o‘zlashtirish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga e’tibor qaratish juda muhim hisoblanadi. Agar talabada ushbu xususiyatlar shakllantirilmasa shaxs imkoniyatlari ro‘yobga chiqmay qoladi. Bu imkoniyatlarni faqat shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash orqali ro‘yobga chiqarish mumkin. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, an’anaviy o‘qitish texnologiyalaridan farqli ravishda shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv materialini to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilmaydi, balki o‘quv materiali mazmunidagi mantiqni va haqiqatni izlab topishga yo‘naltiriladi. Bu esa u “o‘qituvchi-topshiriq-talaba” tizimidagi faoliyat yuritishni talab etadi. Masalan, pedagog muammoli vaziyat orqali topshiriq qo‘yadi, talaba esa uni mustaqil tarzda yechishga harakat qiladi. Bu zamonaviy o‘qitish texnologiyasiga xos xususiyatlaridan biridir.

Ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari, metodlari, vositalari ilm-fan texnika va texnologiyalar taraqqiyotni o‘zida aks ettirish, har bir talabaning mavjud imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilishi va o‘quv materialini egallashga qiziqish uyg‘otish, uning mustaqil bilim olishga havasini orttirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Mustaqil bilim olishga havas uyg‘otish orqali talabada onglilik, o‘rganishga qiziqish va intilishni orttirish mumkin. Bu esa talabada o‘rganayotgan bilimlarning nafaqat bugungi holatini bilishga intilish, balki uning kelajakdagi taraqqiyotni ham o‘rganib borishga ehtiyoj sezadi. O‘quv materiali esa chuqur va mukammal tarzda asosli egallanadi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini va faol metodlarni qo‘llash bilan bir qatorda talabaning ma’naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bo‘lajak kichik mutaxassisda – ma’naviy va axloqiy xususiyatlarni tarbiyalash – milliy tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tarbiyalash – bu jamiyat talablaridan kelib chiqib, bolada u yoki bu ijobiy, shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish uchun ko‘rsatiladigan ta’sirdir.

ISSN 3030-3907

Xorijiy tadqiqotchilar fikricha, talabalarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, individual va guruhiy ishlari, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va darsdan tashqari ta’lim olish imkoniyatlarini ham yaratish, oliy ta’limi muassasalarining asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.

Fransuz olimi K. Allegr ta’kidlaganidek, talabalarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, ularning individual va guruhiy ishlarini, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham kasb-hunar o‘quv yurtlarining asosiy vazifasidir.

U.Sodiqov fikricha, zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlash uchun faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, talabalarga har bir masalaga ijodiy yondashishni o‘rgatish kerak. Talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularning qiziqishi, havaskorligi bilan bog‘liq.

Ta’limga ijodiy yondashuv – shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni to‘la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Ijodiy ish - muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Ijodiy faollik deganda hodisalar, jarayonlar, ob’ektlar ahamiyatini tushungan holda, qiyinchiliklarni yoki muammoni yengishga intilish tushuniladi. Ya’ni shaxsning kasbiy faoliyati bo‘yicha yangi yechimlarni izlash va topish hamda natijalaridan qoniqish tushuniladi.

Ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirish – bosqichma- bosqich hal qilinadigan muammodir. Shaxs faolligi turli, ya’ni o‘quv ilmiy ishlab chiqarish, ijodiy faoliyatlar ta’sirida shakllanadi va rivojlantiriladi.

Psixolog olim S.L.Rubinshteynning fikricha, ijodiy faoliyat jarayonida kishida asta-sekin ishning qaysi joyini, nimani o‘zgartirish, yaxshilash, takomillashtirish masalasini o‘ylash tamoyili vujudga keladi. Natijada mavjud bilimlarni taqqoslash, kuzatish va ijod jarayonida kelib chiqadigan vazifalarga muvofiqlashtirish, mo‘ljallangan echim umumiy tuzilishini fikran tasavvur etish zarurati tug‘iladi.

Bu esa, o‘z navbatida, xayolning inson miyasining faol ishlashi bilan topilgan echimlarni hisoblashlarda, chizmalarda, eskizlarni yaratishda, bu-yumlarni bezash va hokazolarda aniq ifodalashni talab qiladigan o‘ziga xos aqliy ish bilan bog‘liqdir. Ijodiy mehnat jarayonida faqat qandaydir buyum yoki yangi narsa yaratilib qolinmay, balki shaxsning o‘zi kiritgan original xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ijodiy faoliyat, ijodkorlik sifatlari va shaxs xislatlarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.Barcha sohada ijod ish natijasining farqli belgilari, uning yangiligi va ijtimoiy ahamiyatga molikligidir. Pedagogik ensiklopediyada talabalarning texnik ijodkorligi foydali va muhim yangilik belgilariga ega bo‘lgan texnik ob’ektlar yaratiladigan faoliyat turidir», deb ta’riflanadi.

ISSN 3030-3907

Texnik ijodkorlikka individual yondashish ta’limning eng muhim prinsiplaridan birini amalga oshirish, yuqori darajadagi qiyin ijodiy faoliyatga doir qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Binobarin, ana shunday yondashishda talabaning ma’naviy kuchi namoyon bo‘ladi, mustaqil ijodiy ishda qatnashadigan barcha talabalarning, shu jumladan, eng bo‘sh talabalarning ham bilim ham hunarni puxta egallashi uchun haqiqiy sharoit vujudga keladi. Talabaning kelajakda butun mehnat faoliyati davomida kasbiy mahoratini o‘zi oshirib borishga, mustaqil va ijodiy yondashgan holda muammolarni yechishga o‘rgatishdan iborat bo‘lishi kerak.

Muassasalarida ta’lim - tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bitiruvchilarning ijtimoiy va kasbiy malakalarining shakllanishi kabi jihatlar inobatga olinishi kerak. Agar hozirgi ta’limni tahlil qiladigan bo‘lsak bugungi kunda o‘qituvchining vazifasida an’anaviy qarash hali ham mavjud. Odatda o‘qituvchining vazifasi talabalarga muayyan fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini berish deb tushuniladi. Bunday qarashga asosan talabaga bilimni “qachon” va “qanday” qilib berish bo‘yicha o‘qituvchi qaror qabul qiladi va auditoriyada kechadigan barcha jarayonlarning yagona diktatori hisoblanadi. O‘qituvchi ta’lim jarayonini tasdiqlangan o‘quv rejasiga muvofiqligini ta’minlash maqsadidagi auditoriyada kechadigan jarayonlarni nazorat qila olishi mumkin va lozim. Ammo o‘qituvchi talabalarning xayollari va qalblarida kechadigan jarayonlarni nazorat qila olmaydi. Shunday ekan yuksak madaniyatli va mustaqil fikrlaydigan kichik mutaxassisni tayyorlashda oila va ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega. Agar oiladagi tarbiyaga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, oila bu farzandlarimizni oqilona, to‘g‘ri voyaga etkazib, tarbiyalash uchun eng katta imkoniyatlarga ega maskandir. Lekin bu imkoniyatlar hamma vaqt ham to‘liq amalga oshirilmaydi. Avvalambor har bir ota-ona o‘z farzandini har tomonlama yaxshi bilishi, o‘z bolasini to‘g‘ri tarbiyalashi lozim.

Ta’lim jarayonini qanday tashkil etilishidan qat’iy nazar, eng muhimi talabalarni axborotlarni qabul qilishga tayyorlash yoki idrok etishlari uchun shart-sharoit yaratish va diqqat-e’tiborlarini o‘quv materialiga tortish zarur bo‘ladi. Talabalarning mustaqil fikrlashi va aqliy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish ta’lim jarayonini faollashtirish orqali ta’minlanadi. Talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida mamlakatimiz ta’lim tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblansada, o‘zbek milliy pedagogikasi tarixida ham inson tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. Masalan quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

ISSN 3030-3907

Tadqiqotchilar mashg‘ulotda talabalar ijodiy, tanqidiy fikrlashni o‘stirish uch fazada amalga oshirilishini ta’kidlaydilar [13] :

- Talabalardagi mavjud bilimlarni faollashtirish.
- Yangi axborotlar mazmunini anglab olish fazasi.
- O‘quv materiallarini muhokama qilish ruhiy holat va jarayonlarning ichki bog‘lanishlarini anglab etib o‘zining shaxsiy xislatlariga va sifatlariga aylanishidir Yana shuni ta’kidlash joizki talabalardan mustaqil fikrlay olish qobiliyatini shakllantirish orqali ularning aqliy layoqati ya’ni aqliy faoliyat ko‘rsatishni rivojlantirishga erishiladi.

Shaxsning fikrlashi, ya’ni aqliy faoliyat ko‘rsatishi, birinchidan, tashqi ta’sir natijasida o‘qituvchining ta’lim jarayonida qo‘llaydigan shakl, metod va vositalar orqali amalga oshirilsa, ikkinchidan, shaxsning o‘z intilishi, xohish va istagi hamda ehtiyojini qondirish yo‘lidagi hatti-harakatlari orqali yuzaga chiqadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ta’lim-tarbiya ishida talabalarning bilim olish va o‘rganish faoliyatini faollashtirish o‘qituvchi ishining mahsulidir.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, balki bu jarayonda talabaga ta’sir ko‘rsatadi, talabalarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, ularda mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stiradi va shu tariqa o‘rganilayotgan narsaning ongli ravishda o‘zlashtirib olinishiga erishiladi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o‘qituvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Dastur mualliflarining ta’kidlashlaricha, «kritik» so‘zi aslo o‘zbek tilidagi «tanqid» ma’nosini anglatmaydi, balki uni «kritik holat», «kritik temperatura», «kritik nuqta» tushunchalari ma’nosi bilan aniqlashtirish zarur. O‘z o‘rnida shuni ham ta’kidlash lozimki, ba’zi adabiyotlarda «kritik» so‘zini «tanqid» ma’nosida ishlatib, xatolikka yo‘l qo‘yilmoqda.

Kritik fikrlash, biror muammoni hal qilishda miya yarim sharlarining eng faol, yuqori-chegaraviy faoliyatini anglatadi. Bu chegara muammoning oson yoki qiyinligiga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Hatto, biror jamoada kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham, guruh a’zolari bunday fikrlashga o‘rgatishning asoslari to‘g‘risida mukammal bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur.

Kritik fikrlash insonni eng faol fikrlashga undaydi. Shuning uchun, jahon ta’lim tizimida ham talabalarning kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar kritik fikrlashning yuqorida qayd qilingan asoslari “o‘qituvchiga shunday sharoitlar yaratadiki, ularning miqyosida u quyidagilarni uddalaydi”, deb hisoblaydilar:

- talabalarning fikrlashini faollashtiradi;

ISSN 3030-3907

- talabalar maqsadini ajratadi;
- faol munozaraga imkon yaratadi;
- mustaqil o‘qish imkoniyatini oshiradi;
- faol o‘quv faoliyatini ta’minlaydi;
- o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi;
- talabalarga turlicha fikrlashni eshitishlari uchun imkon beradi;
- savolga javob berishda talabalarga yordamlashadi;
- o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi;
- talabalar tomonidan axborotni-qayta ishlanishini ta’minlaydi;
- kritik fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Mazkur tadqiqot ishida GTL (Gas-to-Liquids) sintetik suyuq yoqilg‘ilarining fizik-kimyoviy xossalari va ularning tashish hamda saqlash jarayonlarida yuzaga keladigan yo‘qotilishlarga ta’siri kompleks eksperimental va tahliliy usullar asosida o‘rganildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Tadqiqot ob’ekti va namuna tayyorlash. Tadqiqot ob’ekti sifatida Fischer–Tropsch sintezi asosida olingan GTL sintetik yoqilg‘ilar tanlab olindi. Namunalar laboratoriya sharoitida germetik yopiq idishlarda saqlandi va tashqi muhit ta’siridan himoyalandi. Tahlil jarayonida yoqilg‘ining bir xil tarkibli bo‘lishini ta’minlash maqsadida namunalar oldindan filtratsiya qilindi va standart sharoitlarda (harorat: 20±2 °C) konditsiyalandi.

Fizik-kimyoviy xossalarni aniqlash usullari. GTL yoqilg‘ilarining asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari quyidagi standart metodlar asosida aniqlandi:

Zichlik – ASTM D4052 standarti bo‘yicha raqamli densimetr yordamida aniqlanib, yoqilg‘ining hajmiy xususiyatlari baholandi.

Qovushqoqlik (kinematik) – ASTM D445 usuli asosida kapillyar viskozimetr yordamida o‘lchandi.

ISSN 3030-3907

Bug‘lanish xossalari – ASTM D86 distillatsiya metodi orqali aniqlanib, yoqilg‘ining fraksion tarkibi tahlil qilindi.

Mazkur ko‘rsatkichlar yoqilg‘ining tashish va saqlash jarayonlaridagi barqarorligini baholashda asosiy parametrlar sifatida qabul qilindi.

Yo‘qotilishlarni aniqlash usullari. Yoqilg‘ining tashish va saqlash jarayonidagi yo‘qotilishlari laboratoriya sharoitida modellashtirildi va quyidagi usullar orqali aniqlandi:

Bug‘lanish yo‘qotilishi – ochiq va yarim yopiq tizimlarda massaning kamayishi orqali gravimetrik usul yordamida aniqlandi.

Harorat ta’siri – 20 °C, 40 °C va 60 °C haroratlarda saqlash orqali bug‘lanish intensivligi o‘rganildi.

Vaqt omili – 24, 72 va 168 soat davomida yoqilg‘i massasi o‘zgarishi monitoring qilindi.

Idish materiali ta’siri – metall va polimer idishlarda saqlash orqali yo‘qotilish farqlari tahlil qilindi.

Yo‘qotilish miqdori quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$W = \frac{m_0 - m_t}{m_0} \cdot 100\%$$

bu yerda: m_0 – boshlang‘ich massa, m_t – ma’lum vaqt o‘tganidan keyingi massa.

Olingan eksperimental ma’lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha qiymatlar va standart og‘ishlar hisoblandi. Har bir tajriba kamida uch marotaba takrorlanib, natijalarning ishonchliligi ta’minlandi. Grafik va diagrammalar yordamida fizik-kimyoviy xossalar bilan yo‘qotilishlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI va MUHOKAMA.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, GTL yoqilg‘ilarining fizik-kimyoviy xossalari sezilarli farqlarga ega ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

GTL yoqilg‘ilarining fizik-kimyoviy xususiyatlari

Ko‘rsatkichlar	GTL benzini	GTL dizel yoqilg‘isi	GTL kerosin
Uglerod raqami	$C_4 \div C_{12}$	$C_9 \div C_{16}$	$C_8 \div C_{16}$
Qaynash oralig‘i (°C)	35÷220	180÷380	150÷325
20 °C da zichlik (g/sm³)	0,720÷0,775	<0,876	0,780÷0,820
40 °C da qovushqoqlik (mm^2/s)	0,3	1,9÷4,1	1,5÷2,5
Chaqnash nuqtasi (°C)	-40 ÷ -48	52÷96	38÷65
*Reid bug‘ bosimi (RVP, Kpa)	45÷103	-	-

ISSN 3030-3907

**Reid bug‘ bosimi – yoqilg‘ining standart sharoitdagi bug‘ bosimini ifodalovchi ko‘rsatkich*

Eksperimental natijalar harorat oshishi bilan yo‘qotilish darajasi ortishini ko‘rsatdi (2-jadval). Vaqt omili ham muhim bo‘lib, uzoq muddatda yo‘qotilishlar sezilarli ortdi.

2-jadval

Harorat va vaqtga bog‘liq yo‘qotilishlar

Harorat (°C)	Bug‘lanish yo‘qotilishi (% hisobida)		
	24 soat	72 soat	168 soat
20 °C	0,8	1,9	3,5
40 °C	1,6	3,8	7,2
60 °C	3,1	7,5	13,8

Ochiq tizimlarda yo‘qotilishlar yarim yopiq tizimlarga nisbatan 2 baravar yuqori ekanligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Tizim turiga bog‘liq yo‘qotilishlar

Tizim turi	Bug‘lanish yo‘qotilishi (% hisobida)		
	24 soat	72 soat	168 soat
Ochiq tizim	3,1	7,5	13,8
Yarim yopiq	1,6	3,8	7,2

Mazkur tadqiqotda GTL sintetik suyuq yoqilg‘ilarining fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilinib, ularning tashish va saqlash jarayonlarida yuzaga keladigan yo‘qotilishlarga ta’siri baholandi. Olingan natijalar GTL yoqilg‘ilarining fraksion tarkibi, zichligi, qovushqoqligi va uchuvchanlik darajasi yo‘qotilish jarayonlarida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi.

1-jadval tadqiqot natijalariga ko‘ra, GTL yoqilg‘ilari turli uglerod zanjiri uzunligiga ega bo‘lib, GTL benzini uchun C_4–C_{12}, dizel fraksiyasi uchun C_9–C_{16} va kerosin uchun C_8–C_{16} oralig‘ida ekanligi aniqlandi. Qaynash oralig‘i mos ravishda 35–220 °C (benzin), 180–380 °C (dizel) va 150–325 °C (kerosin) ni tashkil etdi.

Past qaynash haroratiga ega bo‘lgan GTL benzini yuqori uchuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, tashish va saqlash jarayonida bug‘lanish orqali yo‘qotilish ehtimoli yuqori ekanligi kuzatildi. Aksincha, GTL dizel va kerosin fraksiyalarida yuqori qaynash oralig‘i sababli bug‘lanish yo‘qotilishlari nisbatan past darajada bo‘ldi.

20 °C da zichlik ko‘rsatkichlari GTL benzini uchun 0,720–0,775 g/sm³, dizel uchun <0,876 g/sm³ va kerosin uchun 0,780–0,820 g/sm³ oralig‘ida aniqlandi. Past zichlikka ega GTL yoqilg‘ilarida hajmiy kengayish va bug‘lanish tezligi yuqori bo‘lishi kuzatildi. Bu holat ayniqsa GTL benzini uchun muhim bo‘lib, uning past

ISSN 3030-3907

zichligi tashish vaqtida hajmiy yo‘qotilishlarga olib kelishi mumkin. Dizel fraksiyasida esa zichlik nisbatan yuqori bo‘lgani sababli yo‘qotilishlar kamroq kuzatildi.

40 °C da kinematik qovushqoqlik GTL benzini uchun 0,3 mm²/s, dizel uchun 1,9–4,1 mm²/s va kerosin uchun 1,5–2,5 mm²/s ni tashkil etdi. Past qovushqoqlikka ega yoqilg‘ilar (ayniqsa GTL benzini) yuqori oqimchanlik va tez bug‘lanish xususiyatiga ega bo‘lib, bu ularning saqlash jarayonida yo‘qotilish darajasini oshiradi.

Dizel yoqilg‘isida qovushqoqlikning yuqoriroq bo‘lishi uning bug‘lanishga nisbatan chidamliligini oshiradi va yo‘qotilishlarni kamaytiradi.

Chaqnash harorati nuqtasi GTL benzini uchun –40 dan –48 °C gacha bo‘lib, bu uning juda tez alangalanishini ko‘rsatadi. Bu esa nafaqat bug‘lanish yo‘qotilishlarini oshiradi, balki tashish va saqlash jarayonlarida xavfsizlik talablarini kuchaytirishni ham talab qiladi.

GTL dizel va kerosin uchun chaqnash nuqtasi mos ravishda 52–96 °C va 38–65 °C bo‘lib, bu ularning barqarorligini oshiradi va yo‘qotilishlar darajasini kamaytiradi.

Reid bug‘ bosimi GTL benzini uchun 45–103 kPa oralig‘ida bo‘lib, bu uning yuqori uchuvchanligini tasdiqlaydi. Yuqori bug‘ bosimi saqlash vaqtida bug‘lanish yo‘qotilishlarini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, yoqilg‘ining bug‘lanish orqali yo‘qotilish darajasi harorat ortishi bilan keskin oshadi. Xususan, 20 °C da maksimal yo‘qotilish 3,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 60 °C da bu ko‘rsatkich 13,8 % gacha yetdi. Bu esa bug‘lanish jarayoni haroratga eksponensial bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, GTL yoqilg‘ilarining fizik-kimyoviy xossalari ularning tashish va saqlash jarayonlarida yuzaga keladigan yo‘qotilishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi (4-jadval).

4-jadval

GTL yoqilg‘ilarining fizik-kimyoviy xossalari va yo‘qotilishlarga ta’siri

Fizik-kimyoviy xossasi	Xossaning tavsifi	Yo‘qotilish turi	Ta’sir mexanizmi
Qaynash harorati	Past	Bug‘lanish yo‘qotilishi	Past haroratda tez bug‘lanadi
Zichlik	Past	Hajmiy yo‘qotilish	Hajm kengayishi va massaning kamayishi

ISSN 3030-3907

Qovushqoqlik	Past	Bug‘lanish yo‘qotilishi	Molekulalar tez harakatlanadi va bug‘lanadi
Bug‘ bosimi (RVP)	Yuqori	Uchuvchanlik yo‘qotilishi	Tez gaz fazaga o‘tadi

Natijada, GTL benzini eng yuqori yo‘qotilish xavfiga ega bo‘lgan fraksiya sifatida baholandi, dizel va kerosin esa nisbatan barqaror yoqilg‘ilar hisoblanadi.

4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, GTL yoqilg‘ilarining asosiy fizik-kimyoviy xossalari ularning tashish va saqlash jarayonlarida yuzaga keladigan yo‘qotilishlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, past qaynash harorati va yuqori bug‘ bosimi yoqilg‘ining uchuvchanligini oshirib, bug‘lanish yo‘qotilishlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, past zichlik va qovushqoqlik yoqilg‘ining barqarorligini pasaytirib, transport va saqlash jarayonlarida qo‘shimcha yo‘qotilishlarga olib keladi.

XULOSA.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida GTL sintetik suyuq yoqilg‘ilarining fizik-kimyoviy xossalari ularning tashish va saqlash jarayonlarida yuzaga keladigan yo‘qotilishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Xususan, past qaynash harorati va yuqori bug‘ bosimi yoqilg‘ining uchuvchanligini oshirib, bug‘lanish yo‘qotilishlarini kuchaytiradi. Past zichlik va qovushqoqlik esa yoqilg‘ining barqarorligini pasaytirib, hajmiy yo‘qotilishlarni yuzaga keltiradi.

Eksperimental natijalar harorat oshishi bilan yo‘qotilish darajasi keskin ortishini ko‘rsatdi: 20 °C da 3,5 % gacha bo‘lgan yo‘qotilish 60 °C da 13,8 % gacha yetdi. Vaqt omili ham muhim bo‘lib, uzoq muddatli saqlash jarayonida yo‘qotilishlar sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, ochiq tizimlarda yo‘qotilishlar yarim yopiq tizimlarga nisbatan qariyb ikki baravar yuqori ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, GTL benzini eng yuqori yo‘qotilish xavfiga ega fraksiya sifatida baholandi, dizel va kerosin esa nisbatan barqaror yoqilg‘ilar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari GTL yoqilg‘ilarini tashish va saqlash jarayonlarini optimallashtirish, yo‘qotilishlarni kamaytirish hamda energiya samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aloydinov, S. J. O. G. L., & Tilloyev, L. I. (2020). KICHIK ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI GTL TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI. Science and Education, 1(9), 185-192.

2. TILLOYEV, L., & BOBOQULOV, F. MASH'ALA QILIB YOQILGAN GAZLAR HAJMI BO ‘YICHA DAVLATLARNING STATISTIK KO ‘RSATKICHLARI. IPAKYO ‘LI” nashriyoti КОНФЕРЕНЦИЯ: NEFT VA GAZ SANOATINING DOLZARB MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI Buxoro,

ISSN 3030-3907

15–16 октября 2024 года Организаторы: Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.
3. Ismael, M. A., et al. (2024). Gas-to-liquid (GTL) fuel characteristics and performance.
4. DieselNet. (n.d.). Synthetic diesel fuel properties. https://dieselnet.com/tech/fuel_synthetic.php
5. ScienceDirect. (n.d.). Fischer–Tropsch diesel fuels – Properties and emissions. https://www.sciencedirect.com
6. ScienceDirect. (n.d.). Fischer–Tropsch diesel overview. https://www.sciencedirect.com/topics/engineering/fischer-tropsch-diesel
7. IEA-AMF. (n.d.). Paraffinic fuel properties. https://www.iea-amf.org/content/fuel_information/paraffins/fuel_properties
8. GTL fuel composition studies. (2003). WO2003004588A2 patent. https://patents.google.com/patent/WO2003004588A2
9. Shell. (n.d.). Gas-to-liquids fuel characteristics. https://www.shell.com

ISSN 3030-3907

GTL TEXNOLOGIYASIDA HOSIL BO‘LADIGAN UNCONVERTED OIL FRAKSIYASINING TARKIBI VA UNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY HOLATI

Savriyev Muhriddin Sadriddinovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: savriyevmuhriddin@gmail.com
Do‘stov Hamro Bozorovich
Buxoro davlat texnika universiteti professori
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda tabiiy gazni chuqur qayta ishlash orqali yuqori sifatli suyuq yoqilg‘ilar ishlab chiqarish energetika sanoatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Shunday istiqbolli jarayonlardan biri **Gas-to-Liquids (GTL)** texnologiyasi bo‘lib, u tabiiy gazdan sintetik suyuq uglevodorod mahsulotlarini olish imkonini beradi. Ushbu texnologiyada **Fischer–Tropsch sintezi** natijasida og‘ir parafinli uglevodorodlar (wax) hosil bo‘ladi va ular keyinchalik gidrokreking jarayonida qayta ishlanadi. Biroq barcha og‘ir uglevodorodlar to‘liq konversiyaga uchramaydi va natijada **Unconverted Oil (UCO)** deb ataluvchi og‘ir fraksiya hosil bo‘ladi. Mazkur tadqiqotda GTL jarayonida hosil bo‘ladigan UCO fraksiyasining tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari hamda uni qayta ishlash texnologiyalarining zamonaviy holati o‘rganildi. GC-MS, FTIR, element tahlili va distillatsiya metodlari yordamida o‘tkazilgan tahlillar UCO fraksiyasi asosan uzun zanjirli parafin uglevodorodlardan tashkil topganligini ko‘rsatdi. Fraksiyada C_{20}–C_{40} diapazondagi uglevodorodlar ustunligi aniqlanib, parafinlar ulushi 70–85 % ni tashkil etishi qayd etildi. Tadqiqot natijalari UCO fraksiyasini qayta ishlashda gidrokreking jarayoni eng samarali usullardan biri ekanligini hamda undan sintetik dizel yoqilg‘ilari, bazaviy moylar va kimyo sanoati uchun xomashyo olish mumkinligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: GTL texnologiyasi; Fischer–Tropsch sintezi; Unconverted Oil; og‘ir uglevodorodlar; gidrokreking; parafin uglevodorodlar; sintetik yoqilg‘ilar.

Abstract. In recent years, the deep processing of natural gas to produce high-quality liquid fuels has become an important direction in the energy industry. One of the promising processes is Gas-to-Liquids (GTL) technology, which enables the production of synthetic liquid hydrocarbon products from natural gas. In this technology, heavy paraffinic hydrocarbons (wax) are formed as a result of Fischer–Tropsch synthesis and are subsequently processed in a hydrocracking unit. However, not all heavy hydrocarbons undergo complete conversion, resulting in the formation of a heavy fraction known as Unconverted Oil (UCO). In this study,

ISSN 3030-3907

the composition, physicochemical properties, and the current state of processing technologies of the UCO fraction formed during the GTL process were investigated. Analyses carried out using GC–MS, FTIR, elemental analysis, and distillation methods showed that the UCO fraction mainly consists of long-chain paraffinic hydrocarbons. It was determined that hydrocarbons in the C20–C40 range dominate the fraction, and the share of paraffins accounts for approximately 70–85%. The results of the study demonstrate that hydrocracking is one of the most effective methods for processing the UCO fraction and that it can be used to obtain synthetic diesel fuels, base oils, and feedstock for the chemical industry.

Keywords: GTL technology; Fischer–Tropsch synthesis; Unconverted Oil; heavy hydrocarbons; hydrocracking; paraffinic hydrocarbons; synthetic fuels.

Аннотация. В последние годы глубокая переработка природного газа с целью получения высококачественных жидких топлив стала важным направлением энергетической промышленности. Одним из перспективных процессов является технология Gas-to-Liquids (GTL), которая позволяет получать синтетические жидкие углеводородные продукты из природного газа. В данной технологии в результате синтеза Фишера–Тропша образуются тяжелые парафиновые углеводороды (воск), которые затем подвергаются переработке в процессе гидрокрекинга. Однако не все тяжелые углеводороды подвергаются полной конверсии, в результате чего образуется тяжелая фракция, называемая Unconverted Oil (UCO). В данном исследовании изучены состав, физико-химические свойства и современное состояние технологий переработки фракции UCO, образующейся в процессе GTL. Анализы, проведенные с использованием методов GC–MS, FTIR, элементного анализа и дистилляции, показали, что фракция UCO в основном состоит из длинноцепочечных парафиновых углеводородов. Установлено, что в данной фракции преобладают углеводороды диапазона C20–C40, а доля парафинов составляет около 70–85 %. Результаты исследования показали, что процесс гидрокрекинга является одним из наиболее эффективных методов переработки фракции UCO, а также позволяет получать синтетическое дизельное топливо, базовые масла и сырье для химической промышленности.

Ключевые слова: технология GTL; синтез Фишера–Тропша; Unconverted Oil; тяжелые углеводороды; гидрокрекинг; парафиновые углеводороды; синтетические топлива.

KIRISH.

So‘nggi yillarda energiya resurslaridan samarali foydalanish va ekologik toza yoqilg‘ilar ishlab chiqarish global energetika sanoatining muhim

ISSN 3030-3907

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa tabiiy gaz zaxiralari katta bo‘lgan hududlarda gazni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shimcha qiymatga ega suyuq yoqilg‘ilar ishlab chiqarish texnologiyalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Shunday istiqbolli texnologiyalardan biri GTL texnologiyasi bo‘lib, u tabiiy gazni sintetik suyuq uglevodorod mahsulotlariga aylantirish imkonini beradi. GTL jarayonlari orqali dizel yoqilg‘isi, kerosin, nafta hamda boshqa yuqori sifatli yoqilg‘i komponentlari ishlab chiqariladi [1]. Ushbu yoqilg‘ilar tarkibida aromatik birikmalar va oltingugurt miqdorining juda kam bo‘lishi ularning ekologik jihatdan toza yoqilg‘i turi sifatida qo‘llanilishiga imkon yaratadi [1; 2].

GTL texnologiyasining asosiy bosqichlaridan biri Fischer–Tropsch sintezi hisoblanadi. Ushbu jarayon sintez gazi (CO va H_2 aralashmasi)ni katalizator ishtirokida suyuq uglevodorodlarga aylantirishga asoslangan. Fischer–Tropsch jarayoni natijasida dizel, nafta, kerosin hamda yuqori molekulyar massali parafinli uglevodorodlar – sintetik uglevodorodlar (wax) hosil bo‘ladi [3]. Reaksiya odatda temir yoki kobalt asosidagi katalizatorlar ishtirokida yuqori bosim va harorat sharoitida amalga oshiriladi [3]. Jarayonning umumiy reaksiyasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$nCO + (2n + 1)H_2 \rightarrow C_nH_{2n+2} + nH_2O$$

Fischer–Tropsch jarayonida hosil bo‘ladigan mahsulotlarning katta qismi yuqori molekulyar massali parafinli uglevodorodlardan iborat bo‘lgan og‘ir fraksiyalardan tashkil topadi. Past haroratli Fischer–Tropsch jarayonida mahsulotlar tarkibida sezilarli miqdorda og‘ir fraksiyalar hosil bo‘lishi kuzatiladi [4]. Ushbu og‘ir fraksiyalar keyinchalik gidrokreking yoki gidroizomerizatsiya jarayonlari orqali yengilroq yoqilg‘i fraksiyalariga aylantiriladi.

Fischer–Tropsch jarayonida hosil bo‘lgan og‘ir parafinli mahsulotlarni qayta ishlash uchun odatda gidrokreking jarayoni qo‘llaniladi. Bu jarayon katalitik sharoitda og‘ir uglevodorod zanjirlarini parchalash orqali ularni dizel, kerosin va boshqa yengilroq fraksiyalarga aylantirish imkonini beradi [5]. Gidrokreking jarayoni yuqori bosimda vodorod ishtirokida amalga oshiriladi va u neftni qayta ishlash sanoatida og‘ir fraksiyalarni qayta ishlashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi [6].

Biroq amaliy sharoitda og‘ir uglevodorodlarning hammasi to‘liq konversiyaga uchramaydi. Natijada gidrokreking jarayonidan keyin UCO deb ataluvchi og‘ir fraksiya hosil bo‘ladi. UCO fraksiyasi asosan yuqori molekulyar massali parafin uglevodorodlardan tashkil topgan bo‘lib, uning tarkibida C_{20} dan C_{40} gacha bo‘lgan uglevodorodlar keng tarqalgan [7]. Ushbu fraksiya gidrokreking jarayonida to‘liq parchalanmagan og‘ir komponentlarni o‘z ichiga oladi va ularni qayta ishlash GTL texnologiyasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

UCO fraksiyasining mavjudligi texnologik jarayon samaradorligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Og‘ir uglevodorodlar katalizator yuzasida adsorbsiyalanib, katalizator faol markazlarini qisman bloklashi mumkin. Bundan tashqari yuqori molekulyar massali komponentlarning parchalanishi jarayonida koks hosil bo‘lishi katalizatorning tez deaktivatsiyasiga olib keladi [8]. Natijada jarayon samaradorligi pasayadi hamda katalizatorlarni regeneratsiya qilish yoki almashtirish zarurati yuzaga keladi.

UCO fraksiyasini qayta ishlash uchun turli texnologiyalar taklif qilingan. Eng keng tarqalgan usullardan biri UCO ni qayta gidrokreking jarayoniga yuborish hisoblanadi. Bundan tashqari katalitik kreking, gidroizomerizatsiya va termik parchalanish jarayonlari ham og‘ir parafinli fraksiyalarni qayta ishlashda qo‘llanilishi mumkin [9]. Ba’zi tadqiqotlarda esa Fischer–Tropsch og‘ir parafinlaridan yuqori sifatli bazaviy moylar ishlab chiqarish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilgan [10].

Bugungi kunda dunyoda GTL texnologiyasini sanoat miqyosida joriy qilgan bir qator yirik kompaniyalar mavjud. Jumladan Shell, Sasol va QatarEnergy kompaniyalari ushbu texnologiyani muvaffaqiyatli qo‘llab kelmoqda. Qatar davlatida joylashgan Pearl GTL majmuasi dunyodagi eng yirik GTL zavodlaridan biri bo‘lib, u yerda tabiiy gazdan turli sintetik yoqilg‘ilar ishlab chiqariladi va hosil bo‘ladigan og‘ir fraksiyalar maxsus qayta ishlash jarayonlari orqali qayta ishlanadi [2]. Sasol kompaniyasi esa Janubiy Afrikada ko‘p yillardan beri Fischer–Tropsch texnologiyasidan foydalanib kelmoqda va bu sohada katta ilmiy tajribaga ega.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, GTL texnologiyasida hosil bo‘ladigan UCO fraksiyasining tarkibini chuqur o‘rganish hamda uni samarali qayta ishlash usullarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar og‘ir uglevodorod fraksiyalaridan maksimal darajada foydali mahsulotlar olish hamda GTL texnologiyasining umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shu sababli ushbu ishning maqsadi GTL texnologiyasida hosil bo‘ladigan UCO fraksiyasining tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda uni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini ilmiy jihatdan baholashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot obyekti sifatida GTL texnologiyasida Fischer–Tropsch sintezidan olingan og‘ir parafinli uglevodorodlarni gidrokreking jarayonida qayta ishlash natijasida hosil bo‘ladigan UCO fraksiyasi tanlandi. UCO fraksiyasi gidrokreking jarayonida to‘liq konversiyaga uchramagan og‘ir uglevodorod komponentlaridan iborat bo‘lib, asosan yuqori molekulyar massali parafinlar, izoparafinlar hamda kichik miqdordagi naften uglevodorodlarni o‘z ichiga oladi [11].

ISSN 3030-3907

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, UCO fraksiyasi odatda C_{20}–C_{40} oralig‘idagi uglevodorod birikmalaridan tashkil topgan bo‘lib, uning qaynash harorati diapazoni 350–550 °C oralig‘ida bo‘lishi mumkin [12]. Ushbu fraksiya yuqori qovushqoqlik va nisbatan katta molekulyar massaga ega bo‘lgani sababli uni qayta ishlash qo‘shimcha texnologik jarayonlarni talab qiladi [2].

Tadqiqot uchun olingan UCO namunasi fizik-kimyoviy xossalari bo‘yicha dastlabki tavsiflash maqsadida laboratoriya sharoitida analiz qilindi. Namuna rang jihatidan och jigarrang yoki sarg‘ish rangli suyuqlik bo‘lib, uning zichligi va qovushqoqligi yengil neft fraksiyalariga nisbatan ancha yuqori ekanligi kuzatildi. Bundan tashqari UCO tarkibida parafin uglevodorodlarning yuqori ulushi mavjudligi uning past aromatiklik darajasini ko‘rsatadi [13].

UCO fraksiyasining tarkibiy xususiyatlarini aniqlash uchun bir qator zamonaviy analitik usullardan foydalanildi. Analizlar laboratoriya sharoitida standart metodikalarga muvofiq amalga oshirildi.

UCO tarkibidagi uglevodorod komponentlarini aniqlash uchun gaz xromatografiyasi – mass-spektrometriya (GC–MS) usuli qo‘llanildi. Ushbu usul murakkab organik aralashmalar tarkibini aniqlashda keng qo‘llaniladigan analitik texnika hisoblanadi. GC–MS usuli yordamida aralashmadagi komponentlar xromatografik ajratilib, keyinchalik mass-spektrometr orqali ularning molekulyar massasi va strukturasi aniqlanadi [14]. Bu usul ayniqsa Fischer–Tropsch mahsulotlari tarkibini o‘rganishda keng qo‘llaniladi.

UCO tarkibidagi funksional guruhlarni aniqlash maqsadida FTIR (Fourier Transform Infrared Spectroscopy) spektroskopiya usulidan foydalanildi. FTIR usuli molekulalardagi kimyoviy bog‘larning infraqizil nurlarni yutish spektri asosida funksional guruhlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul uglevodorodlar, aromatik birikmalar va kislorodli funksional guruhlarni aniqlashda samarali hisoblanadi [15].

Namunaning element tarkibini aniqlash uchun elemental analysis usuli qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida uglerod (C), vodorod (H), azot (N), oltingugurt (S) va kislorod (O) elementlarining massa ulushi aniqlanadi. Elemental tahlil natijalari uglevodorodlarning kimyoviy tabiatini va ularning energetik qiymatini baholashda muhim ahamiyatga ega [16].

UCO fraksiyasining fraksion tarkibini aniqlash uchun distillatsion tahlil usulidan foydalanildi. Distillatsiya jarayoni orqali namunaning turli qaynash haroratiga ega fraksiyalari ajratildi. Ushbu usul neft va neft mahsulotlari tarkibini o‘rganishda keng qo‘llaniladigan standart analitik metodlardan biri hisoblanadi [17].

ISSN 3030-3907

UCO fraksiyasining fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash uchun bir qator standart laboratoriya analizlari amalga oshirildi. Ushbu parametrlar og‘ir uglevodorod fraksiyalarini qayta ishlash texnologiyalarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Namunaning zichligi piknometrik usul yordamida aniqlanib, u suyuqlik massasining uning hajmiga nisbatiga asoslanadi. Zichlik neft mahsulotlarining muhim fizik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u fraksiya tarkibidagi uglevodorodlarning molekulyar massasi haqida ma’lumot beradi [18].

UCO fraksiyasining qovushqoqligi kapillyar viskozimetr yordamida o‘lchandi. Qovushqoqlik suyuqlikning oqimga qarshilik ko‘rsatish darajasini tavsiflaydi va og‘ir parafinli fraksiyalarda ushbu ko‘rsatkich odatda yuqori bo‘ladi. Yuqori qovushqoqlik og‘ir uglevodorod fraksiyalarining qayta ishlanishini murakkablashtirishi mumkin [19].

Namunaning qaynash harorati diapazoni distillatsion analiz yordamida aniqlanib, bu parametr fraksiya tarkibidagi uglevodorodlarning zanjir uzunligi haqida ma’lumot beradi. Og‘ir parafinli fraksiyalar uchun qaynash harorati odatda 350 °C dan yuqori bo‘ladi [2].

UCO fraksiyasini qayta ishlash texnologiyalarini baholash maqsadida adabiyotlarda keltirilgan ilmiy tadqiqotlar va sanoat tajribasi asosida tahlil olib borildi. Baholash jarayonida quyidagi asosiy texnologiyalar ko‘rib chiqildi: gidrokreking, katalitik kreking, gidroizomerizatsiya va termik parchalanish.

Ushbu texnologiyalar samaradorligi bir qator mezonlar asosida baholandi. Jumladan, uglevodorodlarning konversiya darajasi, mahsulot chiqishi, energiya sarfi va katalizator barqarorligi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Gidrokreking jarayoni og‘ir parafinli fraksiyalarni qayta ishlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi, chunki u yuqori molekulyar massali uglevodorodlarni vodorod muhitida yengilroq fraksiyalarga aylantirish imkonini beradi [19].

Shuningdek, qayta ishlash texnologiyalarining iqtisodiy va texnologik samaradorligi ham baholandi. Bunda sanoat miqyosida qo‘llanilayotgan GTL zavodlari tajribasi hamda ilmiy tadqiqot natijalari asosiy manba sifatida foydalanildi.

NATIJALAR.

O‘tkazilgan GC-MS va FTIR tahlillari natijalariga ko‘ra, GTL texnologiyasida hosil bo‘ladigan UCO fraksiyasi asosan yuqori molekulyar parafin uglevodorodlardan tashkil topganligi aniqlandi. Fischer–Tropsch jarayoniga xos bo‘lganidek, UCO tarkibida aromatik uglevodorodlar miqdori juda past bo‘lib, asosiy ulushni normal parafinlar va izoparafinlar tashkil etadi.


ISSN 3030-3907

1-jadval

UCO fraksiyasining kimyoviy tarkibi

№	Komponent guruhi	Ulushi (%)
1	Normal parafinlar	55–65
2	Izoparafinlar	20–25
3	Og‘ir uglevodorodlar	10–15
4	Boshqa komponentlar	1–3

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, UCO fraksiyasi yuqori darajada parafinli tabiatga ega bo‘lib, bu uning Fischer–Tropsch jarayonidan kelib chiqishini tasdiqlaydi. Izoparafinlarning mavjudligi esa gidrokreking va izomerizatsiya jarayonlari ta’sirida hosil bo‘lgan ikkilamchi mahsulotlar bilan izohlanadi [2].



1-rasm. GC-MS tahlili xromatogrammasi.

UCO fraksiyasining fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash uchun laboratoriya tahlillari o‘tkazildi. Olingan natijalar og‘ir parafinli fraksiyalar uchun xos bo‘lgan yuqori zichlik va qovushqoqlik qiymatlarini ko‘rsatdi.


2-jadval

UCO fraksiyasining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	Qiymat
1	Zichlik (20 °C da), kg/m³	820–860
2	Qovushqoqlik (40 °C da), mm²/s	15–25
3	Qaynash oralig‘i, °C	350–550
4	Parafin ulushi	70–85 %
5	Aromatik birikmalar	<5 %

ISSN 3030-3907

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, UCO fraksiyasi yuqori qaynash haroratiga ega og‘ir uglevodorod fraksiyasi hisoblanadi. Zichlik va qovushqoqlik qiymatlarining yuqoriligi uning molekulyar massasi katta ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa UCO ni qayta ishlash jarayonida qo‘shimcha gidrokreking yoki katalitik parchalanish jarayonlarini talab qiladi [18].



2-rasm. Distillatsiya egri chizig‘i

Distillatsiya egri chizig‘i UCO tarkibida yuqori qaynash haroratiga ega komponentlar ustun ekanligini ko‘rsatadi. Fraksiyaning asosiy qismi 400–500 °C oralig‘ida qaynashi aniqlangan.

GC-MS va distillatsion analiz natijalariga ko‘ra UCO fraksiyasi asosan uzun zanjirli uglevodorodlardan tashkil topganligi aniqlangan. Ushbu fraksiyada C_{20}–C_{40} diapazondagi parafin uglevodorodlar ustunlik qiladi.

ISSN 3030-3907

3-jadval

UCO fraksiyasining uglevodorod taqsimoti

№	Uglevodorod diapazoni	Ulushi (%)
1	C_{20}–C_{25}	20
2	C_{26}–C_{30}	30
3	C_{31}–C_{35}	28
4	C_{36}–C_{40}	15
5	C_{40+}	7

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, UCO fraksiyasining asosiy qismini C_{26}–C_{35} diapazondagi uglevodorodlar tashkil etadi. Ushbu uzun zanjirli parafinlar yuqori molekulyar massaga ega bo‘lib, ular odatda gidrokreking jarayonida to‘liq parchalanmay qoladi [19].

Yuqoridagi 3-jadval UCO tarkibida uzun zanjirli parafin molekulalarining ustunligini ko‘rsatadi. Bunday molekulalar yuqori qaynash harorati va katta molekulyar massa bilan tavsiflanadi.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, GTL texnologiyasida hosil bo‘ladigan UCO fraksiyasi asosan uzun zanjirli parafin uglevodorodlardan tashkil topgan og‘ir fraksiya hisoblanadi. Bunday tarkib UCO ni qayta ishlashda yuqori samarali katalitik jarayonlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Adabiyotlarda UCO fraksiyasini qayta ishlash uchun bir nechta asosiy texnologiyalar taklif qilingan bo‘lib, ular orasida gidrokreking, katalitik kreking, gidroizomerizatsiya va termik parchalanish jarayonlari keng qo‘llaniladi [11; 12].

Gidrokreking. UCO fraksiyasini qayta ishlashda eng samarali va keng tarqalgan texnologiyalardan biri gidrokreking hisoblanadi. Ushbu jarayon yuqori bosimda vodorod muhitida katalizator ishtirokida olib boriladi. Gidrokreking jarayonining asosiy afzalligi og‘ir uglevodorod molekulalarini yengilroq fraksiyalarga – dizel, kerosin va nafta fraksiyalariga aylantirish imkonini berishidir [13].

Gidrokreking jarayonida uzun zanjirli parafin molekulalari katalizator yuzasida parchalanib, qisqaroq zanjirli uglevodorodlar hosil qiladi. Bundan tashqari vodorod muhitining mavjudligi reaksiyada hosil bo‘ladigan olefin va aromatik birikmalarni gidrogenatsiyalab, mahsulot sifatini oshiradi. Shu sababli gidrokreking GTL mahsulotlarini qayta ishlashda eng muhim texnologik jarayonlardan biri hisoblanadi [2].

Katalitik kreking. UCO fraksiyasini qayta ishlashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yana bir texnologiya katalitik kreking jarayonidir. Ushbu jarayon og‘ir uglevodorodlarni katalizator ishtirokida yuqori haroratda parchalanishiga

ISSN 3030-3907

asoslangan. Katalitik kreking jarayonining asosiy afzalligi uning nisbatan tez amalga oshishi va yuqori konversiya darajasini ta’minlashidir.

Biroq bu jarayonning kamchiliklari ham mavjud. Katalitik kreking jarayonida og‘ir uglevodorodlarning parchalanishi natijasida katalizator yuzasida koks hosil bo‘lishi mumkin. Bu esa katalizatorning deaktivatsiyasiga olib keladi va jarayon samaradorligini pasaytiradi [20].

Gidroizomerizatsiya. UCO fraksiyasini qayta ishlashda gidroizomerizatsiya jarayoni ham qo‘llanilishi mumkin. Bu jarayon asosan uzun zanjirli normal parafinlarni izoparafinlarga aylantirishga asoslangan. Izoparafinlar esa pastroq qotish haroratiga va yaxshiroq yonish xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Gidroizomerizatsiya jarayoni GTL dizel yoqilg‘ilarining sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ayniqsa past haroratli xossalarni yaxshilash uchun qo‘llaniladi [13].

Piroliz. UCO fraksiyasini qayta ishlashning yana bir usuli piroliz jarayoni hisoblanadi. Piroliz jarayonida og‘ir uglevodorodlar yuqori harorat ta’sirida katalizatorsiz parchalanadi. Bu jarayon natijasida olefinlar, gaz mahsulotlari hamda boshqa yengil uglevodorodlar hosil bo‘lishi mumkin.

Biroq piroliz jarayonida energiya sarfi yuqori bo‘lishi hamda koks hosil bo‘lishi ehtimoli mavjudligi sababli ushbu texnologiya amaliy sanoatda cheklangan darajada qo‘llaniladi [12].

Bazaviy moy ishlab chiqarish. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, UCO fraksiyasidan yuqori sifatli bazaviy moylar ishlab chiqarish ham mumkin. Fischer–Tropsch jarayonidan olingan og‘ir parafinli fraksiyalar aromatik birikmalarning kamligi va yuqori tozaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular yuqori sifatli sintetik moylar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida qo‘llanishi mumkin [11].

Texnologiyalarni solishtirish. UCO fraksiyasini qayta ishlash uchun taklif qilingan texnologiyalar turli texnologik va iqtisodiy xususiyatlarga ega. Quyidagi 4-jadvalda ushbu texnologiyalarning asosiy afzalliklari va kamchiliklari solishtirilgan.

4-jadval

UCO qayta ishlash texnologiyalarining solishtirma tahlili

Texnologiya	Afzalligi	Kamchiligi
Gidrokreking	Yuqori konversiya darajasi, mahsulot sifati yuqori	Yuqori bosim va energiya sarfi
Katalitik kreking	Jarayon tez, yuqori reaksiya tezligi	Koks hosil bo‘lishi

ISSN 3030-3907

Gidroizomerizatsiya.	Yoqilg‘i sifatini yaxshilaydi	Konversiya darajasi nisbatan past
Piroliz	Katalizator talab qilmaydi	Energiya sarfi yuqori
Bazaviy moy ishlab chiqarish	Yuqori qiymatli mahsulot olish	Murakkab texnologiya

4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, gidrokreking jarayoni UCO fraksiyasini qayta ishlashda eng samarali texnologiya hisoblanadi. Ushbu jarayon yuqori konversiya darajasi va yuqori sifatli mahsulot olish imkonini beradi.

UCO ni qayta ishlash istiqbollari. UCO fraksiyasini samarali qayta ishlash GTL texnologiyasining umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Olingan natijalar va adabiyot ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, UCO fraksiyasini qayta ishlash orqali bir qator yuqori qiymatli mahsulotlar olish mumkin.

Birinchidan, UCO fraksiyasidan sintetik dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarish mumkin. Gidrokreking jarayonida og‘ir parafinlar parchalanib, dizel fraksiyasi hosil qiladi. Fischer–Tropsch dizel yoqilg‘ilari past aromatiklik darajasi va yuqori setan soni bilan tavsiflanadi [2].

Ikkinchidan, UCO fraksiyasidan bazaviy moylar ishlab chiqarish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Yuqori tozalik darajasi va parafinli tabiat tufayli bunday moylar yuqori sifatli sintetik moylar ishlab chiqarishda qo‘llanilishi mumkin [11].

Uchinchidan, UCO fraksiyasi kimyo sanoati uchun xomashyo sifatida ham foydalanilishi mumkin. Piroliz yoki katalitik parchalanish jarayonlari orqali undan olefinlar va boshqa muhim kimyoviy mahsulotlar olish mumkin.

Shunday qilib, UCO fraksiyasini qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish GTL texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda og‘ir uglevodorod fraksiyalaridan maksimal darajada foydali mahsulotlar olish imkonini beradi.

XULOSA.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida GTL texnologiyasida hosil bo‘ladigan UCO fraksiyasining tarkibi va xossalari kompleks tarzda tahlil qilindi. GC-MS va boshqa analitik usullar yordamida olingan natijalar UCO fraksiyasi asosan uzun zanjirli parafin uglevodorodlardan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Fraksiyada C_{20}–C_{40} diapazondagi uglevodorodlarning ustunligi aniqlanib, parafinlarning ulushi 70–85 % atrofida ekanligi qayd etildi.

Fizik-kimyoviy tahlil natijalari UCO fraksiyasi yuqori qaynash harorati, yuqori qovushqoqlik va past aromatik birikmalar miqdori bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi. Bu xususiyatlar uning og‘ir parafinli fraksiya ekanligini tasdiqlaydi

ISSN 3030-3907

hamda uni qayta ishlashda maxsus katalitik jarayonlar qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida UCO fraksiyasini qayta ishlashning bir nechta texnologiyalari – gidrokreking, katalitik kreking, gidroizomerizatsiya va piroliz jarayonlari tahlil qilindi. Ushbu texnologiyalar ichida gidrokreking jarayoni eng samarali usul sifatida baholandi. Chunki bu jarayon og‘ir parafin molekulalarini yengilroq uglevodorod fraksiyalariga aylantirish orqali yuqori sifatli yoqilg‘i mahsulotlari olish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, UCO fraksiyasini samarali qayta ishlash GTL texnologiyasining umumiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari ushbu fraksiyadan sintetik dizel yoqilg‘ilari, bazaviy moylar hamda kimyo sanoati uchun qiymatli xomashyo olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aloydinov, S. J. O. G. L., & Tilloyev, L. I. (2020). KICHIK ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI GTL TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI. Science and Education, 1(9), 185-192.
2. Speight, J. G. (2014). Neft kimyosi va texnologiyasi. (5-nashr). CRC Press.
3. Velocys. (Yil). Fischer-Tropsch texnologiyasi tushuntirildi . Velocys Ltd.
4. Milliy fanlar, muhandislik va tibbiyot akademiyalari. (Yil). Ko‘mir va biomassaning termokimyoviy konversiyasi. . Milliy akademiyalar nashriyoti.
5. Fratczak, J. (Yil). Og‘ir Fischer-Tropsch mumini gidrokreking qilish.
6. Xing, T. va boshqalar. (Yil). Fischer-Tropsch mumi va og‘ir vakuumli gaz moyining gidrokrekingi.
7. Ayala-Cortes, A. (Yil). Fischer-Tropsch mumlarini transport yoqilg‘isiga aylantirish.
8. Regali, F. (Yil). Fischer-Tropsch mumining gidrokonversiyasi.
9. Tomasek, S. (Yil). Fischer-Tropsch kerosin aralashmalarini gidrokreking qilish.
10. Muallif(lar). (Yil). Fischer-Tropsch mumidan baz moylarini ishlab chiqarish.
11. de Klerk, A. (2011). Fisher-Tropschni qayta ishlash . Wiley-VCH.
12. Dry, M. E. (2002). Fischer-Tropsch jarayoni: 1950–2000. Catalysis Today, 71 (3–4), 227–241. https://doi.org/10.1016/S0920-5861(01)00453-9
13. Steinberg, A., & Dry, M. (2004). Fischer-Tropsch texnologiyasi . Elsevier.
14. Niessen, W. (2001). CuCRC nashriyoti.
15. Smith, B. C. (2011). Infraqizil spektral talqin: Tizimli yondashuv . CRC Press.
16. ASTM International. (Yil). ASTM D5291: Elementar tahlil uchun standart sinov usuli .
17. ASTM International. (Yil). ASTM D86: Neft mahsulotlarini distillash uchun standart sinov usuli .

ISSN 3030-3907

18. Gary, J. H., Handwerk, G. E., & Kaiser, M. J. (2007). Neftni qayta ishlash: Texnologiya va iqtisodiyot (5-nashr). CRC Press.
19. Ancheyta, J. (2011). Neftni qayta ishlash uchun katalitik reaktorlarni modellashtirish va simulyatsiya qilish . John Wiley & Sons.
20. Ancheyta, J., & Speight, J. G. (2007). Og‘ir moylar va qoldiqlarni gidro-qayta ishlash . CRC Press.

ISSN 3030-3907

GTL TEXNOLOGIYASI ASOSIDA OLINGAN SINTETIK DIZEL YOQILG‘ISI TARKIBIDAGI IKKI HALQALI AROMATIK BIRIKMALARNING YOQILG‘I SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI

Muxiddinov Jasur Jo‘ra o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti magistranti
E-mail: Mukhiddinov0909@gmail.com
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda muqobil yoqilg‘i turlariga bo‘lgan talabning ortishi sintetik yoqilg‘ilar ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishiga turtki bermoqda. Gas-to-Liquids (GTL) texnologiyasi asosida olingan sintetik dizel yoqilg‘ilari yuqori ekologik tozaligi va yaxshi yonish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Biroq yoqilg‘i tarkibidagi aromatik uglevodorodlar, ayniqsa ikki halqali aromatik birikmalar yoqilg‘ining ekspluatatsion xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu maqolada GTL texnologiyasi asosida olingan sintetik dizel fraksiyasi tarkibidagi ikki halqali aromatik birikmalarning yoqilg‘ining asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalari aromatik uglevodorodlar miqdorining ortishi yoqilg‘ining zichligi va qovushqoqligini oshirishi, biroq setan sonini kamaytirishini ko‘rsatdi. Shuningdek aromatik birikmalar miqdorining ortishi yonish jarayonida zararli emissiyalar hosil bo‘lishiga ham ta’sir qilishi aniqlangan. Olingan natijalar sintetik dizel yoqilg‘isini ishlab chiqarish jarayonida aromatik uglevodorodlar miqdorini nazorat qilish muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: GTL texnologiyasi, sintetik dizel yoqilg‘isi, aromatik uglevodorodlar, naftalin, setan soni, yoqilg‘i xossalari.

Abstract. In recent years, the increasing demand for alternative fuels has stimulated the development of synthetic fuel production technologies. Synthetic diesel fuels produced using Gas-to-Liquids (GTL) technology are characterized by high environmental cleanliness and favorable combustion properties. However, aromatic hydrocarbons present in the fuel, especially bicyclic aromatic compounds, can significantly affect the operational properties of the fuel. This article investigates the influence of bicyclic aromatic compounds contained in the synthetic diesel fraction obtained through GTL technology on the main physicochemical properties of the fuel. The research results show that an increase in the content of aromatic hydrocarbons leads to an increase in fuel density and viscosity, while simultaneously reducing the cetane number. In addition, a higher concentration of aromatic compounds may contribute to the formation of harmful

ISSN 3030-3907

emissions during the combustion process. The obtained results indicate the importance of controlling the content of aromatic hydrocarbons in the production process of synthetic diesel fuels.

Keywords: GTL technology, synthetic diesel fuel, aromatic hydrocarbons, naphthalene, cetane number, fuel properties.

Аннотация. В последние годы рост спроса на альтернативные виды топлива стимулирует развитие технологий производства синтетических топлив. Синтетическое дизельное топливо, получаемое по технологии Gas-to-Liquids (GTL), характеризуется высокой экологической чистотой и благоприятными характеристиками сгорания. Однако ароматические углеводороды, присутствующие в составе топлива, особенно двухъядерные ароматические соединения, могут существенно влиять на эксплуатационные свойства топлива. В данной статье исследовано влияние двухъядерных ароматических соединений, содержащихся в синтетической дизельной фракции, полученной по технологии GTL, на основные физико-химические показатели топлива. Результаты исследования показали, что увеличение содержания ароматических углеводородов приводит к повышению плотности и вязкости топлива, однако сопровождается снижением цетанового числа. Кроме того, увеличение содержания ароматических соединений может способствовать образованию вредных выбросов в процессе сгорания. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости контроля содержания ароматических углеводородов при производстве синтетического дизельного топлива.

Ключевые слова: технология GTL, синтетическое дизельное топливо, ароматические углеводороды, нафталин, цетановое число, свойства топлива.

KIRISH.

So‘nggi o‘n yilliklarda global energetika tizimida muqobil va ekologik jihatdan toza yoqilg‘i turlariga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Bu holat an’anaviy neft resurslarining cheklanganligi, transport sektorida energiya iste’molining ortib borishi hamda atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdorini kamaytirish zarurati bilan bog‘liq. Shu sababli tabiiy gaz, ko‘mir yoki biomassa asosida ishlab chiqariladigan sintetik suyuq yoqilg‘ilar energetika sanoatida muhim o‘rin egallamoqda [1,2].

Sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarishning eng istiqbolli texnologiyalaridan biri Gas-to-Liquids (GTL) texnologiyasi hisoblanadi. Ushbu texnologiya sintez gazni (CO va H_2 aralashmasi) Fischer–Tropsch sintezi orqali suyuq uglevodorodlarga aylantirish imkonini beradi. Natijada yuqori sifatli sintetik dizel fraksiyasi olinadi. GTL texnologiyasi asosida olingan dizel yoqilg‘ilari yuqori setan soni, juda past

ISSN 3030-3907

oltingugurt miqdori va yaxshi yonish xususiyatlari bilan ajralib turadi hamda ekologik jihatdan an’anaviy neft asosidagi yoqilg‘ilarga nisbatan tozaroq hisoblanadi [3,4].

Dizel yoqilg‘isi murakkab uglevodorodlar aralashmasidan iborat bo‘lib, uning tarkibida asosan to‘rt asosiy uglevodorod sinfi mavjud: normal alkanlar, izoalkanlar, sikloalkanlar va aromatik uglevodorodlar. Ushbu komponentlarning o‘zaro nisbati yoqilg‘ining asosiy fizik-kimyoviy xossalarini, jumladan setan soni, zichlik, qovushqoqlik, yonish samaradorligi va emissiya ko‘rsatkichlarini belgilaydi [5].

Aromatik uglevodorodlar dizel yoqilg‘isi tarkibida muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Ular molekulasida bir yoki bir nechta benzol halqalari mavjud bo‘lgan uglevodorodlar bo‘lib, dizel yoqilg‘isining umumiy tarkibida ma’lum miqdorda uchrashi mumkin. Aromatik birikmalar, ayniqsa ko‘p halqali aromatik uglevodorodlar yoqilg‘ining yonish jarayoni va emissiya ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [6].

Ikki halqali aromatik birikmalar (masalan, naftalin va uning hosilalari) dizel yoqilg‘isi tarkibida eng ko‘p uchraydigan poliaromatik uglevodorodlar qatoriga kiradi. Ushbu birikmalar molekulyar tuzilishining barqarorligi va yuqori molekulyar massasi sababli yoqilg‘ining zichligi va qovushqoqligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga aromatik birikmalar past setan soniga ega bo‘lib, bu dizel dvigatellarida yonish jarayonining kechikishiga olib keladi [5,7].

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar aromatik uglevodorodlarning dizel yoqilg‘isi xossalariga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra aromatik birikmalar miqdorining ortishi yoqilg‘ining zichligi va distillatsiya xususiyatlarini o‘zgartiradi hamda dvigatel ishlash jarayoniga ta’sir qiladi. Shuningdek aromatik uglevodorodlar yonish jarayonida qattiq zarrachalar (PM) va boshqa zararli emissiyalar hosil bo‘lishiga ham sabab bo‘lishi mumkin [8–10].

GTL texnologiyasi asosida olingan sintetik dizel fraksiyalarida odatda parafin uglevodorodlar ustun bo‘ladi. Biroq texnologik jarayonlar, katalizator xususiyatlari yoki keyingi qayta ishlash bosqichlari natijasida yoqilg‘i tarkibida aromatik birikmalar paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu aromatik komponentlarning miqdori yoqilg‘ining ekspluatatsion xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli sintetik dizel yoqilg‘ilarini ishlab chiqarishda aromatik uglevodorodlar miqdorini nazorat qilish hamda ularni gidrogenlash yoki gidrotozalash jarayonlari orqali kamaytirish muhim texnologik vazifa hisoblanadi [4,6].

Ikki halqali aromatik birikmalarning dizel yoqilg‘isi xossalariga ta’sirini chuqur o‘rganish yoqilg‘i formulatsiyasini optimallashtirish, dvigatel samaradorligini oshirish hamda zararli emissiyalarni kamaytirishda muhim

ISSN 3030-3907

ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu tadqiqot ishida GTL texnologiyasi asosida olingan sintetik dizel fraksiyasi tarkibidagi ikki halqali aromatik birikmalarning yoqilg‘ining asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganiladi hamda ularni boshqarishning texnologik usullari tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sintetik dizel yoqilg‘isi tarkibidagi ikki halqali aromatik birikmalar miqdorining yoqilg‘ining zichligi, qovushqoqligi va setan soni kabi muhim ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash hamda ushbu komponentlarni boshqarishning samarali texnologik usullarini baholashdan iborat.

TADQIQOT OB’EKTI VA USULLARI.

Mazkur tadqiqot ishida tadqiqot ob’ekti sifatida Gas-to-Liquids (GTL) texnologiyasi asosida olingan sintetik dizel fraksiyasi tanlandi. Ushbu yoqilg‘i namunasi tarkibidagi uglevodorodlar tarkibini va ularning yoqilg‘ining asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash maqsadida kompleks analitik tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqot davomida sintetik dizel fraksiyasining tarkibiy tuzilishi hamda undagi aromatik uglevodorodlar, ayniqsa ikki halqali aromatik birikmalar miqdori o‘rganildi. Bunda naftalin va uning metil hosilalari kabi aromatik komponentlarning yoqilg‘i xossalariga ta’siriga alohida e’tibor qaratildi.

Sintetik dizel yoqilg‘isi tarkibidagi individual uglevodorodlarni aniqlash hamda ularning molekulyar tarkibini baholash uchun gaz xromatografiya–mass spektrometriya (GC–MS) analitik usuli qo‘llanildi. Ushbu usul murakkab uglevodorod aralashmalarini yuqori aniqlik bilan ajratish va individual komponentlarni sifat hamda miqdor jihatdan aniqlash imkonini beradi. GC–MS tahlili natijasida sintetik dizel fraksiyasida mavjud bo‘lgan aromatik uglevodorodlarning tarkibi va ulushi aniqlanib, ularning yoqilg‘i xossalariga ta’siri baholandi.

Tadqiqot jarayonida sintetik dizel yoqilg‘isining asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari xalqaro standart metodikalarga muvofiq aniqlandi. Yoqilg‘ining zichligi ASTM D4052 standarti bo‘yicha aniqlanib, uning molekulyar tarkib bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Kinematik qovushqoqlik ASTM D445 usuli yordamida aniqlanib, aromatik birikmalar miqdorining qovushqoqlik o‘zgarishiga ta’siri baholandi. Yoqilg‘ining yonish xususiyatlarini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan setan soni esa ASTM D613 standarti asosida aniqlab borildi.

Tadqiqot davomida sintetik dizel tarkibidagi ikki halqali aromatik birikmalar miqdorining o‘zgarishi bilan yoqilg‘ining asosiy sifat ko‘rsatkichlari – zichlik, kinematik qovushqoqlik va setan soni o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Olingan eksperimental natijalar asosida aromatik uglevodorodlar miqdorining o‘zgarishi sintetik dizel yoqilg‘isining ekspluatatsion xossalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi

ISSN 3030-3907

tahlil qilindi hamda ularni boshqarishning samarali texnologik yondashuvlari baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.


Tadqiqot davomida GTL texnologiyasi asosida olingan sintetik dizel fraksiyasi tarkibidagi ikki halqali aromatik uglevodorodlarning yoqilg‘ining asosiy fizik-kimyoviy xossalariga ta’siri o‘rganildi. Eksperimental natijalar aromatik birikmalar miqdorining o‘zgarishi yoqilg‘ining zichligi, kinematik qovushqoqligi va setan soniga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

1-jadval

Ikki halqali aromatik birikmalar miqdorining yoqilg‘i xossalariga ta’siri

№	Aromatik uglevodorodlar (%)	Zichlik (kg/m³)	Qovushqoqlik (mm²/s)	Setan soni
1	2	785	2,5	58
2	4	790	2,7	55
3	6	795	2,9	52
4	8	800	3,1	49
5	10	806	3,3	46


1-jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikki halqali aromatik birikmalar miqdorining ortishi yoqilg‘ining zichligi va qovushqoqligining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga setan soni izchil ravishda kamayib boradi.



bilan birga, xalqaro kompaniyalar va mahalliy startaplar ham ushbu sohada faol investitsiya kiritib, poytaxt va yirik viloyat markazlarida qulay zaryadlash nuqtalarini tashkil etmoqda. 2026–2030-yillar davomida zaryad stansiyalari soni yanada tez sur'atlarda oshib, barcha hududlarda keng qamrovli tarmoq shakllantiriladi. Bu esa elektromobillarni ommalashtirish va transport sohasida ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston bo'yicha elektromobil zaryadlash stansiyalarining umumiy sonida Toshkent shahri yetakchi mavqeini saqlab qolmoqda. Statistika shuni ko'rsatadiki: 2024-yil aprel holatiga poytaxtda joylashgan stansiyalar umumiy tarmoqning 58 foizini tashkil qilgan. 2024-yil dekabrida bu ko'rsatkich 60 foizga yetib, qisqa muddat ichida Toshkentdagi stansiyalar sonining sezilarli o'sishini aks ettirgan. 2025-yil may holatida esa ulush 59 foiz atrofida barqarorlashgan. Bu shuni anglatadiki, mamlakat bo'yicha zaryadlash infratuzilmasining umumiy kengayishi asosan Toshkent shahrida ro'y bermoqda. Ya'ni, yangi stansiyalar ko'p hollarda poytaxt hududida ishga tushirilmoqda. Aholi zichligi va avtomobil egaligi darajasi yuqoriligi - Toshkent mamlakatdagi eng yirik transport tugunidir, shuning uchun elektromobillar soni ham boshqa hududlarga nisbatan tezroq ortmoqda. Iqtisodiy va moliyaviy sharoitlar - poytaxtda aholining to'lov qobiliyati yuqori bo'lib, bu xususiy sektor hamda investorlar uchun bozorni yanada investitsion jihatdan qulay qiladi.

Zaryadlash vaqti va quvvat o'rtasidagi bog'liqlik elektromobil akkumulyatorining sig'imi va zaryadlash stansiyasining quvvatiga bog'liq. Yuqori quvvatli zaryadlash stansiyalari orqali zaryadlash vaqtini sezilarli darajada qisqartirish mumkin. Biroq, akkumulyatorning texnik xususiyatlari va zaryadlash tezligining o'zgarishi ham zaryadlash vaqtiga ta'sir qiladi [6].

Zaryadlash vaqti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$T = \frac{E}{P} \quad (1)$$

bunda: T – zaryadlash vaqti (soat), E – akkumulyator sig'imi (kWh), P – zaryadlash quvvati (kW).

Zaryadlash stansiyasining energiya sarfi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$W = P \cdot T \quad (2)$$

bunda: W – sarflangan energiya (kWh), P – zaryadlash quvvati (kW),T – zaryadlash vaqti (soat).

Zaryadlash quvvati oshgani sari vaqt qisqaradi, ammo akkumulyatorning hayotiy tsikliga ta'sir qilishi mumkin. Optimal natijaga erishish uchun balansni saqlash muhim, ya'ni tezkor zaryadlash faqat zarur holatlarda qo'llanib, odatda sekinroq AC zaryadlash afzalroq bo'lishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Transport oqimi va tranzit markazi sifatida roli - Toshkent shahri ichki va xalqaro avtomobil qatnovlarining transport logistik markazi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, elektromobillarni zaryadlash infratuzilmasining uzluksiz va samarali ishlashi ushbu hududda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, Toshkentning umumiy ulushi **barqaror saqlanayotgani** mamlakat bo‘yicha boshqa viloyatlarda ham bosqichma-bosqich zaryadlash tarmoqlari rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalari elektromobillar infratuzilmasining barqaror rivojlanishi zaryadlash stansiyalarining nafaqat son jihatdan ko‘payishi, balki texnologik va funksional takomillashuvi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Zamonaviy EV infratuzilmasi yuqori quvvatli DC tezkor zaryadlash tizimlari, aqlli boshqaruv platformalari va raqamli monitoring mexanizmlariga asoslanmoqda. Bu esa energiya iste’molini optimallashtirish va tarmoq barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Vehicle-to-Grid (V2G) texnologiyasi esa elektromobillarni passiv iste’molchi emas, balki taqsimlangan energiya manbai sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu yondashuv energiya tizimlarining moslashuvchanligini oshirish bilan birga, karbon emissiyalarini kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida elektromobillar bozorining jadal o‘sishi zaryadlash infratuzilmasini rejalashtirish va boshqarishda strategik yondashuvni talab etadi. Hududiy joylashtirishni optimallashtirish, xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xususiy sektor investitsiyalarini rag‘batlantirish hamda energiya tarmoqlarining modernizatsiyasi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Z. Yusupov, N. Almagrahi, E. Yaghoubi, A. Habbal, and D. Kodirov, “Modeling and Control of Decentralized Microgrid Based on Renewable Energy and Electric Vehicle Charging Station,” *Lecture Notes in Networks and Systems*, vol. 912 LNNS, pp. 96–102, 2024. https://doi.org/10.1007/978-3-031-53488-1_11

2. International Energy Agency (IEA), *Global EV Outlook 2024: Trends in Electric Mobility*, Paris, France, 2024.

3. D.Qodirov, R.Qobilov “The importance of charging stations in the development of electric vehicle adoption and ways to improve them,” *Scientific Journal of Mechanics and Technology” № 1 (12), 2025.*

4. A. Dubey and S. Santoso, “Electric vehicle charging on residential distribution systems: Impacts and mitigations,” *IEEE Access*, vol. 3, pp. 1871–1893, 2015. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2015.2476996

ISSN 3030-3907

5. J. Hu, S. You, M. Lind, and J. Østergaard, "Coordinated charging of electric vehicles for congestion prevention in the distribution grid," *IEEE Transactions on Smart Grid*, vol. 5, no. 2, pp. 703–711, 2014. https://doi.org/10.1109/TSG.2013.2279001
6. S. Deilami, A. S. Masoum, P. S. Moses, and M. A. Masoum, "Real-time coordination of plug-in electric vehicle charging in smart grids," *IEEE Transactions on Smart Grid*, vol. 2, no. 3, pp. 456–467, 2011. https://doi.org/10.1109/TSG.2011.2159630
7. F. Ahmad, M. S. Alam, and M. A. S. Masoum, "Economic and environmental assessment of electric vehicle charging stations," *Renewable Energy*, vol. 146, pp. 236–246, 2020. https://doi.org/10.1016/j.renene.2019.06.114
8. M. Brenna, F. Foiadelli, and D. Zaninelli, "The impact of electric vehicle charging on distribution networks," *IEEE Industry Applications Magazine*, vol. 18, no. 2, pp. 22–32, 2012. https://doi.org/10.1109/MIAS.2011.2172215
9. H. Shareef, M. M. Islam, and A. Mohamed, "A review of the stage-of-the-art charging technologies, placement methodologies, and impacts of electric vehicles," *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, vol. 64, pp. 403–420, 2016. https://doi.org/10.1016/j.rser.2016.06.033
10. S. Habib, M. Kamran, and U. Rashid, "Impact analysis of vehicle-to-grid technology and charging strategies of electric vehicles on distribution networks," *Journal of Power Sources*, vol. 277, pp. 205–214, 2015. https://doi.org/10.1016/j.jpowsour.2014.12.020
11. A. Sortomme and M. A. El-Sharkawi, "Optimal charging strategies for unidirectional vehicle-to-grid," *IEEE Transactions on Smart Grid*, vol. 2, no. 1, pp. 131–138, 2011. https://doi.org/10.1109/TSG.2010.2090910
12. J. Tan and L. Wang, "Real-time charging navigation of electric vehicles to fast charging stations," *IEEE Transactions on Smart Grid*, vol. 8, no. 2, pp. 846–856, 2017. https://doi.org/10.1109/TSG.2015.2473681
13. Y. Zhang, N. Gatsis, and G. B. Giannakis, "Robust energy management for microgrids with high-penetration renewables," *IEEE Transactions on Sustainable Energy*, vol. 4, no. 4, pp. 944–953, 2013. https://doi.org/10.1109/TSTE.2013.2255131
14. N. R. Ullah et al., "Impact of electric vehicle charging on power distribution systems," Energies, vol. 13, no. 3, 2020. https://doi.org/10.3390/en13030675

ISSN 3030-3907

MAHALLIY BASALT XOM ASYOSI ASOSIDA PORTLANDSEMENT KLIKERI OLISH

Umarov Faxriddin Sharobiddinovish
Namangan davlat texnika universiteti kafedra dotsenti., PhD
Xamidjonov Samandar Akmaljon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti talaba
E-mail: https://namdtu.uz/:
Tel: 93-856-51-00

Annotation. This article examines the scientific basis for producing Portland cement clinker from basalt of the Osmansoy deposit. It analyzes the chemical composition of the raw material, phase equilibrium, thermodynamic and kinetic regularities, as well as the technological processes. The advantages of basalt as an alternative raw material for the cement industry are substantiated.

Keywords: basalt, Portland cement, clinker, calcium silicate, phase equilibrium, cement production.

Аннотация. В данной статье рассмотрены научные основы получения портландцементного клинкера из базальта месторождения Османсай, проанализированы химический состав сырья, фазовое равновесие, термодинамические и кинетические закономерности, а также технологические процессы. Обоснованы преимущества базальта как альтернативного сырья для цементной промышленности.

Ключевые слова: базальт, портландцемент, клинкер, кальций силикат, фазовое равновесие, производство цемента.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Osmansoy koni bazaltidan portlandsement klinkeri olishning ilmiy asoslari, xom ashyoning kimyoviy tarkibi, fazaviy muvozanat, termodinamik va kinetik qonuniyatlar hamda texnologik jarayonlar tahlil qilingan. Bazaltning sement sanoatida alternativ xom ashyo sifatidagi afzalliklari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bazalt, portlandsement, klinker, kalsiy silikat, faza muvozanati, sement ishlab chiqarish.

KIRISH.

Hozirgi kunda qurilish sanoatining jadal rivojlanishi butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham portlandsement ishlab chiqarish hajmini keskin oshirishni talab qilmoqda. Sement qurilish materiallari ichida asosiy bog‘lovchi modda bo‘lib, sanoat, infratuzilma va uy-joy qurilishida keng qo‘llaniladi. Aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilishi sementga bo‘lgan talabni yil sayin orttirib bormoqda.

ISSN 3030-3907

An’anaviy ravishda portlandsement ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo sifatida ohaktosh ($CaCO_3$) va gil jinslari ishlatiladi. Ushbu komponentlar tarkibida kalsiy, kremniy, alyuminiy va temir oksidlari mavjud bo‘lib, ular yuqori haroratda o‘zaro reaksiyaga kirishib klinker fazalarini hosil qiladi. Biroq bunday xom ashyo manbalarining cheklanganligi, ularni qazib olish va qayta ishlash jarayonida katta miqdorda energiya sarflanishi hamda atmosferaga CO_2 ajralib chiqishi ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ohaktoshning dekarbonizatsiya jarayonida katta hajmda karbonat angidrid ajralishi global iqlim o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sement ishlab chiqarishda alternativ va kompleks tarkibli xom ashyo manbalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday xom ashyolarga vulkanik va magmatik tog‘ jinslari, xususan bazaltlar kiradi. Bazalt — yer po‘stining keng tarqalgan magmatik jinslaridan biri bo‘lib, uning tarkibida asosiy oksidlar: SiO_2, Al_2O_3, Fe_2O_3, CaO va MgO mavjud. Ushbu komponentlar portlandsement klinkerining asosiy minerallari — kalsiy silikatlar, aluminatlar va ferritlarni hosil qilish uchun zarur hisoblanadi. Shu jihatdan bazaltni sement ishlab chiqarishda qo‘shimcha yoki asosiy xom ashyo sifatida qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi.

Bazalt jinslarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ular yuqori haroratda nisbatan tez suyuqlanib, reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega. Bu esa klinker hosil bo‘lish jarayonini tezlashtiradi va energiya sarfini kamaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, bazalt tarkibida temir oksidlarining mavjudligi suyuq faza hosil bo‘lishini osonlashtirib, fazalararo diffuziya jarayonini jadallashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida bazalt konlari keng tarqalgan bo‘lib, ulardan samarali foydalanish mahalliy xom ashyo bazasini mustahkamlash imkonini beradi. Xususan, Osmansoy koni o‘zining katta zahiralari va nisbatan barqaror kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi. Ushbu kon bazaltlarini sanoatda, ayniqsa sement ishlab chiqarishda qo‘llash transport xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va importga bog‘liqlikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, bazalt asosida sement ishlab chiqarish ekologik jihatdan ham foydali hisoblanadi. Chunki bu jarayonda karbonat xom ashyolar ulushi kamayib, CO_2 chiqindilari qisqaradi. Bu esa “yashil texnologiyalar”ni joriy etish va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Osmansoy koni bazaltini portlandsement klinkeri ishlab chiqarishda qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda bazaltning kimyoviy

ISSN 3030-3907

tarkibi, fazaviy o‘zgarishlari, klinker hosil bo‘lish mexanizmi va texnologik jarayonlarga ta’siri kompleks ravishda tahlil qilinadi.

Tadqiqotlarni o‘tkazish uchun biz Osmansoy konidan olingan bazalt, Jizzax ohaktoshi va Toshkent viloyati Bekobod shahridagi “Uzmetkombinat” MChJ metallurgiya korxonasining chiqindi shlaklaridan foydalanildi (1-jadval).

Materiallarning moddiy tarkibini aniqlash uchun spektral, to‘liq silikatli, rentgen-fazaviy va differensial-termik tahlillar bajarildi.

Kimyoviy tahlil natijalari (1-jadval) shuni ko‘rsatadiki, ularning tarkibida SiO_2, Al_2O_3, Fe_2O_3, CaO va boshqa asosiy komponentlar mavjud. Ma’lumki, ushbu oksidlar portlandtsement ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asosiy tarkibiy qismlar hisoblanadi. Shu bois Osmansoy konidan olingan bazalt portlandtsement ishlab chiqarish jarayonida gilli komponent sifatida qo‘llash imkoniyatlarini yanada batafsil o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Differensial-termik tahlil Paŭlik–Paŭlik–Erdey derivatografi yordamida, daqiqasiga 10° tezlikda, 0,138–0,149 g namunalar og‘irligida, goniometrlarning sezgirligi T–900, TG–200, DTA–1/10, DTG–1/10 sharoitlarida amalga oshirildi. Termik tahlil atmosfera sharoitida olib borildi.

1-Jadval

Xom ashyo moddalarining kimyoviy tarkibi


Xom ashyo ashyoning nomi	Oksidlar tarkibi, quruq moddasi og‘irligi%,									K.Y.	∑
	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	FeO	MgO	CaO	Na_2O	K_2O	TiO_2		
Jizzah ohaktoshi	1,55	0,60	0,14	-	0,6	53,4	0,04	0,06	0,03	42,25	98,67
Osmansoy koni bazalti	64,9	15,10	3,89	2,66	2,82	2,90	1,56	2 ,03	0,71	3,20	99,77
Uzmetkombinat toshqollari	20,1	-	7,25	16,2	4,30	14,20	36,07	0,1	0,2	1,25	99,5

Namuna uchun 10 mm diametrli qopqoqsiz korund tigelidan foydalanildi. Etalon sifatida Al_2O_3 qo‘llanildi. Derivatogrammalarni tahlil qilish uchun adabiyot manbalari [1, 2] dan foydalanildi.

Osmansoy konidan olingan bazalt qizdirish chizig‘ida (1-rasm) 127° va 348°C da ikkita endotermik effekt, hamda 570°, 686° va 790°C da uchta ekzotermik effekt kuzatildi. 127° va 348°C dagi endotermik effektlar zich tuzilishga ega g‘linistiy slanetsdan namlikning ajralib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular umumiy hisobda 0,62% massaning kamayishiga sabab bo‘ladi. 570°, 686° va 790°C dagi ekzotermik effektlar organik aralashmalar yonishi va kvartsning fazaviy o‘zgarishlarini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Biz bazalt asosida portlandsement klinkerini olish imkoniyatini o‘rganish maqsadida ikki va uch komponentli xom ashyo aralashmasini hisoblab chiqdik. Hisoblashlar to‘yinganlik koeffitsienti (TK) **va** silikat moduli (n) turli diapazonlarda amalga oshirildi. Portlandsement xom ashyo aralashmasini hisoblash respublikamiz va MDHda qabul qilingan umumiy metodika bo‘yicha bajarildi [3].



1-Rasm. Osmansoy koni bazaltining differensial-termik taxlili

- TK (to‘yinganlik koeffitsienti) – 0,85 dan 0,92 gacha;
- n (silikat moduli) – 2,2 dan 3,2 gacha.

Asosiy klinker minerallarining hisoblangan qiymatlari ham shu metodika bo‘yicha aniqlangan. Hisoblash natijalariga ko‘ra, olingan klinkerlarning mineraloji tarkibi TK va n qiymatlariga bog‘liq holda quyidagi diapazonda:

- C_3S = 50,9–65,0%;
- C_2S = 31,8–20,2%;
- C_4AF = 15,8–12,2%;
- C_3A = 1,3–12,7%.

Xom ashyo aralashmalari laboratoriya pechlarida **900–1450 °C** harorat oralig‘ida, haroratni 30 daqiqa ushlab turish sharti bilan kuydirildi. Kuydirilgan tarkiblarida asosiy sement minerallarining hosil bo‘lishi bog‘lanmagan CaO miqdori va rentgenofazaviy analiz orqali aniqlangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, TK qiymati oshgan sari bog‘lanmagan CaO miqdori proporsional tarzda ortadi**.** Shu bilan birga, 1400–1450 °C haroratgacha kuydirishda CaO ning so‘rilishi sezilarli darajada tezlashadi, va 1400 °C dan yuqori haroratlarda deyarli to‘liq so‘riladi. Hatto TK = 0,93 bo‘lgan tarkibda ham, 1400 °C ga yetganda bog‘lanmagan erkin CaO normativ chegaralarda bo‘ladi, 1450 °C ga yetganda esa uning miqdori atigi 0,3% ga kamayadi.

ISSN 3030-3907

Kimyoviy, differensial-termik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilganda, Osmansoy koni bazalti kimyo-mineraloji tarkibi bo‘yicha portlandsement klinkeri ishlab chiqarishda gilli component sifatida foydalanish mumkin ekanligi ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947 «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси» тўғрисидаги фармони
2. Топор Н.Д. Дифференциально-термический и термовесовой анализ минералов. М.: Недра, 1964. – 214 с. 2. Берг Л.Г. Введение в термографию. М.: Наука, 1969, 208 с
3. Берг Л.Г. Введение в термографию. М.: Наука, 1969, 208 с
4. Бутт Ю.М., Тимашев В.В. Практикум по химической технологии вяжущих материалов. Москва, 1973, 498 с.
5. Умаров, Ф. Ш., & Усманов, Х. Л. (2018). ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЦЕМЕНТА НА ОСНОВЕ ГЛИНИСТОГО СЛАНЦА. In ПРОБЛЕМЫ ГЕОЛОГИИ И ОСВОЕНИЯ НЕДР (pp. 479-480).
6. Кадырова, З. Р., Усманов, Х. Л., Эркабаев, Ф. И., & Умаров, Ф. Ш. (2011). Влияние глинистых сланцев Деванасайского проявления на процесс образования портландцементных минералов. Сухие строительные смеси, (6), 22-23.
7. Umarov F., Jaloldinov A., Yuldasheva N. PHYSICO-CHEMICAL PROCESSES OF CEMENT HYDRATION USING SHALES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A3. – С. 5-7.

ISSN 3030-3907

UDK 666.942

KON-METALLURGIYA KOMBINATI FLOTOCHIQINDILARINI QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISHDA UTILIZASIYA QILISH YO‘LLARI

Umarov Faxriddin Sharobiddinovish
Namangan davlat texnika universiteti kafedra dotsenti., PhD
Mamadaliev Ilxomboy Muhsinboy o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti talaba
E-mail: https://namdtu.uz/:
Tel: 93-856-51-00

Abstract. The article studies the chemical and mineralogical composition of copper-molybdenum flotation wastes of the Almalyk Mining and Metallurgical Combine (OMC) and considers scientific and practical ways of their utilization in the production of building materials (cement, ceramic brick, heavy and light concrete, cellular concrete). The silica content of the wastes allows them to be used as raw materials for silicate materials. As a result of the research, it was found that by replacing the wastes by 20–50%, it is possible to maintain the mechanical strength and environmental safety of building materials.

Keywords: flotation wastes, Almalyk KMK, utilization, building materials, cement, brick, aerated concrete, ceramic brick, silica, environmental safety, KBF, MBF, slag, alite, belite, tetracalcium aluminate.

Аннотация. В статье исследован химико-минералогический состав медно-молибденовых флотационных отходов Алмалыкского горно-металлургического комбината (ГМК) и рассмотрены научные и практические пути их использования в производстве строительных материалов (цемента, керамического кирпича, тяжелого и легкого бетона, ячеистого бетона). Содержание кремнезема в отходах позволяет использовать их в качестве сырья для получения силикатных материалов. В результате исследований установлено, что при замене отходов на 20–50% удается сохранить механическую прочность и экологическую безопасность строительных материалов.

Ключевые слова: флотационные отходы, Алмалыкский ХМК, утилизация, строительные материалы, цемент, кирпич, газобетон, керамический кирпич, кремнезем, экологическая безопасность, КБФ, МБФ, шлак, алит, белит, тетракальцийалюминат.

Annotatsiya. Maqolada Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) med-molibden flotatsiya chiqindilarining ximiyaviy-mineralogiik tarkibi o‘rganilgan va ularni qurilish materiallari (sement, keramik g‘isht, og‘ir va engil beton, yacheistiy

ISSN 3030-3907

beton) ishlab chiqarishda utilizasiya qilishning ilmiy-amaliy yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Chiqindilarning kremnezemli boyligi ularni silikatli materiallar uchun xom ashyo sifatida qo‘llash imkonini beradi. Tadqiqotlar natijasida chiqindilarni 20–50 % hajmda almashtirish orqali qurilish materiallarining mexanik mustahkamligi va ekologik xavfsizligini saqlab qolish mumkinligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: flotatsiya chiqindilari, Olmaliq KMK, utilizasiya, qurilish materiallari, sement, g‘isht, gazobeton, keramik g‘isht, kremnizyom, ekologik xavfsizlik, QBF, MBF, shlak, alit, belit, to‘rtkalsiylialyuminat.

KIRISH.

Konchilik va metallurgiya sanoati birlik ishlab chiqarilayotgan materialga nisbatan eng ko‘p miqdorda chiqindi hosil qiladigan tarmoqlar qatoriga kiradi. Bunday korxonalardan biri Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) O‘zbekistonning eng yirik rangli metallurgiya korxonasi bo‘lib, yiliga o‘n millionlab tonna ruda qayta ishlaydi. Mis-molibden rudalarini flotatsiya usulida boyitish jarayonida katta hajmdagi chiqindilar – flotochqindilar (xvostlar) hosil bo‘ladi. Ushbu chiqindilarning aksariyati xvost saqlagichlarda to‘planadi, bu esa ekologik xavf (og‘ir metallarning er osti suvlariga o‘tishi, chang tarqalishi) va er resurslarining band bo‘lishiga olib keladi.

Dunyo amaliyotida (Xitoy, Kanada, Avstraliya, Rossiya) tog‘-kon chiqindilarini qurilish materiallari ishlab chiqarishda utilizasiya qilish keng tarqalgan. Xususan, kremnezem (SiO_2) va alyuminiy oksidi (Al_2O_3) boy chiqindilar sement klinikeri, g‘isht, beton to‘ldirgichlari sifatida ishlatiladi. O‘zbekiston sharoitida OKMK chiqindilarini utilizasiya qilish iqtisodiy va ekologik jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

OKMKning Qalmoqqir va boshqa konidagi medno-molibden rudalarining flotochqindilari asosan kvars, polevoy shpat, serisit, xlorit, pirit va boshqa minerallardan iborat. Ximiyaviy tarkibi quyidagicha (o‘rtacha ma'lumotlar, %):

1-jadval

OKMK flotochqindilarining o‘rtacha ximiyaviy tarkibi

Oksid	Mazmuni, % mass.	Izohlar
SiO_2	62–72	Asosiy komponent, silikatli materiallar uchun
Al_2O_3	12–18	Alyumosilikatli faza
Fe_2O_3	4–8	Ranglilik beradi, lekin 10% dan oshmasligi kerak
CaO	2–6	Sementning gidravlik faolligini oshiradi
SO_3	0,5–2	Pirit oksidlanishi natijasida xosil bo‘ladi
Cu	0,02–0,08	Qoldiq mis
Mo	0,01–0,01	Qoldiq molibden

ISSN 3030-3907

R_2O	0,001–0,01	mikroelementlar

Chiqindilarni qurilish materiallarida qo‘llash yo‘nalishlari

Sement ishlab chiqarishda: Flotochqindilar SiO_2 ga boyligi tufayli sement xom ashyosining kremnezyomli komponenti sifatida 20–40 % gacha almashtiriladi. Tadqiqotlarda (masalan, Olmaliq chiqindilari asosida) 30 % chiqindi qo‘shilganda PS 400 markali sement olinadi, mustahkamlik 28 kunda 42–48 MPa ga etadi.

Keramik g‘isht va bloklar ishlab chiqarishda: Chiqindilarni 50–70 % hajmda glina o‘rniga qo‘llash mumkin. Kuydirish harorati 950–1050 °C. Natiyjada g‘ishtning siqilish mustahkamligi 15–25 MPa, suv so‘rishi 12–16 % bo‘ladi.

Og‘ir beton va to‘ldirgich sifatida: Qumning 30–100 % chiqindi bilan almashtirish orqali M300–M400 markali beton olinadi. Mustahkamlikning pasayishi 5–10 % dan oshmaydi.

Gazobeton ishlab chiqarishda: Chiqindilar kvars qumi o‘rniga 40–60 % qo‘shiladi. Avtoklavda qayta ishlashda zichligi 500–700 kg/m³, mustahkamligi 2,5–5 MPa bo‘lgan gazobeton olinadi. Bu yo‘nalish eng istiqbollisi – chiqindilarning mayda dispersligi gaz hosil qilish jarayonini yaxshilaydi.

2-jadval.

Turli qurilish materiallarida chiqindilarning ulush va mexanik ko‘rsatkichlari

Material tarkibi	Chiqindi ulushi, %	Siqilish mustahkamligi, MPa	Zichlik, kg/m³	Manba/tajriba
Odatdagi sement	0	45	3100	Standart
Sement + chiqindi	30	42–46	3050	O‘z tadqiqot
Keramik g‘isht (glina + chiqindi)	60	18–22	1700	Laboratoriya
Og‘ir beton (qum + chiqindi)	50	35–40	2350	Tadqiqot
Gazobeton (qum + chiqindi)	50	3,5–4,5	600	Avtoklav usuli

Shu nuqtai nazardan, Olmaliq KMKning qo‘rg‘oshin boyitish fabrikasi (QBF) va mis boyitish fabrikasi (MBF) flotasiya chiqindilarini bog‘lovchi

ISSN 3030-3907

materiallar ishlab chiqarishda qo‘llash imkoniyatini o‘rganish katta qiziqish uyg‘otadi. Xom ashyo sifatida Shovozsoy ohaktoshi hamda Olmaliq KMKning qo‘rg‘oshin va mis boyitish fabrikalari flotatsiya chiqindilari quyidagi ximiyaviy tarkibga ega bo‘lgan holda ishlatilgan.

3-jadval

Xom ashyolarning kimyoviy tarkibi

Nomlanishi	K.y.	SiO_2	Al_2O_3	F_2O_3	CaO	MgO	SO_3 Умум.	R_2O	summa
Flotochiqindi QBF	8.63	44.47	9.93	4.45	15.32	8,89	2.31	2,13	96.13
Flotochiqindi MBF	4.71	61.18	14.61	9.86	1.31	0.11	5.69	4.18	101.65
Oxaktosh	40.92	4.11	1.0	0.20	52.11	1.06	0.10	0.21	99.61

Portlandsement xom ashyo aralashmalari to‘yinganlik koeffisienti (KN) = 0,75 dan 0,95 gacha, silikat moduli (n) = 2,1 dan 2,4 gacha oraliqdagi qiymatlar bo‘yicha hisoblangan. Kuydirish harorati sement zavodlarida odatda qo‘llaniladigan 1400–1450 °C ga muvofiq qilib belgilangan.

Qo‘rg‘oshinni boyitish fabrikasi (QBF) flotochiqindilari asosida sifatli sement klikerlari olish alita va belit fazalarining yaxshi kristalllangan shaklda hosil bo‘lishi bilan ajralib turadi. Bu jarayon mineralogik tarkibda yirik kristallli kvarsning nisbatan kam miqdori (15–18 %) va suyuq faza hosil bo‘lishi uchun qulay bo‘lgan minerallar – dala shpatlari, gidroslyudalar, kalsiy va magniy silikatlari mavjudligi bilan izohlanadi.

Misni boyitish fabrikasi (MBF) flotochiqindilari asosida olingan sement klikerlari ham portlandsement klikerining asosiy mineral fazalari (alita, belit, uchkalsiyli alyuminat, to‘rtkalsiyli alyumoferrit)ning yaxshi shakllangan kristallari mavjudligini namoyon qildi, kuydirish harorati 1380–1430 °C oralig‘ida amalga oshirildi.

Qo‘rg‘oshinni (QBF) va misni boyitish fabrikasi (MBF) chiqindilari asosida olingan sementlarning gidratasiya jarayoni rentgen-fazalik va petrografik tadqiqotlar bilan o‘rganilganda, u odatdagi portlandsementlarga xos bo‘lgan bosqich bilan kechayotgani aniqlangan: ya'ni yangi gidratli fazalar (kalsiy gidrosilikatlari, portlandit, ettringit va boshqalar)ning mineral hosil bo‘lishi bosqichma-bosqich, an'anaviy portlandsementlardagidek sodir bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

4-jadval

Na’munalarning fizik-mexanik xossalari

№ tarkib	Qotish muddati		Siqilishga mustahkamligi, MPa		
	Boshlan.	Tugashi	3 sut.	7 sut.	28 sut.
1	125	185	12,0	21,4	41,3
2	120	170	12,5	22,0	42,0
3	130	190	12,2	21,0	40,8

Tajriba sinovlari shuni ko‘rsatdiki, QBF va MBF flotochiqindilari asosida olingan sementlar normal saqlash sharoitida 28 kunlik qotish muddatida siqilishdagi chegaraviy mustahkamligi 52,0–54,0 MPa ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich ushbu klikerlardagi alit va belit kristallarining yuqori reaksion qobiliyati bilan izohlanadi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida QBF va MBF flotochiqindilari asosida 1380–1430 °C kuydirish haroratida portlandsement klikerlarini olish imkoniyati isbotlandi hamda olingan sementning fizika-mexanik xususiyatlari o‘rganildi. 400–500 markali portlandsement olish mumkinligi tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бутт Ю.М., Тимашев В.В. Практикум по химической технологии вяжущих материалов. Москва, 1973,498 с.
2. Холина И.И. Справочник по производству цемента. Москва, Госстройиздат,1963 г., 851с.
3. Шпынова Л.Г. Формирование и генезис микроструктуры цементного камня. Львов. Вища школа. 1975 г. 157с.
4. Тимашев В.В. Синтез и гидратация вяжущих материалов. М. Наука,1986, 424 с.
5. Умаров, Ф. Ш., Нимчик, А. Г., Усманов, Х. Л., & Кадирова, З. Р. (2019). Термографическое исследование процессов гидратации цемента с глинистыми сланцами. Universum: химия и биология, (11-2 (65)), 14-20.
6. Ниязова, Ш. М., Кадырова, З. Р., & Умаров, Ф. Ш. (2018). УТИЛИЗАЦИЯ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ ШЛАКОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. In Энерго-ресурсоэффективность в интересах устойчивого развития (pp. 180-181).
7. Умаров, Ф. Ш., & Усманов, Х. Л. (2018). ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЦЕМЕНТА НА ОСНОВЕ ГЛИНИСТОГО СЛАНЦА. In ПРОБЛЕМЫ ГЕОЛОГИИ И ОСВОЕНИЯ НЕДР (pp. 479-480).

ISSN 3030-3907

8. Кадырова, З. Р., Усманов, Х. Л., Эркабаев, Ф. И., & Умаров, Ф. Ш. (2011). Влияние глинистых сланцев Деванасайского проявления на процесс образования портландцементных минералов. Сухие строительные смеси, (6), 22-23.
9. Umarov F., Jaloldinov A., Yuldasheva N. PHYSICO-CHEMICAL PROCESSES OF CEMENT HYDRATION USING SHALES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A3. – С. 5-7.
10. Eminov, A., Jumanov, Y., Umarov, F., & Sayfiddinov, O. (2022).
11. O‘ZBEKISTON KAOLINLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. Science and innovation, 1(A6), 367-373.
12. Усманов, Х. Л., Кадырова, З. Р., Эркабаев, Ф. И., Умаров, Ф., & Ходжаев, Н. Т. (2010). Возможности использования глинистых сланцев Деванасайского месторождения в качестве сырьевого компонента цементного клинкера. Технологии бетонов, (5-6), 38-40.

ISSN 3030-3907

KONCHILIKDA SHOVQIN VA TEBRANISHLAR TA'SIRIDAN KELIB CHIQADIGAN KASB KASALLIKLARINING OLDINI OLISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Norqulov Abbos Chori o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti assistenti:
E-mail: abbosnorqulov008@gmail.com
Tel: +998912345007
Axmedov Alisher Parda o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti assistenti:
E-mail: alisherahmedov1001@gmail.com
Tel: +998937630045

Annotatsiya. Ushbu maqolada konchilik sanoatida yuzaga kelgan shovqin va tebranishlarning ishchilar sog'lig'iga ta'siri tahlili. Shovqin vibratsiya natijasida kelib chiqadigan kasb kasalliklari, uning ishlashi, asab tizimining ishlashi hamda tayanch-harakat tizimi muammolari ko'rib chiqiladi. Maqolada mehnatdan foydalanishga rioya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishchilarni muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: konchilik sanoat, shovqin, tebranish, kasb kasalliklari, mehnat resurslari, ishlab chiqarish, profilaktika, ishlab chiqarish, ishchi vibratsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние шума и вибрации на здоровье работников горнодобывающей промышленности. Рассматриваются профессиональные заболевания, вызванные шумом и вибрацией, их функционирование, функционирование нервной системы и проблемы опорно-двигательного аппарата. В статье обосновывается важность соблюдения трудового законодательства, внедрения современных технологий и регулярных медицинских осмотров работников.

Ключевые слова: горнодобывающая промышленность, шум, вибрация, профессиональные заболевания, трудовые ресурсы, производство, профилактика, производство, производственная вибрация.

Abstract. This article analyzes the impact of noise and vibration on the health of workers in the mining industry. Occupational diseases caused by noise and vibration, its functioning, functioning of the nervous system and problems of the musculoskeletal system are considered. The article substantiates the importance of compliance with labor regulations, the introduction of modern technologies and regular medical examinations of workers.

Keywords: mining industry, noise, vibration, occupational diseases, labor resources, production, prevention, production, occupational vibration.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Ish beruvchi shovqin va tebranishning kuchayishi kabi xavf-xatarlar bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat sharoitlarining samarali monitoringini amalga oshirishi shart. Masalan, mashina va mexanizmlarni vibratsion nazorat qilish, bu doimiy ravishda (yilda bir marta) amalga oshiriladi, har bir ta’mirlashdan keyin yoki mexanizm o‘zgarganda tanlab nazorat qilish (davlat sanitariya standartlari DTS 3.3.6. 039-99 9.6-band).

Ish beruvchi ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan shovqin va tebranish kabi zararli omillarni muntazam ravishda nazorat qilib borishi zarur. Bunday monitoring tizimi xodimlarning sog‘lig‘ini saqlash, kasb kasalliklarining oldini olish hamda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shovqin va vibratsiya darajasining me’yorlardan oshib ketishi eshitish qobiliyatining pasayishi, asab tizimi buzilishlari va umumiy charchoqni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli ish beruvchi ushbu xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uchun maxsus o‘lchov vositalari hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi lozim.

Mashina va mexanizmlarni vibratsion nazorat qilish muhim profilaktik choralar qatoriga kiradi. Vibratsiya darajasini o‘lchash orqali uskunalarning texnik holati aniqlanadi, ularning nosozliklari erta bosqichda aniqlanib, jiddiy avariyalar oldi olinadi. Bunday nazorat odatda yiliga kamida bir marta reja asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida qo‘shimcha ravishda davriy tekshiruvlar ham o‘tkazilishi tavsiya etiladi.

Har bir ta’mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng yoki mexanizm tarkibida o‘zgarishlar kiritilganda tanlab nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Chunki ta’mirdan chiqqan yoki modernizatsiya qilingan uskunalarda yangi tebranish manbalari paydo bo‘lishi mumkin. Tanlab nazorat qilish orqali ushbu o‘zgarishlarning xavfsizlik talablariga mosligi tekshiriladi va zarur hollarda qo‘shimcha sozlash ishlari amalga oshiriladi. Bu esa texnik nosozliklarning oldini olib, ishlab chiqarishdagi xavfsizlik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, ish beruvchi monitoring natijalarini hujjatlashtirib borishi va ularni tahlil qilish orqali uzoq muddatli xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Xodimlarga shovqin va tebranishning zararli ta’siri haqida muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borilishi, shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash ham muhim hisoblanadi. Kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan monitoring tizimi nafaqat mehnat sharoitlarini yaxshilaydi, balki korxonaning umumiy samaradorligini ham sezilarli darajada oshiradi.

Profilaktik tadbirlar shovqin va tebranish ta’siridan kelib chiqadigan kasalliklar paydo bo‘lishining oldini olishi mumkin [1].

ISSN 3030-3907



1-rasm

Uran ishlab chiqarishda ish joyida shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishda xavfsizlik va salomatlikka qo‘yiladigan minimal talablar 2022-yil 29-noyabrdagi 1804-sonli me’yoriy hujjatda ko‘rsatilgan. Ushbu minimal talablar Yevropa Ittifoqining direktivalari asosida ishlab chiqilgan, ya’ni: No 89/391, 16-moddaning 1-qismi. Bundan tashqari, umumiy va mahalliy ishlab chiqarish tebranishlari 39-sonli davlat sanitariya standartlari, 156-sonli ishchilarni kasbiy xavflardan himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar va Eshitish qobiliyatini himoya qilish vositalarini tanlash, qo‘llash, tashqi ko‘rinishi va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar (EN 458: 2004, IDT) DSTU EN 458: 2005, No 187 bilan tartibga solinadi [2].

1804-sonli minimal talablarning 5-bandiga muvofiq, shovqin darajasi 80 dB dan oshganda eshitish qobiliyatini himoya qilish uchun naushniklar, quloqchinlar va shovqindan himoyalovchi dubulg‘alardan foydalanish tavsiya etiladi - bunday ishlar uchun:

- metall presslarda;
- pnevmatik asboblar, perforatorlar bilan;
- nasos uskunalaridan foydalanish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish vaqtida;
- tagliklarni to‘ldirish uchun kopra bilan;
- aeroportlardagi yer usti xodimlari;
- yog‘ochsozlik sanoatida.

Har bir xodim uchun 1804-sonli me’yoriy hujjatga muvofiq shaxsiy himoya vositalarini tanlash va foydalanishni asoslash uchun uning shaxsiy himoya vositalari kartasi va xavf-xatarlar jadvali tuzilishi kerak[8].

Xodimlarning eshitish organlarini turli shovqinlarning salbiy ta’siridan himoya qilish uchun EN 352-1 va EN 352-2 ga muvofiq keladigan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish lozim.

ISSN 3030-3907



2-rasm

Yuz va bosh machtani himoya qilish uchun shovqinga qarshi quloqchinlar, shlemlar va qalqonlar bilan jihozlangan.

Tog‘-kon va qurilish sanoati ishchilarining shovqin va tebranish bilan kasallanish statistikasini tahlil qilish bizga kasalliklarning oldini olish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

1. Har bir himoya turi (naushnik yoki quloqchin) ish joyidagi shovqin ta’sirining ustunlik qiluvchi chastota diapazoniga qarab muayyan ish sharoitlari uchun tanlanishi kerak (1-jadval).

1-jadval

Shaxsiy himoya vositalarining texnik tavsiflari

Chastota Gs	63	125	250	500	1000	2000	4000	8000
Quloqlik/Antinoys unumdorligi								
So‘nish koeffitsiyenti, dB	4,0/ 33,4	3,1/ 34,1	1,9/ 35,5	8,6/ 37,6	29,0/ 34,9	29,7/ 35,7	37,1/ 42,5	31,9/ 44,1
Og‘ishlar, dB	2,0/4,6	3,6/4	2,4/4,6	2,7/4	3,0/5	3,2/2	4,0/2,9	6,3/4,2
Himoya chegarasi, dB	9,0/ 28,8	9,5/ 29,4	9,5/ 30,9	15,9/ 33,5	26,0/ 29,9	26,5/ 32,9	33,1/ 39,6	25,6/ 39,9

2. Quloqchinlar quyidagi ish turlarida (120-125 dB shovqin darajasida) tavsiya etiladi: statsionar kon qurilmalarida, tunnel pnevmatik uskunalarida, burg‘ilashda va kompressorlarga texnik xizmat ko‘rsatishda.

Ko‘p marta ishlatiladigan gilzalar (egiluvchan polimerlardan tayyorlangan)

ISSN 3030-3907

105-110 dB shovqindan himoya qilish uchun tavsiya etiladi. Bir martalik gilzalar tog‘-kon va qurilish korxonalari ishchilariga 100-105 dB darajadagi ishlab chiqarish shovqini ta’sirida tavsiya etiladi [5].

3. Shovqin va tebranish kuchaygan manbalar bilan bevosita ishlaydigan konchilar va quruvchilar mehnat va dam olish rejimi bo‘yicha tavsiyalarga rioya qilishlari kerak (2-jadval).

2-jadval Ta’sir ostida ishlayotgan ishchilar uchun mehnat va dam olish bo‘yicha tavsiyalar

2-jadval

Shovqin va tebranishga

	Rejim faoliyat	Shovqin va vibratsiyaning salbiy ta’sirini oldini olish chora-tadbirlari
1.	**oylik**	Dam olish va ish kunlarining bir xilda taqsimlanishi. Jami salbiy omillar bilan ishlashning oylik davomiyligi 18 kundan oshmasligi kerak.
2.	**haftalik**	Boshqa ish smenalariga o‘tish har 5 kunda amalga oshirilishi kerak.
3.	**har kuni**	Ortiqcha ishlashni taqiqlash. Tungi smenalar qisqartirildi. Ish smenalari oralig‘ida kamida ikki smena dam olish.
4.	**almashinuv rotatsiyasi**	Shovqin va tebranish bilan doimiy aloqada bo‘lgan texnologik ish vaqti grafigini taqsimlash - majburiy ikki karra qo‘shimcha tanaffus bilan. Birinchi tanaffus 20 daqiqa davom etishi kerak - dastlabki ikki soatlik ishdan so‘ng. Ikkinchi tanaffus kunduzgi ikki soatlik ishdan so‘ng 30 daqiqa davom etishi kerak. Smena davomida doimiy bo‘lmagan shovqin va tebranish bilan ishlash uchun uni muntazam ravishda almashtirib turish tavsiya etiladi. Salbiy shovqin va tebranish omillari bilan va ularsiz.

4. Ishchilarning sog‘lig‘ini doimiy nazorat qilish va ularni sog‘lomlashtirish uchun muntazam ravishda profilaktik fizioterapevtik muolajalar o‘tkazish zarur.

Taklif etilgan tavsiyalarga rioya qilish shovqin va tebranish ta’siridan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kasbiy kasalliklarning oldini olish, malakali ishchilarning mehnatga layoqatli yoshini uzaytirish va mehnat madaniyatini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vasilev A.A., Dromiadi A.A., Ivanov D.S., Popov D.V., Ponomareva E.A. Yuk ko‘tarish inshootlarining xavfsiz ishlashini buzish bilan bog‘liq jarohatlar, baxtsiz hodisalar va hodisalarning sabablari // KubSTU ilmiy ishlari. 2015. № 9. 102–111 betlar.

ISSN 3030-3907

2. Fedina E.V., Pushchenko S.L. Minora kranlarini ishlatish paytida jarohatlarning asosiy sabablarini tahlil qilish [Elektron resurs] // Don muhandislik byulleteni. 2012. № 4. URL: http://www.ivdon.ru/magazine/archive/n4p1y2012/1165 (15.09.2018).
2. Xavfli sanoat obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida: Rossiya Federatsiyasining 1997-yil 21-iyuldagi 116-FZ-sonli Federal qonuni (2017-yil 7-martda o‘zgartirilgan holda) [Elektron resurs] // ConsultantPlus – ishonchli huquqiy yordam. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_15234/ (2018-yil 15-sentabr).
3. Atrof-muhit, texnologik va yadroviy nazorat bo‘yicha federal xizmatning 2014-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobot [Elektron resurs] // Rostexnadzor faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobotlar. URL: http://www.gosnadzor.ru/public/annual_reports/%D0%93%D0%94%202014.pdf (15.09.2018).
4. Shilyaev T.A., Kolesova E.N., Kaloshina S.V. Kranlardan foydalanishda avariyalar va hodisalarning sabablarini tahlil qilish [Elektron resurs] // Qurilish va arxitektura. Tajriba va zamonaviy texnologiyalar. 2015. 5-son. URL: http://sbornikstf.pstu.ru/council/?n=5 (15.09.2018).
5. Kuzmina O.V. Yuk ko‘tarish mashinalarini ishlatish paytida xavfsizlikni ta'minlash // Yosh olim. 2016. № 27. 87–91-betlar.
6. Sanoat xavfsizligi bo‘yicha federal normalar va qoidalar "Sanoat xavfsizligi ekspertizasini o‘tkazish qoidalari"; Atrof-muhit, texnologik va yadroviy nazorat bo‘yicha federal xizmatning 2013-yil 14-noyabrdagi 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan. [Elektron resurs] // Rossiya Federatsiyasi qonunlari, kodekslari va normativ-huquqiy hujjatlari. URL: http://legalacts.ru/doc/prikaz-rostekhnadzora-ot-14112013-n-538-ob/ (05.05.2018).
7. Malyutin L. Yuk mashinasi kranlari xavfsizlik moslamalari [Elektron resurs] // Asosiy vositalar. 2015. URL: https://os1.ru/article/4370-pribory-bezopasnosti-avtokranov (05.05.2018).
8. Yuk ko‘tarish transport vositalarini ishlatish paytida xavfsizlik masalalari [Elektron resurs] // Yagona standart. Rasmiy veb-sayt. URL: https://1cert.ru/stati/problemy-bezopasnosti-pri- ekspluatatsii-gruzopodemnykh-transportnykh-sredstv (09.29.2018).
9. Panova Z.N., Gorbunova L.N. Yuk ko‘tarish kranlarini ishlatish paytida shikastlanishlar va baxtsiz hodisalar tahlili // KrasSAU byulleteni. 2012. 7-son. 175–180-betlar.
10. Sanoat xavfsizligi sohasidagi federal normalar va qoidalar “Yuk ko‘tarish inshootlari ishlatiladigan xavfli sanoat ob'ektlari uchun xavfsizlik qoidalari;

ISSN 3030-3907

tasdiqlangan. Atrof-muhit, texnologik va yadroviy nazorat bo‘yicha federal xizmatning 12.11.2013 yildagi 533-sonli buyrug‘i bilan [Elektron resurs] // "Kodeks" konsorsiumi. Huquqiy va me'yoriy-texnik hujjatlarning elektron fondi. URL: http://docs.cntd.ru/document/499060049 (05.05.2018).

11. Minora kranlaridagi avariyalar: kim aybdor va nima qilish kerak? [Elektron resurs] // "Mixnevskiy ta'mirlash-mexanika zavodi" OAJ. 2006. 22-son. URL: https://www.mrmz.ru/article/v22/article1.htm (10.05.2018).

ISSN 3030-3907

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISHDAGI BAXTSIZ HODISALARNI KAMAYTIRISH

Norqulov Abbos Chori o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti assistenti:
E-mail: abbosnorqulov008@gmail.com
Tel: +998912345007
Hamidov Sodiqjon Abduholiq o‘g‘li
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti 1-kurs magistranti
E-mail: Sodiqhamidov4@gmail.com
***Tel:* +998503015140**

Annatatsiya. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan baxtsiz hodisalar mehnat xavfsizligi va xodimlar salomatligiga jiddiy tahdid soladi. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni kamaytirishning asosiy yo‘nalishlari, ularning sabablari va oldini olish mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, texnik xavfsizlik choralarini kuchaytirish, xodimlarni muntazam o‘qitish va malakasini oshirish, ishlab chiqarish muhitini sanitariya-gigiyena talablariga moslashtirish hamda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali xavfsizlik darajasini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va baxtsiz hodisalar sonini kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Mehnat xavfsizligi, baxtsiz hodisalar , sanoat korxonalari, profilaktika choralar, raqamli monitoring,sanitariya-gigiyena, xavfsizlik madaniyati, ishlab chiqarish jarayoni

Аннотация. Несчастные случаи, происходящие в процессе производства на промышленных предприятиях, представляют серьезную угрозу для охраны труда и здоровья работников. В данном исследовании анализируются основные направления снижения числа несчастных случаев на производстве, их причины и механизмы предотвращения. В частности, рассматриваются возможности повышения уровня безопасности за счет усиления технических мер безопасности, регулярного обучения и повышения квалификации персонала, адаптации производственной среды к санитарно-гигиеническим требованиям и внедрения цифровых систем мониторинга. Результаты исследования указывают на необходимость комплексного подхода, направленного на формирование культуры безопасности на промышленных предприятиях и снижение числа несчастных случаев.

Ключевые слова: охрана труда, несчастные случаи, промышленные предприятия, профилактические меры, цифровой мониторинг, санитарно-

ISSN 3030-3907

гигиенические требования, культура безопасности, производственный процесс.

Abstract. Accidents occurring during the production process at industrial enterprises pose a serious threat to occupational safety and employee health. This study analyzes the main areas of reducing accidents at work, their causes and prevention mechanisms. In particular, the possibilities of increasing the level of safety through strengthening technical safety measures, regular training and advanced training of employees, adapting the production environment to sanitary and hygienic requirements, and introducing digital monitoring systems are considered. The results of the study indicate the need for an integrated approach aimed at forming a safety culture at industrial enterprises and reducing the number of accidents.

Keywords: Occupational safety, accidents, industrial enterprises, preventive measures, digital monitoring, sanitary and hygienic, safety culture, production process

KIRISH.

Ishlab chiqarish jarohatlari va kasalliklarining yuqori darajasi kompaniyalar va davlat uchun katta moliyaviy yo‘qotishlarga olib keladi. Maqolada ushbu muammoni hal qilishda tizimli yondashuv ko‘rib chiqilgan va ishlab chiqarish korxonalarida mehnatda jarohatlanish darajasini kamaytirish yo‘llari taklif etilgan.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar muammosi

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining asosini uchta zaruriy tarkibiy qism tashkil etadi: inson kapitali, moddiy kapital va tabiiy resurslar. Ushbu kapitallarning YaIMni yaratishdagi ulushlari nisbati milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga, ishchi kuchining malaka darajasiga va tabiiy resurslarning mavjudligiga bog‘liq. Inson kapitalini saqlash va rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun juda muhimdir, chunki fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan yuqori malakali kadrlarni talab qiladigan yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari yaratilmoqda.

Inson kapitalini saqlash va rivojlantirish muammosi — bu ishlab chiqarishda jarohatlanish darajasini pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni loyihalash muammosidir. Bugungi voqelikning o‘ziga xos xususiyati mehnatda jarohatlanish darajasining yuqoriligidir. Ta’kidlanishicha, ishlab chiqarish qanchalik texnologik jihatdan murakkab bo‘lsa, baxtsiz hodisalar ehtimoli va yuqori malakali xodimlarning yo‘qolish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, har 15 soniyada 153 kishi ish joyida jarohat oladi va bir kishi ish bilan bog‘liq jarohat yoki kasb kasalligi oqibatida vafot etadi. Ushbu sabablardan jahon iqtisodiyotiga

ISSN 3030-3907

yetkaziladigan yillik zarar taxminan 2,8 trillion dollarni yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 4 foizini tashkil etadi [http://www.ilo.org].

O‘zbekistonda 2020-yilda 8,5 ming kishi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabr ko‘rgan, 2 milliondan ortiq kishi zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida ishlagan. Ishlab chiqarishda mayiblanish, shuningdek ish vaqtining qisqartirilishi va qo‘shimcha ta’tillar munosabati bilan (ish joyida zararli yoki xavfli ishlab chiqarish omillari aniqlanganda xodimlarga beriladi) 139,7 million kishi-kuni yo‘qotildi, natijada 586,34 trillion dollr ishlab chiqarish yetishmadi, bu YaIMning taxminan 0,55% ni tashkil qiladi [1].

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish jarohatlarini kamaytirish yo‘llari

Mehnat sharoitlarini yaxshilash va xodimlar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha davlat va tashkilotlar darajasida chora-tadbirlar amalga oshirildi: korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni ta’minlashni boshqarish tizimlarini majburiy rivojlantirish talablari joriy etildi, xodimlarni tayyorlash va shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash qoidalariga o‘zgartirishlar kiritildi, shuningdek, mikrojarohatlarni hisobga olish va tahlil qilish tavsiya etildi. Hukumat tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramay, og‘ir va o‘limga olib keladigan kasbiy baxtsiz hodisalar soni ortib bormoqda, bu esa davlat yo‘qotishlarini ko‘paytirmoqda.

Ishlab chiqarishda jarohatlanishlar sonining muttasil o‘sib borishi korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olish tadbirlarini yanada samarali o‘tkazishni taqozo etadi. Samaradorlikni oshirish yo‘llarini quyidagicha tavsiya etish mumkin:

ish joyida mavjud bo‘lgan xavflarni aniqlashda tizimli yondashuvni qo‘llash, bu keyinchalik ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish uchun ko‘proq xavflarni aniqlash imkonini beradi;

NATIJA VA MUHOKAMA. Kremniyni ajratish uchun $Al_2(SO_4)_3$ va $Fe_2(SO_4)_3$ dan foydalanish yuqori darajada cho'kma hosil bo'lishiga yordam berdi [6,7]. Olib borilgan tajribadan shuni ma'lum bo'ldiki, $Al_2(SO_4)_3$ va $Fe_2(SO_4)_3$ reagentlarining belgilangan miqdordan 2–3 % ga ortiqcha sarflanishiga olib keldi, bu esa ishlab chiqarishda iqtisodiy jihatdan samarali bo'lmasligi mumkin [8].

ISSN 3030-3907

Reaksiya tenglamalari quyidagicha ifodalanadi:

$Al_2(SO_4)_3 \rightarrow 2Al^{3+} + 3SO_4^{2-} 2Al^{3+} + 3Si(OH)_4 \rightarrow Al_2O_3 \cdot 3SiO_2 \cdot nH_2O\downarrow + 6H^+$

Bu yerda kremniy va alyuminiy gidroksidli gel ko‘rinishida cho‘kdi. Ilmiy ishda serpentinit minerali tarkibidagi Mg ni eritmaga o‘tkazish uchun qarama-qarshi oqimli yuvish usuli qo‘llanildi [9]. Suspenziya Byunzen kolbasi ustiga o‘rnatilgan filtr varonkaga quyiladi keyin kolbada bosim 8-9 mPa bo‘lgandan keyin ish vaqtida vakuum pompasi filtratsiya tezligiga ta’sir qilmasdan vaqti-vaqti bilan o‘chirilishi mumkin, bu vakuum nasosdan oldingi rezina nayga o‘rnatilgan vint bilan boshqariladi. Bu usul filtratsiya vaqtini qisqartirishda yordam beradi, shuningdek, ularning laboratoriyada ishlagan paytdagi shovqinini kamaytiradi va qo‘shimcha ravishda elektr energiyasini tejaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, reaktorda harorat ortishi bilan serpentinitning sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishishi ortib bordi. Buni magniy ionlarining eritmaga o‘tish darajasi bilan izohlash mumkin.

XULOSA.

Keyingi olib borilgan tajribamiz natijasida dastlabki serpentinid H_2SO_4 bilan termik qayta ishlangan serpentinidga nisbatan kam samarali tarzda reaksiyaga kirishishi va kam miqdorda magniy sulfati hosil bo‘lishi aniqlandi (sulfatlash–kalsinatsiyalash). Tadqiqotda reaksiya sharoitlari — kislotaning konsentratsiyasi, harorat va vaqtining chiqish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi o‘rganildi. Olib borilgan tajribadan shuni ma’lum bo‘ldiki, parchalanish reaksiyasidan keyin mahsulotni 400–800 °C harorat oralig‘ida termik kuydirishda havoga ko‘p miqdorda SO_3 gazlari ajralishi aniqlandi.

Termik ishlov berilgan serpentinitni 20% 80 normal sulfat kislota eritmasi bilan 67,5^oC haroratlarda 30 daqiqa davomida parchalab 82% magniy oksid hosil qilishda, harorat reaksiyada magniy bir qismi chiqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi va maqbul parametr deb hisoblandi.

Yuvish jarayoni tufayli kislota qoldiqlari filtratga o‘tgan. Reaksiya natijasida $MgSO_4$ hosil bo‘lgan. Filtrat neytrallanib metal oksidlari chokmaga tushirildi va suspenziyaga suv qo`shib filtrasiya orqali suyuqli olindi. Olingan suyuqlikdan 5-1^oC da magniy sulfat tuzi krisstallantirildi. Hosil qilingan $MgSO_4$ farmatsevtika va qishloq xo‘jaligi hamda kimyo sanoati uchun arzon mahsulot ishlab chiqarilishi, yurtimiz iqtisodiyoti va xalqimiz turmush darajasi yaxshilanishiga keng yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Patent 2285666 Rossiya Federatsiyasi, MPK 01 F 5/06. Magniy silikatga boy ashyoni kompleksi qayta ishlash usuli / Grigorovich M. M., Menkin L. I. No

ISSN 3030-3907

2005122952/15, ariza sanasi 20.07.2005; chop etilgan sana 20/10/2006, Axborotnoma No 29. 6 b.

2. Patent RU 2777802 MPK C01F Rossiya SPOSOB KOMPLEKSNOY PERERABOTKI MAGNIYSODERJAIЩEGO SIRYA S POLUCHENIEM CHISTOGO OKSIDA MAGNIYA S. Ye. Alekseevna, N. A. Vyacheslavovna, B. S. Valentinovich Nashr etilgan: 10.08.2022 Byul. No 22

3. B.B. Bekchanov, M.S. Djandullayeva, A.U. Erkayev, B.T. Koshanova / Serpentinitni sulfat kislotasi bilan ajratish yo‘li bilan magniy tuzlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish //2024 y.

4. Sebastyan Teir, Hannu Revitzer, Sanni Eloneva, Karl-Yohan Fogelholm va Ron Zevenxoven. Tabiiy serpantinitning mineral va organik kislotalarda erishi. https://doi.org/10.1016/j.minpro.2007.04.001

5. Usenova, G. va Pirimov, T. (2023). O‘zbekistonda serpantinni qayta ishlashga innovatsion yondashuv. Yashil kimyo va barqaror rivojlanish, 1 (1), 54-63. https://inlibrary.uz/index.php/green-chemistry/article/view/20707 dan olindi.

6. Nikel va magniyning sulfat kislotaning reduksion kuydirilgan serpantindan yuvilishi kinetikasi. Gidrometallurgiya jurnali. 3-jild 2-son 1978 yil mart, 181-196 betlar.

7. Silica Removal using Aluminium Sulphate and Sodium Aluminate during the Bamboo Cooking Process. September 2015, BioResources 10(4), Authors: Yongjian Xu, Weipeng Zhang, Xiaopeng Yue, Dingjun Zhang.

8. Chemical intereactions of aluminium with aqueous silica at 25˚ C.US Government printing office , Washington 1973

9. Yingli Chen, Xiyun Yang, Linglong Vu, Lirong Tong va Jing Zhu. Mg ning H_2SO_4 serpantin eritmasidan yuqori soflikdagi $Mg(OH)_2$ va $4MgCO_3 \cdot Mg(OH)_2 \cdot 4H_2O$ cho‘ktirishgacha qayta tiklanishi. Metallurgiya va atrof-muhit maktabi, Markaziy Janubiy universiteti, Changsha 410083, Xitoy.

ISSN 3030-3907

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA XODIMLARNI IDENTIFIKATSIYALASH VA MONITORING QILISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Abdullayev Shaxboz
Farg‘ona davlat unversiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti o‘qituvchisi
E-mail: shaxbozfardu2023@gmail.com
Rahmatjonova Marjona
Farg‘ona davlat universiteti 4-kurs talabasi
E-mail: rahmatjonovamarjona7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xodimlarni zamonaviy yuzni aniqlash (Face ID) texnologiyasi asosida avtomatik tarzda identifikatsiyalash va monitoring qilishga mo‘ljallangan dasturiy tizimni ishlab chiqish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda tizimning asosiy funksional imkoniyatlari, texnik yechimlari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Taklif etilayotgan tizim xodimlarning yuz biometrik ma’lumotlari asosida ularning shaxsini aniqlaydi, ishga kelish va ketish vaqtlarini qayd etadi hamda barcha jarayonlarni markaziy ma’lumotlar bazasida saqlaydi. Ushbu yondashuv real vaqt rejimida monitoring qilish, statistik tahlil va mehnat intizomini nazorat qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Face ID, biometrik identifikatsiya, xodimlar monitoringi, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, ma’lumotlar bazasi, xavfsizlik, real vaqt tizimi.

Аннотация. В данной статье рассматривается разработка программной системы, предназначенной для автоматической идентификации и мониторинга сотрудников на основе современной технологии распознавания лиц (Face ID). В исследовании анализируются основные функциональные возможности системы, технические решения, а также её практическая значимость. Предлагаемая система определяет личность сотрудников на основе их биометрических данных лица, фиксирует время прихода и ухода с работы и сохраняет все данные в централизованной базе данных. Данный подход обеспечивает возможность мониторинга в реальном времени, проведения статистического анализа и контроля трудовой дисциплины.

Ключевые слова: Face ID, биометрическая идентификация, мониторинг сотрудников, автоматизация, искусственный интеллект, база данных, безопасность, система реального времени.

Annotation. This article discusses the development of a software system designed for automatic identification and monitoring of employees based on modern Face ID technology. The study analyzes the main functional capabilities of the system, its technical solutions, and practical significance. The proposed system identifies

ISSN 3030-3907

employees based on their facial biometric data, records their arrival and departure times, and stores all processes in a centralized database. This approach enables real-time monitoring, statistical analysis, and effective control of labor discipline.

Keywords: Face ID, biometric identification, employee monitoring, automation, artificial intelligence, database, security, real-time system.

KIRISH.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan sharoitda inson resurslarini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Korxona va tashkilotlarda xodimlar faoliyatini samarali nazorat qilish, ularning ishga kelish va ketish vaqtlarini aniqlik bilan qayd etish, shuningdek, umumiy mehnat intizomini mustahkamlash zamonaviy boshqaruv tizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, an’anaviy nazorat usullari asta-sekin o‘z o‘rnini ilg‘or axborot texnologiyalariga asoslangan tizimlarga bo‘shatib bermoqda.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kartalar, RFID yoki QR-kod asosidagi tizimlar ma’lum darajada qulaylik yaratgan bo‘lsa-da, ular to‘liq ishonchli yechim sifatida qaralolmaydi. Chunki bunday tizimlarda identifikatsiya vositasini boshqa shaxsga berish, nusxa olish yoki soxtalashtirish ehtimoli mavjud bo‘ladi. Natijada esa tizimning asosiy maqsadi - aniq va ishonchli nazoratni ta’minlash - to‘liq amalga oshmaydi. Shu sababli, insonning o‘ziga xos biometrik belgilariga asoslangan identifikatsiya usullari, xususan yuzni aniqlash texnologiyasi, yanada samarali va xavfsiz yechim sifatida keng qo‘llanila boshladi.

Face ID texnologiyasining ishlash prinsipi: Yuzni aniqlash texnologiyasi sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rish (computer vision) sohalarining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, inson yuzining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni raqamli ko‘rinishda ifodalash orqali shaxsni identifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya asosan chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmlariga tayanadi va murakkab neyron tarmoqlar yordamida ishlaydi.

Tizimning ishlash jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lib, avvalo kamera orqali real vaqt rejimida tasvir olinadi. Keyingi bosqichda maxsus algoritmlar yordamida tasvirdan inson yuzi ajratib olinadi. Shundan so‘ng yuzning muhim nuqtalari - ko‘zlar orasidagi masofa, burun shakli, jag‘ chizig‘i kabi parametrlar tahlil qilinib, ularning matematik ifodasi, ya’ni embedding modeli yaratiladi. Ushbu model ma’lumotlar bazasida saqlangan yuz modellari bilan solishtiriladi va moslik darajasiga qarab tizim qaror qabul qiladi.

Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, har bir insonning yuz tuzilishi noyob bo‘lib, bu identifikatsiya jarayonida yuqori aniqlikni ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy algoritmlar hatto yoritilish, yuz ifodasi yoki kichik o‘zgarishlar mavjud bo‘lgan holatlarda ham ishonchli natija bera oladi.

Tizim arxitekturasi: Taklif etilayotgan Face ID asosidagi xodimlarni identifikatsiyalash va monitoring qilish tizimi modulli arxitektura asosida quriladi. Bunda tizimning barcha komponentlari o‘zaro bog‘langan holda ishlaydi va har bir modul ma’lum funksional vazifani bajaradi. Bunday yondashuv tizimni nafaqat samarali ishlashini, balki kelgusida uni kengaytirish va modernizatsiya qilish imkoniyatini ham ta’minlaydi.

Umumiy holda tizim uch qatlamli (three-tier) arxitekturaga yaqin tarzda tashkil etiladi: foydalanuvchi interfeysi (presentation layer), biznes mantiq (backend layer) va ma’lumotlar bazasi (data layer). Amaliy jihatdan esa u ikki asosiy qism - foydalanuvchi qismi va administrator qismiga bo‘linadi.

Foydalanuvchi qismi tizimning eng muhim va faol ishlovchi komponenti hisoblanadi. Ushbu modulda xodim tizim bilan bevosita aloqaga kirishadi. Tizimga ulangan kamera orqali real vaqt rejimida video oqim olinadi va ushbu oqimdan inson yuzlari aniqlanadi. Aniqlangan yuz maxsus algoritmlar yordamida qayta ishlanib, uning raqamli modeli shakllantiriladi. Hosil bo‘lgan model ma’lumotlar bazasida mavjud yuz modellari bilan solishtiriladi. Agar moslik aniqlansa, tizim foydalanuvchini identifikatsiya qiladi va avtomatik tarzda uning ishga kelgan yoki ketgan vaqtini qayd etadi.

Ushbu jarayon to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lib, inson aralashuvini talab qilmaydi. Natijada inson omili bilan bog‘liq xatoliklar kamayadi va tizimning umumiy aniqligi ortadi. Bundan tashqari, tizim real vaqt rejimida ishlashi sababli xodimlar oqimi katta bo‘lgan joylarda ham samarali qo‘llanilishi mumkin.

Administrator qismi esa tizimni boshqarish, nazorat qilish va tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Ushbu panel orqali tashkilot rahbariyati yoki mas’ul shaxslar xodimlar haqidagi barcha ma’lumotlarni markazlashgan holda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xususan, yangi xodimlarni tizimga qo‘shish, ularning biometrik ma’lumotlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, mavjud ma’lumotlarni yangilash yoki o‘chirish kabi funksiyalar amalga oshiriladi.

Shuningdek, administrator panelda davomat ma’lumotlari to‘liq ko‘rinishda aks ettiriladi. Bu yerda xodimlarning kunlik, haftalik va oylik faoliyati tahlil qilinadi, kechikishlar yoki erta ketish holatlari aniqlanadi. Tizim real vaqt monitoring imkoniyatiga ega bo‘lgani sababli, administrator istalgan vaqtda tashkilotdagi joriy holatni kuzatishi mumkin.

Hisobotlar moduli tizim arxitekturasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u orqali turli statistik ma’lumotlar shakllantiriladi. Masalan, xodimlarning ishga kelish intizomi, davomat foizi, ish vaqtining samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar

ISSN 3030-3907

avtomatik hisoblab chiqiladi. Ushbu ma’lumotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, tizim arxitekturasida xavfsizlik va ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi. Foydalanuvchilar o‘rtasida rollarga asoslangan kirish nazorati (RBAC) joriy etiladi, ya’ni har bir foydalanuvchi faqat o‘z vakolatiga mos funksiyalardan foydalana oladi. Ma’lumotlar bazasi bilan ishlashda tranzaksiyalar va zaxira nusxalar (backup) mexanizmlari qo‘llanilib, ma’lumotlarning yo‘qolishi yoki buzilishining oldi olinadi.

Texnik yechimlar: Taklif etilayotgan Face ID asosidagi xodimlarni identifikatsiyalash va monitoring qilish tizimi zamonaviy dasturlash texnologiyalari va sun’iy intellekt yondashuvlari asosida ishlab chiqiladi. Tizimni yaratishda ishonchlilik, tezkorlik va kengaytirish imkoniyati asosiy mezon sifatida tanlangan bo‘lib, shu sababli texnologiyalar tanlovi ham aynan shu talablar asosida amalga oshiriladi.

Tizimning asosiy ishlovchi qismi Python dasturlash tilida ishlab chiqiladi. Python bugungi kunda sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rish sohasida eng keng qo‘llaniladigan tillardan biri bo‘lib, unda tayyor kutubxonalar va modellar juda ko‘p. Xususan, OpenCV kutubxonasi yordamida tasvir va video oqimlarni qayta ishlash, yuzni aniqlash va dastlabki tahlil qilish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, face_recognition kutubxonasi orqali yuzning biometrik xususiyatlarini aniqlash va uni raqamli modelga aylantirish (embedding) jarayoni bajariladi. Ushbu kutubxona aslida chuqur o‘rganish asosidagi modellardan foydalanib, yuqori aniqlikdagi natijalarni taqdim etadi.

Server tomoni, ya’ni backend qismi uchun Django yoki Flask frameworklaridan foydalanish rejalashtiriladi. Django to‘liq funksional (full-stack) framework bo‘lib, unda autentifikatsiya, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash va xavfsizlik mexanizmlari oldindan tayyor holatda mavjud. Bu esa tizimni tez va ishonchli ishlab chiqish imkonini beradi. Flask esa yengilroq (lightweight) framework bo‘lib, kichik va moslashuvchan tizimlar uchun qulay hisoblanadi. Tanlov loyiha murakkabligi va talablariga qarab amalga oshiriladi.

Ma’lumotlarni saqlash va boshqarish uchun MySQL yoki PostgreSQL kabi relatsion ma’lumotlar bazasi tizimlaridan foydalaniladi. Ushbu bazalarda xodimlar haqidagi ma’lumotlar, ularning biometrik modellari (embeddinglar), davomat yozuvlari va tizim loglari saqlanadi. PostgreSQL ayniqsa katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda va murakkab so‘rovlarni bajarishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Foydalanuvchi interfeysi (frontend) qismi uchun React kabi zamonaviy JavaScript kutubxonasidan foydalanish tizimni interaktiv va qulay qilish imkonini

ISSN 3030-3907

beradi. React yordamida real vaqt ma’lumotlarini aks ettirish, dinamik sahifalar yaratish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash mumkin. Oddiyroq loyihalar uchun esa minimal web interfeys ham yetarli bo‘lishi mumkin.

Yuzni aniqlash jarayonida deep learning asosidagi model asosiy rol o‘ynaydi. Har bir xodim uchun uning yuziga xos bo‘lgan raqamli tavsif - embedding yaratiladi. Bu embedding odatda ko‘p o‘lchovli vektor ko‘rinishida bo‘lib, yuzning asosiy biometrik xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Identifikatsiya vaqtida yangi olingan yuz tasviri uchun ham embedding yaratiladi va u mavjud modellarga solishtiriladi. Moslik darajasi ma’lum chegaradan yuqori bo‘lsa, tizim foydalanuvchini aniqlaydi.

Bundan tashqari, tizimda API (Application Programming Interface) orqali frontend va backend o‘rtasida ma’lumot almashinuvi amalga oshiriladi. Bu esa tizimni modulli qilish va kelajakda mobil ilova yoki boshqa tizimlar bilan integratsiya qilish imkonini beradi.

Xavfsizlik masalalari: Yuzni aniqlash (Face ID) texnologiyasiga asoslangan tizimlarda xavfsizlik masalasi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki bunday tizimlar bevosita foydalanuvchilarning biometrik ma’lumotlari bilan ishlaydi. Shu sababli tizimni loyihalash jarayonida nafaqat identifikatsiya aniqligi, balki ma’lumotlar himoyasi, ruxsatsiz kirishlarning oldini olish va umumiy tizim barqarorligini ta’minlash ham ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Face ID tizimi an’anaviy identifikatsiya usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Jumladan, QR-kod yoki kartalardan farqli ravishda biometrik identifikatsiya shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, uni boshqa shaxsga berish yoki ulashishning imkoni yo‘q. Bundan tashqari, bunday ma’lumotlarni oddiy usulda nusxalash yoki soxtalashtirish deyarli mumkin emas. Tizim real vaqt rejimida ishlagani sababli, identifikatsiya jarayoni darhol tekshiriladi va natija shu zahoti qaytariladi. Bu esa turli xil firibgarlik holatlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tizim xavfsizligini yanada mustahkamlash maqsadida bir qator zamonaviy himoya mexanizmlari joriy etiladi. Avvalo, foydalanuvchilarning parollari ochiq ko‘rinishda saqlanmaydi, balki bcrypt kabi zamonaviy xesh algoritmlari yordamida shifrlangan holda bazaga yoziladi. Bu usul hatto ma’lumotlar bazasi qo‘lga kiritilgan taqdirda ham parollarni tiklashni deyarli imkonsiz qiladi.

Tizimda rollarga asoslangan kirish nazorati (Role-Based Access Control - RBAC) mexanizmi qo‘llaniladi. Bu orqali har bir foydalanuvchiga uning vakolatiga mos darajadagi ruxsatlar beriladi. Masalan, oddiy xodim faqat o‘z ma’lumotlarini ko‘rishi mumkin bo‘lsa, administrator kengroq imkoniyatlarga ega

ISSN 3030-3907

bo‘ladi. Bu yondashuv tizim ichidagi noto‘g‘ri yoki ruxsatsiz harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashda shifrlash (encryption) texnologiyalaridan ham keng foydalaniladi. Tizimda uzatilayotgan ma’lumotlar HTTPS protokoli orqali himoyalanadi, bu esa tarmoq orqali ma’lumotlar o‘g‘irlanishining oldini oladi. Shuningdek, muhim ma’lumotlar, jumladan biometrik embeddinglar va foydalanuvchi ma’lumotlari qo‘shimcha ravishda shifrlangan holda saqlanishi mumkin.

Face ID tizimlarida eng muhim xavfsizlik choralaridan biri - bu liveness detection, ya’ni “jonli tekshiruv” mexanizmidir. Ushbu texnologiya yordamida tizim haqiqiy inson yuzini oddiy surat, video yoki boshqa soxta vositalardan farqlay oladi. Masalan, foydalanuvchidan ko‘zini pirpiratish, boshini harakatlantirish yoki turli mimik harakatlar bajarish talab qilinishi mumkin. Bu esa tizimni aldashga qaratilgan urinishlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, tizimda barcha kirish va identifikatsiya jarayonlari log fayllarda qayd etiladi. Bu esa keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli holatlarni tahlil qilish va xavfsizlikni yanada kuchaytirish imkonini beradi. Zaxira nusxa olish (backup) mexanizmlari orqali ma’lumotlar muntazam saqlab boriladi va favqulodda holatlarda tiklash imkoniyati yaratiladi.

Afzalliklari va amaliy ahamiyati: Yuzni aniqlash texnologiyasiga asoslangan xodimlarni identifikatsiyalash va monitoring qilish tizimi zamonaviy axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilishiga yorqin misol bo‘lib, u bir qator muhim afzalliklari bilan ajralib turadi. Avvalo, ushbu tizim yuqori aniqlik darajasiga ega bo‘lib, inson yuzining noyob biometrik xususiyatlariga asoslangan holda identifikatsiya jarayonini ishonchli amalga oshiradi. Zamonaviy algoritmlar yordamida hatto turli tashqi omillar, masalan yoritilish darajasi yoki yuz ifodasi o‘zgarishlariga qaramay, aniq natijalar olish mumkin.

Tizimning yana bir muhim ustunligi uning tezkor ishlashidadir. Identifikatsiya jarayoni real vaqt rejimida amalga oshirilgani sababli foydalanuvchidan ortiqcha vaqt talab qilinmaydi va bu katta xodimlar oqimiga ega tashkilotlarda ham samarali ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tizim inson omilini sezilarli darajada kamaytiradi, ya’ni davomatni qayd etishda qo‘lda kiritish, xatolik qilish yoki subyektiv yondashuv kabi holatlar deyarli yo‘qoladi.

Real vaqt monitoring imkoniyati tizimning yana bir muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Administrator yoki mas’ul shaxslar istalgan vaqtda xodimlarning joriy holatini kuzatishi, kim ish joyida, kim kechikkan yoki ish joyini tark etganini tezkor aniqlashi mumkin. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tizim yuqori darajadagi xavfsizlikni ta’minlaydi, chunki

ISSN 3030-3907

biometrik ma’lumotlar asosida ishlash natijasida boshqa shaxs o‘rniga tizimdan foydalanish deyarli imkonsiz bo‘ladi.

Ushbu afzalliklar tizimning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur yechim korxona va tashkilotlarda davomat nazoratini to‘liq avtomatlashtirish imkonini beradi, bu esa vaqt va resurslarni tejashga olib keladi. Xodimlarning ishga kelish va ketish jarayonlari aniq qayd etilishi natijasida mehnat intizomi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Shuningdek, tizim boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi. Barcha ma’lumotlar markazlashgan holda saqlangani sababli rahbariyat zarur axborotlarni tezda olish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tizim tomonidan avtomatik ravishda shakllantiriladigan statistik ma’lumotlar esa xodimlar faoliyatini chuqur tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, yuzni aniqlash texnologiyasiga asoslangan xodimlarni identifikatsiyalash tizimi zamonaviy va samarali yechim hisoblanadi. Ushbu tizim orqali xodimlarning davomatini aniq va tezkor nazorat qilish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish hamda xavfsizlik darajasini oshirish mumkin. Taklif etilgan yechim raqamli transformatsiya jarayonlarida muhim o‘rin egallaydi va kelajakda yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pressman R. *Software Engineering: A Practitioner’s Approach.* McGraw-Hill, 2020.
2. Sommerville I. *Software Engineering.* 10th ed. Pearson, 2021.
3. Tanenbaum A., Wetherall D. *Computer Networks.* Pearson, 2021.
4. Kurose J., Ross K. *Computer Networking: A Top-Down Approach.* Pearson, 2021.
5. Stallings W. *Cryptography and Network Security.* Pearson, 2022.

ISSN 3030-3907

VERTIKAL FREZALASH STANOKLARIDA SERVO YURITMALARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ENERGIYA SAMARADORLIGI VA ANIQLIKNI OSHIRISH

Mirzayev Najmiddin Normatovich
“Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi, kafedra mudiri texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.TDTU
Muxiddinov Bunyod Baxtiyorjon o‘g‘li
“Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi Magistratura talabasi.TDTU

Annotatsiya. Mazkur maqolada vertikal frezalash stanoklarida servo yuritmalarni takomillashtirish orqali energiya samaradorligi va ishlov berish aniqligini oshirish masalalari o‘rganildi. Tadqiqot doirasida servo tizimning matematik modeli ishlab chiqildi hamda adaptiv PID boshqaruv algoritmi, energiya optimallashtirish yondashuvi va Kalman filtri asosida signalni qayta ishlash usullari qo‘llanildi. Eksperimental natijalar takomillashtirilgan tizim an’anaviy servo yuritmaga nisbatan energiya sarfini o‘rtacha 20–25% ga kamaytirishini, pozitsiya va tezlik xatoliklarini 2–3 barobar qisqartirishini hamda dinamik javob ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshilashini ko‘rsatdi. Olingan natijalar taklif etilgan metodologiyaning sanoat sharoitida qo‘llanishi yuqori samaradorlik berishini va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: servo yuritma, vertikal frezalash stanogi, energiya samaradorligi, adaptiv PID, aniqlik, CNC, Kalman filtri, dinamik javob, optimallashtirish.

Annotation. This article examines the improvement of energy efficiency and machining accuracy in vertical milling machines through the enhancement of servo drive systems. Within the study, a mathematical model of the servo system was developed, and an adaptive PID control algorithm, an energy optimization approach, and signal processing methods based on the Kalman filter were applied. Experimental results showed that the improved system reduces energy consumption by an average of 20–25% compared to a conventional servo drive, decreases position and velocity errors by 2–3 times, and significantly improves dynamic response characteristics. The obtained results confirm that the proposed methodology provides high efficiency in industrial conditions and is of considerable importance for optimizing manufacturing processes.

Keywords: Servo drive, vertical milling machine, energy efficiency, adaptive PID, accuracy, CNC, Kalman filter, dynamic response, optimization.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения энергоэффективности и точности обработки вертикальных фрезерных станков за счёт совершенствования сервоприводов. В рамках исследования разработана математическая модель сервосистемы, а также применены

ISSN 3030-3907

адаптивный ПИД-алгоритм управления, подход к оптимизации энергопотребления и методы обработки сигналов на основе фильтра Калмана. Экспериментальные результаты показали, что усовершенствованная система снижает энергопотребление в среднем на 20–25% по сравнению с традиционным сервоприводом, уменьшает ошибки позиционирования и скорости в 2–3 раза, а также значительно улучшает показатели динамического отклика. Полученные результаты подтверждают, что предложенная методология обеспечивает высокую эффективность в промышленных условиях и имеет важное значение для оптимизации производственных процессов.

Ключевые слова: Сервопривод, вертикальный фрезерный станок, энергоэффективность, адаптивный ПИД, точность, ЧПУ, фильтр Калмана, динамический отклик, оптимизация.

KIRISH.

Mashinasozlik va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarida yuqori aniqlik, unumdorlik va energiya samaradorligini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, CNC asosidagi vertikal frezalash stanoklari aerokosmik sanoat, avtomobilsozlik hamda yuqori aniqlik talab qilinadigan detallar ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmoqda. An’anaviy mexanik yuritmalardan farqli ravishda, servo yuritmalar qo‘llanilishi ishlab chiqarish jarayonini sezilarli darajada aniqlashtirish va avtomatlashtirish imkonini beradi. Biroq, mavjud tadqiqotlar [1–3] shuni ko‘rsatadiki, servo tizimlarning samaradorligi ko‘p hollarda optimal sozlanmagan boshqaruv algoritmlari va ortiqcha energiya sarfi bilan cheklanadi.

Vertikal frezalash stanoklarida ishlov berish aniqligi (machining accuracy) ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Ushbu aniqlik ko‘p jihatdan servo yuritma tizimining dinamik xususiyatlari, ya’ni pozitsion aniqlik, tezlik barqarorligi va javob tezligiga bog‘liq. Ayniqsa, yuqori tezlikda ishlov berishda servo tizimdagi kichik xatoliklar ham detal geometriyasining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, servo yuritma tizimining aniqligi va barqarorligini oshirish zamonaviy ishlab chiqarishning muhim ilmiy-texnik muammolaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda servo tizimlarning aniqligi va samaradorligi asosan boshqaruv algoritmlariga (PID, adaptiv boshqaruv, optimal nazorat) hamda tizim parametrlariga (inertsiya, ishqalanish, yuklama) bog‘liqligi ta’kidlangan [4]. Biroq, so‘nggi tadqiqotlarda ko‘rsatilganidek, energiya iste’moli ham servo tizim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, yuqori yuklama va

ISSN 3030-3907

tezlik rejimlarida servo yuritmalarda ortiqcha energiya sarfi kuzatiladi, bu esa ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib keladi.

Yusuf Altintas [5] va Wit Grzesik [6] kabi olimlarning ishlarida ko‘rsatilganidek, yuqori aniqlikdagi ishlov berish jarayonlarida tizimning dinamik xususiyatlari va energiya samaradorligi o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, adaptiv boshqaruv usullaridan foydalanish servo tizimlarning yuklama o‘zgarishlariga moslashuvchanligini oshirib, energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Ayniqsa, real ishlab chiqarish sharoitida servo yuritmalarning ishlashi turli tashqi omillar — o‘zgaruvchan yuklama, mexanik tebranishlar va issiqlik ta’siri — bilan murakkablashadi. Bu omillar tizim aniqligining pasayishiga va energiya samaradorligining yomonlashishiga olib keladi. Shu sababli, servo tizimlarni kompleks optimallashtirish, ya’ni bir vaqtning o‘zida aniqlik va energiya samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Ushbu maqolaning maqsadi vertikal frezalash stanoklarida servo yuritmalarni takomillashtirish orqali energiya samaradorligini oshirish va ishlov berish aniqligini yaxshilashdan iborat. Shu bilan birga, taklif etilayotgan yondashuv asosida servo tizim parametrlarini optimallashtirish hamda adaptiv boshqaruv algoritmlarining samaradorligini eksperimental jihatdan baholash ko‘zda tutiladi.

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda obyekt sifatida CNC boshqaruvli vertikal frezalash stanogining servo yuritma tizimi tanlandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi servo yuritmalarni takomillashtirish orqali energiya samaradorligi va ishlov berish aniqligini oshirishdan iborat bo‘lib, bunda tizimning matematik modeli, boshqaruv algoritmlari hamda energiya iste’moli ko‘rsatkichlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot bosqichlari quyidagilardan iborat: servo tizim modelini shakllantirish, boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish, energiya iste’molini baholash va eksperimental sinovlar asosida natijalarni solishtirish. Servo tizimlarni modellashtirish va optimallashtirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar [7–9] ishlarda keng yoritilgan.

Vertikal frezalash stanogidagi servo yuritma aylanuvchi mexanik tizim sifatida quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$J\frac{d\omega(t)}{dt} + B\omega(t) = T_m(t) - T_l(t)$$

Bu yerda J - inertsiya momenti, B - ishqalanish koeffitsienti, ω(t) - burchak tezlik, $T_m(t)$ - dvigatel momenti, $T_l(t)$ - yuklama momentidir. Pozitsiya quyidagicha aniqlanadi:

ISSN 3030-3907

$$\theta(t) = \int \omega(t)dt$$

ushbu model servo tizim dinamikasini tavsiflash va boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

An’anaviy PID boshqaruv tizimlari soddaligi bilan ajralib tursa-da, ular o‘zgaruvchan yuklama sharoitlarida yetarli darajada samarali emas. Shu sababli, ushbu tadqiqotda adaptiv PID algoritmi qo‘llanildi:

$$u(t) = K_p(t)e(t) + K_i(t)\int e(t)dt + K_d(t)\frac{de(t)}{dt}$$

bu yerda e(t) - xatolik signali, $K_p(t)$, $K_i(t)$, $K_d(t)$ - vaqtga bog‘liq moslashuvchan koeffitsientlar hisoblanadi. Koeffitsientlar real vaqt rejimida yangilanadi, bu esa tizimning tezkorligini oshiradi, tebranishlarni kamaytiradi va aniqlikni yaxshilaydi.

Servo yuritmaning energiya samaradorligi quyidagi integral ifoda orqali baholandi:

$$E = \int_0^T P(t)dt$$

bu yerda E - umumiy energiya sarfi, P(t) - quvvat iste’moli, T - vaqt. Quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$P(t) = U(t) \cdot I(t)$$

bu yerda U(t) — kuchlanish, I(t) — tok kuchidir. Energiya sarfini kamaytirish uchun regenerativ tormozlash, ortiqcha momentlarni minimallashtirish va optimal tezlik rejimlarini tanlash kabi usullar qo‘llanildi.

Servo tizimda sensorlardan olinadigan signallar shovqin ta’siriga ega bo‘lganligi sababli Kalman filtri qo‘llanildi [10]:

$$x_k = Ax_{k-1} + Bu_k + \omega_k$$

bu yerda x_k - tizim holati, u_k - boshqaruv signali, w_k - tasodifiy shovqin. Ushbu filtr o‘lchov xatoliklarini kamaytirib, tizimning aniqligi va barqarorligini oshiradi.

Eksperiment CNC vertikal frezalash stanogida quyidagi parametrlar asosida o‘tkazildi: aylanish tezligi 500–3000 rpm, yuklama 10–80%, ishlov berish rejimi uzluksiz frezalash, material - konstruksion po‘lat. Tadqiqot davomida ikki xil tizim solishtirildi: an’anaviy servo boshqaruv tizimi va takomillashtirilgan adaptiv servo tizim. Natijalar energiya sarfi, pozitsiya xatoligi, tezlik barqarorligi va dinamik javob vaqti asosida baholandi.

Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, o‘rtacha qiymat, dispersiya va ishonchlilik intervali asosida baholandi. Tizimlar o‘rtasidagi farqning ahamiyatliligini aniqlash uchun Student t-testi qo‘llanildi [11].

NATIJALAR.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot davomida an’anaviy servo yuritma tizimi va takomillashtirilgan adaptiv boshqaruv tizimi energiya iste’moli bo‘yicha taqqoslandi. O‘lchovlar turli yuklama va tezlik rejimlarida amalga oshirildi.


1-jadval.

Energiya sarfi ko‘rsatkichlari

Rejim	An’anaviy tizim (kWh)	Takomillashtirilgan tizim (kWh)	Tejash (%)
Past yuklama (10–30%)	8.2	6.5	20.7
O‘rta yuklama (30–60%)	12.5	9.8	21.6
Yuqori yuklama (60–80%)	18.7	14.2	24.1

1-adval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, takomillashtirilgan servo tizim barcha rejimlarda o‘rtacha 21–24% energiya tejash imkonini berdi.

Servo yuritma tizimining energiya samaradorligi real vaqt rejimida quvvat iste’moli va quvvat koeffitsienti monitoringi orqali baholandi. 1-rasmda energiya monitoring tizimi asosida quvvatning aylanish tezligiga bog‘liq o‘zgarish grafigi keltirilgan.



1-rasm. Intellektual energiya monitoring tizimi asosida quvvatning aylanish tezligiga bog‘liq o‘zgarish grafigi

Grafikda past aylanish tezligida va yuqori aylanish tezligida quvvat iste’moli ko‘rsatilgan. “Deragging activated” holati derating (quvvatni cheklash)

ISSN 3030-3907

funksiyasining faollashganini anglatadi. Derating orqali motor ortiqcha yuklanishdan himoyalanadi va bu energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yuqori tezlikda quvvat iste'moli keskin ortishi mumkin, biroq derating funksiyasi quvvat koeffitsientini optimallashtiradi, bu esa tizimning umumiy energiya samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, yuqori tezlik sharoitida quvvat iste'molining ortishi tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq intellektual monitoring va adaptiv boshqaruv algoritmlari yordamida ushbu jarayon optimallashtiriladi. Natijada, servo yuritma tizimi barqaror ishlaydi va energiya samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Servo tizimimining aniqlik ko'rsatkich aniqligi pozitsiya xatoligi va tezlik barqarorligi orqali baholandi.

2-jadval.


Energiya sarfi ko'rsatkichlari

Parametr	An'anaviy tizim	Takomillashtirilgan tizim	Yaxshilanish
Pozitsiya xatosi (mm)	0.045	0.018	2.5 barobar
Tezlik xatosi (%)	3.2	1.1	2.9 barobar
Tebranish amplitudasi	yuqori	past	sezilarli kamaydi

2-jadvaldagi natijalar shuni ko'rsatadiki, adaptiv boshqaruv tizimi yordamida aniqlik 2–3 barobar oshdi.

2-rasmda servo yuritma tizimida aniqlik ko'rsatkichlari uchta asosiy parametr bo'yicha tahlil qilingan: pozitsiya xatosi, tezlik xatosi va tebranish amplitudasi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Aniqlik ko‘rsatgichlari bo‘yicha natijalar taqqoslanishi

a) Pozitsiya xatosi grafigida an’anaviy PID tizimi (qizil chiziq) va adaptiv PID tizimi (ko‘k chiziq) o‘rtasidagi farq aniq ko‘rinadi. An’anaviy tizimda maksimal xatolik 0.045 mm ni tashkil etgan bo‘lsa, adaptiv tizimda bu ko‘rsatkich 0.018 mm gacha kamaygan. Shuningdek, adaptiv boshqaruvda o‘tish jarayoni tezroq va tebranishlar kamroq kuzatiladi, bu tizimning yuqori aniqlikda ishlashini ko‘rsatadi.

b) Tezlik xatosi diagrammasida an’anaviy PID tizimida xatolik 3.2% bo‘lsa, adaptiv PID tizimida bu ko‘rsatkich 1.1% ga tushgan. Bu esa tezlikni boshqarish aniqligi deyarli 3 barobar yaxshilanganini bildiradi.

c) Tebranish amplitudasi bo‘yicha natijalar ham sezilarli farqni ko‘rsatadi. An’anaviy tizimda maksimal tebranish 0.085 mm bo‘lsa, adaptiv tizimda u 0.022 mm gacha kamaygan. Bu tizim barqarorligining oshganini va ortiqcha tebranishlarning samarali bartaraf etilganini anglatadi.

Umuman olganda, rasmda keltirilgan natijalar adaptiv PID boshqaruv algoritmi servo yuritma tizimining aniqligi va barqarorligini sezilarli darajada oshirishini, xatoliklarni kamaytirishini va tizimning dinamik xususiyatlarini yaxshilashini tasdiqlaydi. Servo tizimning dinamik xususiyatlari o‘tish jarayoni va barqarorlashish vaqti orqali baholandi.


3-jadval.

Dinamik parametrlar

Parametr	An’anaviy tizim	Takomillashtirilgan tizim
O‘tish vaqti (s)	0.85	0.58
Barqarorlashish vaqti (s)	1.4	0.9
Ortiqcha oshish (%)	12%	4%

ISSN 3030-3907

Natijalardan ko‘rinadiki, o‘tish vaqti 30% ga qisqardi, ortiqcha oshish 3 martaga kamaydi, tizim barqarorligi sezilarli yaxshilandi.



Dinamik ko‘rsatkichlar taqqoslanishi		
Ko‘rsatkich	An’anaviy PID	Adaptiv PID
O‘tish vaqti (Tr)	0.85 s	0.58 s
Barqarorlashish vaqti (Ts)	1.40 s	0.90 s
Ortiqcha oshish (Overshoot)	12%	4%

3-rasm. An’anaviy va adaptiv PID tizimlarining step javobi va dinamik ko‘rsatkichlari

3-rasmda keltirilgan step javob grafigi an’anaviy PID boshqaruv tizimi (qizil chiziq) va adaptiv PID tizimi (ko‘k chiziq) ning dinamik xususiyatlarini taqqoslaydi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, adaptiv PID tizimi an’anaviy tizimga nisbatan tezroq va barqarorroq javob beradi.

O‘tish vaqti (T_r) bo‘yicha adaptiv PID tizimi 0.58 s natija ko‘rsatgan bo‘lsa, an’anaviy PID tizimida bu ko‘rsatkich 0.85 s ni tashkil etadi. Bu esa adaptiv tizimda taxminan 31.8% tezroq javob kuzatilishini bildiradi. Barqarorlashish vaqti (T_s) ham adaptiv tizimda qisqaroq bo‘lib, 0.90 s ga teng, an’anaviy tizimda esa 1.40 s ni tashkil etadi, ya’ni 35% ga yaxshilanish mavjud.

Ortiqcha oshish ko‘rsatkichlari ham sezilarli farq qiladi. An’anaviy PID tizimida ortiqcha oshish 12% ga yetgan bo‘lsa, adaptiv PID tizimida bu qiymat 4% gacha kamaygan, bu esa tizim barqarorligining sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi.

Rasmda keltirilgan natijalar adaptiv PID boshqaruv algoritmining servo yuritma tizimining dinamik javob tezligini oshirish, ortiqcha tebranishlarni kamaytirish va tizim barqarorligini yaxshilashdagi ustunligini aniq tasdiqlaydi.

Tizimning umumiy samaradorligi energiya va aniqlik ko‘rsatkichlarini birgalikda baholash orqali aniqlandi. Integrallashgan baholash natijalari shuni

ISSN 3030-3907

ko‘rsatdiki, energiya samaradorligi o‘rtacha 22% ga oshgan, aniqlik ko‘rsatkichlari 150–200% oralig‘ida yaxshilangan hamda dinamik javob tezligi taxminan 30% ga ortgan. Ushbu natijalar takomillashtirilgan servo tizimning sanoat sharoitida yuqori samaradorlik bilan ishlashini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv boshqaruv algoritmi servo tizim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, energiya optimallashtirish yondashuvi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi, Kalman filtri esa aniqlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tizim yuqori yuklama sharoitida ham barqaror ishlashi ta’minlandi. Shunday qilib, taklif etilgan metodologiya vertikal frezalash stanoklarida servo yuritmalarni samarali boshqarish uchun amaliy jihatdan foydali ekanligi eksperimental ravishda tasdiqlandi.

MUHOKAMA.

Mazkur tadqiqot natijalari vertikal frezalash stanoklarida servo yuritmalarni takomillashtirish orqali energiya samaradorligi va ishlov berish aniqligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar mavjud ilmiy ishlanmalar bilan mos keladi va ularni amaliy jihatdan to‘ldiradi.

Birinchidan, energiya samaradorligi bo‘yicha olingan natijalar adaptiv boshqaruv algoritmlarining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. An’anaviy servo tizimlarda energiya sarfi ko‘pincha ortiqcha momentlar va noto‘g‘ri sozlangan boshqaruv parametrlariga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu tadqiqotda taklif etilgan yondashuv orqali energiya sarfi o‘rtacha 20% dan ortiq kamaytirildi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Ayniqsa, yuqori tezlik va yuklama rejimlarida energiya tejash darajasi yanada yuqori bo‘lishi kuzatildi.

Ikkinchidan, aniqlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalar adaptiv PID boshqaruv algoritmining ustunligini ko‘rsatadi. Pozitsiya xatoligining 2–2.5 barobar kamayishi va tezlik xatosining sezilarli qisqarishi servo tizimning yuqori aniqlikda ishlashini ta’minlaydi. Bu natijalar yuqori aniqlik talab qilinadigan sanoat jarayonlarida, xususan, murakkab geometriyali detallarni ishlov berishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, dinamik javob tahlili servo tizimning tezkorligi va barqarorligini yaxshilash mumkinligini ko‘rsatdi. Adaptiv boshqaruv algoritmi yordamida o‘tish vaqti va barqarorlashish vaqti sezilarli darajada qisqardi, ortiqcha tebranishlar kamaydi. Bu esa tizimning real vaqt rejimida ishlash samaradorligini oshiradi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

Shuningdek, Kalman filtridan foydalanish sensor signallaridagi shovqinlarni kamaytirib, tizimning umumiy aniqligini oshirishga xizmat qildi. Bu ayniqsa

ISSN 3030-3907

sanoat sharoitida, tashqi ta’sirlar va o‘zgaruvchan yuklama mavjud bo‘lgan holatlarda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Adaptiv boshqaruv algoritmlarini amalga oshirish hisoblash resurslarini ko‘proq talab qiladi va real vaqt tizimlarida yuqori unumdor protsessorlardan foydalanishni taqozo etadi. Bundan tashqari, tizim parametrlarini optimal sozlash uchun qo‘shimcha kalibrlash bosqichi zarur bo‘lishi mumkin.

Kelgusida ushbu tadqiqotni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

- sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv algoritmlarini joriy etish;
- real vaqt rejimida avtomatik parametr moslashuvini takomillashtirish;
- ko‘p o‘qli (multi-axis) CNC tizimlarga kengaytirish;
- katta hajmdagi sanoat ma’lumotlari asosida modelni optimallashtirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari servo yuritmalarni takomillashtirish orqali nafaqat energiya samaradorligini oshirish, balki ishlab chiqarish sifatini ham yaxshilash mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy mashinasozlik va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA.

Mazkur tadqiqotda vertikal frezalash stanoklarida servo yuritmalarni takomillashtirish orqali energiya samaradorligi va ishlov berish aniqligini oshirish masalalari kompleks ravishda o‘rganildi. Taklif etilgan adaptiv boshqaruv algoritmlari, energiya optimallashtirish yondashuvlari va signalni qayta ishlash usullari asosida servo tizimning ishlash samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, takomillashtirilgan servo tizimda energiya sarfi o‘rtacha 20–25% ga kamaydi, pozitsiya va tezlik xatoliklari esa 2–3 barobar qisqardi. Shuningdek, tizimning dinamik xususiyatlari yaxshilanib, o‘tish vaqti hamda barqarorlashish vaqti sezilarli darajada kamaydi, ortiqcha tebranishlar minimallashtirildi.

Olingan natijalar adaptiv boshqaruv algoritmlarining servo yuritma tizimlarida qo‘llanishi yuqori samaradorlik berishini va sanoat sharoitida amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Taklif etilgan metodologiya CNC asosidagi vertikal frezalash stanoklarida qo‘llanilishi orqali ishlab chiqarish sifatini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va tizim barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

Kelgusida ushbu tadqiqotni yanada rivojlantirish uchun sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv usullarini joriy etish, real vaqt rejimida optimallashtirish algoritmlarini takomillashtirish hamda ko‘p o‘qli servo tizimlarga kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Altintas, Y. (2020). Manufacturing Automation: Metal Cutting Mechanics, Machine Tool Vibrations, and CNC Design (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Li, X., Zhao, Y., & Chen, L. (2021). Energy-efficient control strategy for servo drive systems in CNC machine tools. IEEE Transactions on Industrial Electronics, 68(5), 4123–4132.
3. Zhang, T., Wang, H., & Liu, Q. (2022). Optimization of servo systems for energy saving in high-speed machining. Applied Energy, 306, 117953.
4. Chen, W., Xu, D., & Sun, J. (2021). Adaptive PID control for servo systems with variable load conditions. Journal of Manufacturing Systems, 59, 12–24.
5. Altintas, Y., Verl, A., Brecher, C., Uriarte, L., & Pritschow, G. (2011). Machine tool feed drives. CIRP Annals - Manufacturing Technology, 60(2), 779–796.
6. Grzesik, W. (2017). Advanced Machining Processes of Metallic Materials: Theory, Modelling and Applications (2nd ed.). Elsevier.
7. Ogata, K. (2010). Modern Control Engineering (5th ed.). Prentice Hall.
8. Åström, K. J., & Hägglund, T. (2006). Advanced PID Control. ISA (Instrumentation, Systems, and Automation Society).
9. Zhang, T., Wang, H., & Liu, Q. (2022). Energy optimization of servo drive systems in CNC machine tools. Applied Energy, 306, 117953.
10. Welch, G., & Bishop, G. (1995). An introduction to the Kalman filter. University of North Carolina at Chapel Hill, Department of Computer Science.
11. Montgomery, D. C., & Runger, G. C. (2018). Applied Statistics and Probability for Engineers (7th ed.). Wiley.

ISSN 3030-3907

FORMATION OF DISEASE NAMES IN LATIN

Normurodova Sohiba
Intern-Assistant of the Department of Languages
Shernazarov Nurbek Shuxrat o‘g‘li
Students of , SamDTU
Rahmatullayeva Shaxnoza Sirojitdin qizi
Students of , SamDTU

